


MİRACH CHAG'RI OQTOSH

# O'ZINGGA XUSH KELDING

*"Jigarrang novdalardan pushti rang gullar ochilgani uchun  
umidsizlikka hojat yo'q"*



Horgin, dunyo tashvishlari-  
dan tolibgan, bir zum  
tin olishni, özini yaxshi his  
qilishni va öziga kelishni  
istaganlar uchun...



Kun tavsiyasi:

Bugun siz kimlardandir  
kutayotgan etiborni  
ozingizga bering.

Siz hech kimga qaram emassiz va  
oizingiz uchun kifoyasiz!

Kimdir doimo yoningizda boliishi shart emas.

Siz oizingiz bilan ham tokissiz.

*«Olmid keyingi sahifada  
bölishi mumkin.  
Kitobni yopma».*  
*Edmond Jobs*

Ehtimol, hozir «Mirach yana qaysi qizning dardida kitob yozib, yana bizni o'rtamoqchi ekan?» deb o'ylayotgan-dirsiz. Tashvishlanmang. Men hech kimni sevmadim, to'g'ri-roq'i, seva olmadim. Aslida, bundan oldingi kitoblarimni yozishdan maqsadim ham o'zimning dardlarim bilan sizning yuragingizni siqish emas, balki haqiqatni aytish edi. Bu safar ham shunday qilmoqchiman, lekin biroz boshqacha usul bilan. Aytganimdek, men hech kimni sevmadim, seva olmadim. «Yuraging toshga aylandimi?» deb so'raydigan bo'lsangiz, menimcha, ha... Qalbim endi kimnidir sevib qolish uchun juda zaif, tuyg'ularim esa kimgadir yaqinlashish uchun juda olisda. Ishoning, ko'p bor urindim. Kimnidir chinakamiga sevishga, kimgadir tegishli bo'lishga va boricha qabul qilishga harakat qildim. Biroq foydasi bo'lmadi. «Nima, har doim ayb ulardami, senda hech qanday xato yo'qmi?» deydigan bo'lsangiz, albatta, bor. Men ham mukammal emasman. Al-batta, mening ham xatolarim, nuqsonlarim va to'g'rilanishi kerak bo'lган kamchiliklarim bisyor. Zotan, mukammallikka ishonmayman. Shuning uchun men mukammalini qidirib, o'zimni o'qqa-cho'qqa urmayman. Mening yagona aybim – qadrlash, himoya qilish va doimo harakat qilishdir. Buni hech kim xohlamagani uchun doim yutqazgan va yolg'iz qolgan tomon men bo'laman.

Anchadan beri kimnidir hayotimga kiritishga yoki kimgadir qalbimdan joy berishga urinmadim. Kimnidir

hayotimga kiritish u yoqda tursin, hatto o'zimni birovga izohlash, tushuntirish, isbotlash uchun kuch topa olmayapman. Ba'zan o'zimni bir hikoyaning oxirida turgandek his qilaman. Ammo yakun yoqimli tuyiladi. Loaqal boshingda g'ujg'on o'ynaydigan xayollar yo'q. Na to'sqinlik qiladigan, na aralashadigan odam yo'q. Kim uchundir yonib, kul bo'lmay-san, kimdir sen uchun ham yonmaydi. Bu bosqichga yetgu-nimcha nimalarni boshdan kechirganimni bilmaysiz. Garchi boshqa kitoblarimdan bilsangiz ham... Masalan, mening oxirgi munosabatlarim... «*Sen o'n yetti yoshimsan*» kitobimda tilga olgan qiz Zumra bilan bog'liq...

Kitobni o'qiganlar ushbu qahramonimizni yaxshi taniydi. U mening boshimga qanday kunlarni solganini ham yaxshi bilishadi. Men umrimda oxirgi bor u kabi insonni hayotimga kirgizdim va uning sharofati bilan inson zotining naqadar beshafqat ekanligiga guvoh bo'ldim. Hozirgi ahvolga kelgunimcha boshimdan kechirganlarimning bir qismini qisqacha qilib aytib bersam: Hashmet amakini taniysizmi? U sobiq sevgilim Zumraning bobosi. Afsuski, u boqiy dunyoga rihlat qildi. Men uni juda yaxshi ko'rardim.

Hatto Zumra bilan orani ochiq qilganimizdan keyin ham biz Hashmet amaki bilan uchrashishda davom etdik. Biroroz vaqt o'tgach, menga uning o'limi haqidagi xabar keldi va samolyotda birinchi reys bilan Malatyaga keldim. Oradan yillar o'tib, yana uni ko'rdim... Yonida bir yigit ham bor edi. Ularni birinchi marta ko'rganimda turmush qurib, farzandli

## *Mirach Chag'ri Oqtosh / O'zingga xush kelding*

bo'lganliklari haqidagi ehtimol xayolimga ham kelmagandi. Ammo xayolimga ham keltirmagan narsalarimning bari birin-ketin ro'yobga chiqdi. Ular allaqachon turmush qurishgan, hatto bir o'g'il farzand ko'rishga ham ulgurishgan ekan. Sizningcha, o'g'liga nima deb ism qo'yishgan? Orangizdan kimdir «Mirach» deganini eshitgandek bo'ldim. Bingo! To'g'ri taxmin. Ha, sobiq sevgilim turmushga chiqqan va o'g'liga mening ismimni qo'ygandi. Bunga hayron bo'lmadim. Umid qilamanki, kichkina Mirach hayot yo'li ravon, baxti ochiq va xulq-atvori onasiga tortmagan yaxshi inson bo'lib ulg'ayadi.

Hashmet amakida hech qanday haqqim yo'q edi, lekin baribir insoniylik burchimni bajarib, uni so'nggi manzilga kuzatib, qaytib keldim. Men o'zimni hech kimga ko'rsatmadim, lekin u yerdagi hamma narsani ko'rdim. Bu holat meni xafa qilmadi-yu, lekin bolasiga mening ismimni qo'ygani g'alati tuyildi. Ammo buni ko'p o'ylamadim.

Har kimning yo'li o'z qalbidek ochiq bo'lsin, dedim va bu kitobni yana bir bor yopdim. Oxirgi ikki munosabatim haqida qisqacha ma'lumot: biz ajrashamiz, u ketib boshqasi bilan tanishadi va familiyasi meniki bilan bir xil bo'lgan odamga turmushga chiqadi. Biz ajrashamiz, qiz boshqasiga turmushga chiqadi, farzandli bo'ladi va tug'ilgan bolasiga mening ismimni qo'yadi.

Demak, muammo menda. Men sevishga qodirman, lekin sevilish haqida gap ketganda, bu har doim muammo.

Hozirgi sovuqqonligim, hissizligim va umumiyligini qilib aytganda, psixologik holatimga erishish uchun juda ko'p mashaqqatlardan o'tdim. «Xo'sh, yolg'izlikda o'lib ketmoqchimisan? Bir qizni deb shuncha jafo chekib, qalbing eshiklarini yopishga balo bormi?» demang. Men ozor cheksam ham, ozor bermayman. Qalbim eshigi doimo ochiq. Yolg'izlik bandasiga emas, Allohga xosdir. Kun keladi, kimdir menda ham yurak borligini eslatadi. Hali ham chin sevgi borligiga ishon-tiradi va men yana seva olaman. Qalbimdagi sevgi urug'larini o'stira olaman, lekin o'sha kungacha hali vaqt bor. Shuning uchun hozircha bo'rining xayolini qo'y bilan chalg'itmang, demoqchiman. Ha, bu kitob biroz boshqacha ekanligini aytgandik. Ha, boshqacha. Men o'zimga keldim, bolalar.

Masalan, «Tulkining qaytib keladigan joyi mo'yna do'koni» bo'lganidek, menimcha, bir insonning ma'lum kishilardan va hodisalardan keyin keladigan eng oxirgi joyi o'zidir. Men ham aynan oxirgibekatdaman. Men bo'lishdan qo'rqlmaydigan, o'zimni xotirjam his qiladigan joydaman; o'zimdaman. Na kimdandir biror narsa kutaman, na meni sevishlari uchun birovning ostonasiga bosh urib boraman. Men hamma narsadan ozod bo'lganman. Kim keldi, kim ketdi, kim sevdi, kim sevmadi, endi menga bularning ahamiyati yo'q. Qachon ko'zguda o'z aksimni ko'rib qolsam, kulgim qistaydi. Qanchalik bema'ni odamlar va ahmoqona narsalar uchun o'lib-tirilganimni eslab, o'zimni koyiyman. Ketmoqchi bo'lgnarlarni yonimda olib qolishga harakat qilganimni aytasizmi yoki qalbi tosh odamlardan sevgi kutganimnimi?


Buni yana uzoq davom ettirish mumkin... Aytdim-ku, hammasini qo'yib yubordim. Kim qanday tushunsa, tushunsin. Kim kimni sevsə, sevsin. Kim qayerga ketishni xohlasa, ketaversin. Men aralashmayman. Oldin hamma joyni os-tin-ustin qilgan va munosabat bildirgan narsalarga hozir bir tukimni ham qimirlatmayman.

Chunki men juda ko'p bema'ni narsalar va keraksiz odamlar uchun o'zimni qiy nadim. Bunga endi amin bo'lyapman. Va buning uchun o'zimdan juda mamnunman. Bunden keyin o'zimni birovni sevish uchun majburlamayman. Chunki endi men o'zimni sevaman.

Hayotimdag'i ba'zi insonlardan boshqa hech kimni qadr lamayman. Uning o'rniga o'zimni qadrlayman. Hozirgi xotirjam, befarq va sovuqqon holatimdan o'tmishimga murojaat qilaman; hech kim o'zidan boshqa birovni o'ylamaydigan bu hayotda endi men ham hech kimni o'zimdan ustun qo'ymayman. Men o'z qobig'imdaman. O'zimni tinglayaman. Bu juda yaxshi samara beradi, sizga ham tavsiya qilaman.

**Agar boradigan boshqa joyingiz bo'lmasa,  
o'zingizga kelng.**

**Imkon qadar tezroq kelng. O'zingizni sevish orqali  
ularga sevish qanday bo'lishini ko'rsatib qo'ying!**



### *Yaxshiyam borsan*

Bilaman, ular seni juda ko‘p xafa qilishgan. Hozir juda horg‘in va tushkun holatda ekanligingdan ham xabarim bor. Ketmaydi deb o‘ylaganlaring seni tark etganini, sevging zoye ketganini, qilgan barcha sa‘y-harakating qadrsizlanganini ham bilaman.

Sen boshqacha deb o‘ylagan va ishongan odamlar aslida boshqalardan farq qilmasligini, ularga ishonch bildirgанин uchun seni pushaymon qilishganini bilaman. Yana bilaman, shunday kunlar bo‘ladiki, qalbing qanchalar og‘riganini ifodalaydigan biror so‘z topa olmaysan. Xavotir olma, men nimani his qilganiningni va nimalarni o‘ylaganiningni juda yaxshi tushunaman. Shuni bilki, men sen bilanman. Buni bilishingni istayman. Bu senga vafo qilmaganlar boshida aytgan «Men sen bilanman», degan so‘z bilan bir xil emas. Men chindan ham sening yoningdaman. Yaralaringga malham bo‘lish uchun qo‘limdan kelganini qilaman. Chunki hamma ketadi, ammo men yoningda qolaman.

Boshqalar uchun hech qanday ahamiyatga ega bo'lmasliging mumkin. Ehtimol, hech kim seni sevmas, lekin sira g'am chekma, men seni yaxshi ko'raman. Sen men uchun muhimsan. Sen men uchun qadrlisan. Yaxshiyam borsan. Hech kim sendan qadrliroq emas va bu hayotda senga o'xshagani boshqa hech qayerda yo'q. Buni unutmasliging kerak.

**Agar hech kim bo'lmasa, men yoningdaman.**

**Agar hech kim seni sevmasa, men seni yaxshi ko'raman.**

**Agar hech kim uchun ahamiyating bo'lmasa,  
men uchun juda muhimsan.**

**Xafa bo'lma, qadringni bilmaganlar uyalsin.**

**Seni tashlab ketganlar borgan joylarida  
senga o'xshagan insonni topa olmasin.**

**Yana aytaman: yaxshiyam borsan.**

Yarim ko'ngil bilan o'sgan odamni  
na birovning ketishi ranjitadi, na ko'ksidan itarishi...  
Chunki u vaqtida ko'p narsani yo'qotgan.  
Shuning uchun u hech kimni yo'qotishdan qo'rqlaydi.

Yoshim yigirma beshda. Shu yoshga qadar mening bir tomonim doimo yetishmayotgandek tuyilardi. Ota mehrini ko'r may ulg'aydim. Do'stlarim, atrofimdag'i odamlar va ba'zida oila a'zolarim tomonidan tez-tez tahqirlandim.

Men hamma istagi bajo keltirilgan, xohlagan o'yinchog'iga ega bo'lgan bolalardan emasdim. Aslida, men hech qachon bolaligimni yashamadim, erkalik qilmadim. Qachon kichkina bolani ko'rsam, armon bo'lgan bolaligim esimga tushadi. Hatto kichkinagina muammoga duch kelganimda ham hech qachon panoh topadigan joyim bo'lman. Men doim o'zimdan panoh topdim. Hamma yaralarimni o'zim davoladim. Otasizlik dardini doim ichimga yutdim. Biroz vaqt o'tgach, bu azob meni bezovta qilmay qo'ydi va bunga ko'nikkan edim.

Men hech kimdan hech qachon moddiy yordam kutmadim. Menga ham taklif qilingan yordam va telefon qo'ng'iroqlari yetarlicha edi. Lekin mening eng katta boyligim o'z kuchimga ishonishim edi, ammo hech kim buni bilmadi. Birozdan keyin bu dardga ham ko'nikib qoldim. Ehtimol, bu meni kuchli qilgandir. Otasiz o'sgan odamga hech narsa ning va hech kimning yo'qligi azob bermaydi. Siz u odamni hech qaysi yo'l bilan qo'rqita olmaysiz. Chunki u hayotda gi eng katta og'riqlarga o'rganib qolgan. Eng og'ir sevgisizlik azobiga bardosh bergen. Bundan keyin yana qaysi dard uni yiqtishi mumkin? Menimcha, bu hayotda otasiz o'sgan odamning kuchidan hech qanday kuch ustun emas. Otam bizni tashlab ketganidan so'ng onam singlim va meni yolg'iz o'zi qaramog'iga oldi. Shu sababli onam juda katta bosim ostida edi. «Bu bolalarning otasi odam bo'lindi, bolalari odam bo'larmidi?» degan fikr bizga tamg'a edi. Ayniqsa, buvim va bobom bolalariningni mehribonlik uyiga topshirasan, bo'lmasa, uydan haydab yuboramiz, deb onamga qattiq tazyiq o'tkazishgan edi. Albatta, haqiqiy ona farzandlarini bolalar uyiga topshirgandan ko'ra ko'chada qolishni afzal ko'radi.

Bizni uydan haydab chiqarishgan edi. Bilganingizdek, ko'chada qoldik. Bu tazyiqqa va shuncha qiyinchiliklarga ko'ksini qalqon qilib, yemay-yedirgan, kiymay-kiydirgan bir onaning jasorati meni shu yergacha olib keldi. Shuncha azob-uqubatlarga qaramay, hatto bir lahza ham taslim bo'lmay, yo'ldan adashmay, barcha qiyinchiliklardan o'tib oldingizga keldim.

Mendan har safar «Shuncha azob-uqubatlarga qaramay, qanday kuchli bo'la olasan? Qanday kula olyapsan?» deb so'raysiz. Aynan sizga hikoya qilib bergen hayotim tufayli. Azob-uqubatlarim tufayli.

Odam qanchalik ko'p azob cheksa, shunchalik kuchga to'ladi va kulgisi go'zalroq bo'ladi. «Chiroyli tabassum qiladigan insonlar bor, ammo ichi tilka-pora...» degan bir jumla o'qigan edim. Qanchalar haqiqat...

**Otasiz o'sgan insonlar, shubhasiz, bu dunyoning  
eng kuchli insonlaridir.**

Darding seni qamrab olgan damlarda Rashod Nuri  
Guntekining ushbu so'zlarini esla: «Eng uzun va eng  
chorasiz qolgan tuningizni eslangu.

Tong otmadimi?»

Tashvishlanma, hammasi o'tib ketadi. Sen faqat og'riqni mahkam bag'ringga bos, chunki u seni yanada kuchliroq insonga aylantiradi. Bundan avval o'tib ketmaydigandek tuyilgan og'riqlar singari bu ham o'tib ketadi. Shu paytgacha qanday qiyinchiliklarni boshdan kechirding, yuraging ularni qanday yenggan bo'lsa, buni ham shunday ortda qoldiradi. Alloh taolo tog'ning viqoriga qarab qor yog'diradi. Sabr qil, bir kun kelib Xudo sening tog'ingga yoqqan qorlarni eritib yuboradi. Shu kungacha og'ir dardlarni bir o'zing yengding. «Buni yengib o'tolmayman», degan qiyinchiliklarni yolg'iz o'zing yengib o'tding. Bularning barini bir o'zing uddalading. Balki hayotingdan joy bergen insonlar seni parishon qilgandir. Ehtimol, muttasil azob bilan kurashmoq seni horitgandir. Balki, kimnidir mahkam quchoqlab, taskin topishga zarurat tuygan paytlaring o'zingni bag'ringga bosgandirsan. Ayt-chi, men bu azob bilan yashay olmayman degan qaysi dardga o'r ganmading?

Hammasiga ko'nikding va hammasini bir o'zing yengib o'tding. «Men sen bilanman», degan hech qaysi odam og'ir kunlarni yengib o'tish uchun o'zingni har tomonga urgan kunlarda yoningda yo'q edi. Sen eng ko'p yoningda bo'lishini istagan odam senga eng kerak bo'lgan paytda yoningda topilmadi. Esingda bo'lsin, bu ham o'tib ketadi. Va har doimgidek buni ham yengib o'tasan. Sen shu qadar kuchlisanki, seni hech qaysi dard yenga olmaydi.

**Og'ir kunlarimda suyana olmagan tog'larni  
qulatdim. Siz doim «yoningdaman» dedingiz,  
lekin men boshimga tushgan har bir  
kulfa tda yolg'iz edim.**

## *Uzoqroq turing*

Nima istayotganini va his-tuyg'ularini bilmagan, faqat o'zi haqida o'ylaydigan, o'zini hammadan ustun qo'yadigan odamlardan uzoqroq turing. Baxtsizlikdan oziqlanadigan, sevgi bilan ham qalbi yumshamaydigan, eng kichik sabab bilan ketishga moyil bo'lgan odamlardan uzoqroq turing. Ko'ngil olishni bilmaydigan, siz ta'mir qilishga harakat qilarkansiz, u buzg'unchilik qiladigan, sizni o'zgartirishga harakat qiladigan va fidokorlik qilmaydigan kimsalardan uzoqroq turing. Hayvonlarni yoqtirmaydigan, gapirgan gaplari bilan qilgan amallari bir-biriga zid bo'lgan, sizni qadrlamaydigan va doim o'zingizni tushuntirishingiz kerak bo'lgan odamlardan uzoqroq turing. O'z xohish-istiklarini sizga yuklamoqchi bo'lgan, sizni sevishini his qildirmaydigan, kechirim so'rashni bilmaydigan va hammaga past nazar bilan qaraydigan kimsalardan uzoqroq turing. Sizga ishonmaydigan, sizning ishonchingizga kirmagan va sizni birinchi o'ringa qo'yagan odamdan uzoq turing.

Aslida, bu ro'yxatni hali uzoq davom ettirishim mumkin, lekin kitobning sahifalari tugaydi deb qo'rqaman. Agar siz ushbu xususiyatlardan biriga ega bo'lgan odamni uchratsangiz, undan uzoqroq turing. Hech bo'limganda, bu bilan qalbingizni dilozorlikdan himoya qilgan bo'lasiz. Men sanab o'tgan xususiyatlarga ega bo'lgan insonlar uchun yelib-yugurish toshni sug'orib, uning gullashini kutishdan boshqa narsa emas.

**Alloh qalbimizga o'zining samimiyati bilan kirib  
keladigan insonlarni nasib etsin...**

**Inson qachon ulg‘ayganini anglaydi?**

Nilgun Marmara «Inson qachon ulg‘ayganini anglab yetadi?» degan savolga quyidagicha javob bergen: «O‘tmishda sodir bo‘lgan bo‘lsa, butun dunyoga o‘t qo‘yib yuborishga tayyor bo‘lgan ishlarga hatto bir dona gugurt cho‘pini ham yoqmaysan. Sabr qilishni va hech narsaga ajablanmaslikni o‘rganasan. Darhaqiqat, hech narsaga hayron bo‘lmayotganiningni payqagan kuniyoq ulg‘ayganiningni tushunasan».

Ha, men ham ulg‘aydim. Men endi yolg‘on va haqiqatni, egri va to‘g‘rini, meni xafa qiladigan odamlar va ayrim voqealarni boshidanoq taxmin qila olaman. Odamlarning bir soniya ham o‘ylab o‘tirmasdan qilgan barcha shafqatsiz ishlariga guvoh bo‘ldim, endi hech narsaga hayron bo‘lmayman. Ajablanmayman. Men endi hech kimni «U bunday ish qilmaydi», deb ayta olmayman. Chunki shunday qiladi, buni juda yaxshi bilaman. Balki, bu bosqichga yetgunimga qadar jon olib, jon bergandirman, lekin o‘tmishda dunyolarni os-tin-ustin qilgan narsalarim uchun hozir kiprigimni ham qoq mayman. Hammani va hamma narsani o‘z holiga tashlagan man.

## *Mirach Chag'ri Oqtosh / O'zingga xush kelding*

Chunki har kim o'z holida va o'z yo'lida bo'lsa go'zal... Buni aniq bilaman. Men endi hech kimda yaxshi niyatni ko'rishga intilish uchun o'zimda yetarli kuchni ko'rmayapman. Men endi ulg'aydim. Bunga hissa qo'shgan barchaga minnatdorchilik bildiraman.

**Bir paytlar birga bog' barpo qilgan  
insonlar bilan hozir o'rtamizda tog' bor.  
Menimcha, bu ham ulg'ayish bilan bog'liq bo'lsa kerak.**

*Chiqindiga tashlamang, balki tamirlang*



Agar biror narsa buzilsa, men har doim uni tashlab yuborish emas, balki ta'mirlash tarafdori bo'lganman. Misol uchun, agar televizorning pulti ishlamasa, avval uning ichini ochib qarayman. Batareyasini tekshiraman yoki uni tuzatishga harakat qilaman. Bu mening munosabatlarimga ham tegishli. Qarshi tomon ketishni yoki hammasini tugatishni istasa, avval sababini so'rayman. Men hech qachon kichik sabab bilan voz kechish yoki hamma narsani tugatish, chiqindiga uloqtirish tarafdori bo'lмаганман. Albatta, istalmagan joyda qoladigan darajada g'urursiz ham emasman. Men shunchaki hammaning ko'nglini olishga harakat qildim. O'zini o'jarlik bilan chiqindiga chiqishga loyiq deb biladiganlarni chiqindi qutisiga tashlash orqali yangi tajribalar orttirdim.

## *Mirach Chag'ri Oqtosh / O'zingga xush kelding*

Bir kuni keksa er-xotindan so'rashibdi:

– Roppa-rosa oltmis besh yil... Qanday qilib bu qadar uzoq vaqt davomida turmushingizni asrab qoldingiz?

Keksa er-xotin javob beribdi:

– Bizning davrlarda buzilgan narsalar chiqindiga tashlanmas, balki ta'mirlanardi.

Xo'sh, bugungi kunda ham shundaymi? Hech qachon. Hamma bir-birining kamchilagini, aybini topishga harakat qiladi. Shuning uchun men bir-birini sevishni unutgan insonlarni bilaman. Har bir insonning munosabatlari va o'z hayotiga kiritgan odami haqidagi nuqtayi nazari shunday: «Bo'lsa bo'lar. Bo'lmasa ham roziman». Hech narsa uchun kurashish yo'q. Barcha haqiqiy narsalar avvalgi davrlarda qoldi, deb bekorga aytishmagan.

Chindan ham hammasi o'tmishda qoldi...

«Hech kim sening to'lqinlar bilan qanday kurashganiningni so'ramaydi. Kemani qirg'oqqa olib kelgan yoki kelmaganingga qaraydi».

Viktor Hyugo

Hech kim sen nimani boshdan kechirganiningni bilmaydi. Qanday qiyinchiliklarni ko'rganiningni, yolg'iz o'zing nimalar bilan kurashganiningni bilmaydi, ishonaver, bilsa ham parvo qilmaydi. Har bir insonning dardi va iztirobi o'ziga va yolg'iz Xudoga ayon.

Agar sen kulsang, ular seni baxtli deb o'ylashadi, lekin ular hech qachon bu tabassum ortida yotgan og'riq, azob va dilozorlikni aslo ko'rmaydilar. Shuning uchun hech kimga biror narsani isbotlashga yoki tushuntirishga urinma, hech kimga e'tibor berma.

Hech kim uchun o'zingni koyitma. O'zingni adoyi tamom qilma. Odamlar ko'ngillariga kelgan ishni qilishadi, bunga ahamiyat berma. Ular o'zlarining manfaatlari uchun sevadilar. Manfaatlari tugagach, sevgilari ham tugaydi va ketishadi.

Har doimgidek, sen bo'ronli va to'lqinli dengizlar orqali o'z kemangni qirg'oqqa olib kelasan. «Qo'lingdan kelmaydi», deyishadi, sen uddalaysan. «Qutulib chiqa olmasan», deyishgan har qanday vaziyatdan sabr-bardoshing bilan yana qutulib ketasan.

**Mavlono aytganidek:**  
«Johil bilan munozaraga kirma, yo g'azabingni toshiradi, yoki odobingga ziyon yetadi».

## *Motam tutishim kerakmidi?*

Ketganingdan so'ng yer bilan bitta bo'lishimni, hayotimni barbod qilishimni, senga motam tutishimni, dard botqog'iga botishimni kutgandiming? Hech qachon. Men mensizlikni o'ziga munosib ko'rgan odamning ketishiga qayg'urmayman, meni yo'qotishdan zig'ircha ham qo'rqligida odam uchun kurashmayman. Hatto bahonaga ham yaramaydigan narsalarni ro'kach qilib meni tashlab ketasan-u, men ketganingdan afsuslanib, ortingdan seni sog'inib yoki o'rningga hech kimni qo'y may yashashim kerakmi? Aslo. U kunlar o'tmishda qoldi. Ketishni niyat qilib kelganlarni olib qolishga urinishlarim, yig'lab-siqtashlarim barchasi o'tmishda qoldi. Endi avvalgi urinishlar, kurashlar, o'zimni yer bilan bitta qilishlar yo'q. U davr tugadi. Endi menga kim nima bersa, o'shani oladi. Endi hech kim loyiq bo'lganidan ko'pini ololmaydi. Endi mening yuragimda his qildirilmaydigan sevgiga joy yo'q.

**Men endi ketganlar uchun qayg'urmayman.  
Aksincha, o'rnini ulardan  
yaxshirog'i bilan almashtiraman.**

**Men g'ururim tufayli emas,  
o'zimni hurmat qilganim uchun ketaman**

Men sendan ketyapman. Ha, men seni tark etyapman. Ba'zan odam o'zi xohlamay yoki seva turib ham ketishi mumkin ekan. Men buni sen bilan yaxshiroq tushunyapman.

Esingdami, sensiz qolishni istamasligimni, seni yo'qotishdan juda qo'rqishimni takror-takror aytardim, lekin sening xudbinliging va hissizliging bilan kurashishni istamayman. G'ururim tufayli emas, o'zimni hurmat qilganim uchun seni tark etyapman. O'zimga yaxshi bo'ladi deb sen tomon qadam tashlagandim, lekin seni sevib o'zimni qiynagan ekanman. Buni endi aniqroq anglab yetyapman. Men faqat mening sa'y-harakatlarim bilan mustahkamlangan munosabatni va faqat mening xohishim bilan saqlab qolingan hech qanday aloqa hayotimda bo'lishini xohlamayman. Bu safar hammasi boshqacha, bu safar sendan ranjimadim.

Bir paytlar seni yo'qotishdan qo'rqqan bo'lsam, endi seni yo'qotishga dosh bera olaman.

Men sendan voz kechdim. Yo'ling ochiq bo'lsin.



**Inson ba'zan seva turib voz kechadi.  
Seva turib tark etgan inson  
ko'p narsani yuragida yashiradi.  
Lekin sukut saqlaydi va yashirgan  
narsasi bilan ketadi.**

## *O'tmishingga qayt va o'zingdan kechirim so'ra*

Xudoga shukr qil. Agar unutgan insonlaringhi, boshingdan o'tgan voqealarni hali ham unuta olmaganingda nima bo'lardi? Ularning hech biri o'tib ketmaganida-chi? Agar sen hali ham yuzingga yopilgan eshiklar oldida kutayotgan bo'lganingda, holing ne kechardi? Bir paytlar bunga loyi<sup>q</sup> bo'lman odamlar uchun o'zingni qurbon qilganing, nomunosib insonlarni e'zozlaganing, ishonmasliging kerak bo'lgan odamlarga ishonganing va sevmasliging kerak bo'lgan insonlarga ko'ngil bergenning, behuda narsalar uchun o'zingni xafa qilganing, olgan emas, doim bergen tomon bo'lganing, nimadir sodir bo'lishi uchun doim bir yoqlama harakat qilganing, kimlarningdir baxli bo'lishi uchun kurashib, o'zingni baxtsiz qilganing uchun o'tmishingga qayt va o'zingdan kechirim so'ra. Shunday uzr so'raki, bunday xatolarni qayta takrorlama. Qayta takrorlamaki, qalbingni yana o'tga tashlama.

**Eng birinchi o'zingni kechirishing kerak.  
Chunki bularning barchasiga sen ruxsat berding.**

## *Isyon qilma, shukr qil*

Ba'zi damlarda hayotingdan qoniqmaysan. Yo'ling-dan chiqqan hamma narsadan shikoyat qilasan. Hayotga va o'sha paytda mavjud bo'lgan imkoniyatlarga qarshi isyon ko'tarasan. Haftada olti kun ishlagandan so'ng dam olish kuni keladi. Ertalab turib qarasang, havoning avzoyi buzuq. Birozdan so'ng yomg'ir yog'adi, sen yana isyon qilasan. Bosh-qalarning hayotiga qarab, ular hayotiga kiritgan insonlari bilan baxtli ekanini ko'rib og'rinasan va yana isyon qilasan. Ovqat yeysan, ta'mini yoqtirmaysan, isyon qilasan. Sen hatto isyon qilish uchun bahona bo'la olmaydigan narsalarga qarshi isyon ko'tarasan.

Isyon qilishga shunchalik odatlanib qolasanki, nati-jada shukr qilishni unutasan. Aslida, eng samarali malham shukr qilish ekanligini esa bilmaysan. Tom Robbins shunday deydi: «Hayot siz xohlagan narsani taklif qilmaydi, agar shunday qilsa-da, u to'g'ri kelmaydi. Yo vaqt noto'g'ri, yoki makon». Agar sen xohlagan narsalar senga kelmasa, kutma. O'zing ular tomon bor.

Aytmoqchimanki, hozir quyoshli havo, ammo sen pardani yopib, bir necha kundan keyin hatto eslay olmay-digan muammolar qa'riga g'arq bo'lasan. Pardani och, deraza yoniga bor. Qushlarning qo'shig'ini tingla. Quyosh nurini badaningda his et. Ammo bu qorong'i xonada qolib ketma. O'zingga nisbatan bundayadolatsizlik qilma.

Agar havo bulutli yoki yomg'irli bo'lsa ham, hech qachon pardalarni yopma. Yana och pardalarni va yomg'ir bilan raqsga tush.

Va ushbu so'zlarni takrorlashni unutma: «Men noli-yotgan hayotim, balki, kimningdir orzusidir... Kechir, Allo-him...»

**Orif Nihat Asya nima deydi:**

**«Men suv ichayotib, har qultumda tumshug'ini  
osmonga ko'targancha Xudoga shukr qilayotgan  
bir qushni ko'rdim».**

## *Holim qolmadi*

Avvallari harakat qilardim. Ba'zi narsalar haqida qayg'urardim, tinmay bosh qotirardim. Endi harakat qilishni qo'yib turing, hatto qo'limni qimirlatishga-da holim yo'q. Meni bu holatga olib kelgan voqealar va odamlarga avvalgidek toqat qila olmayman. Ahvolim ba'zan shu qadar taranglashadiki, hatto o'zimga o'zim malol kelaman. Charlz Bukovskiy mening kayfiyatimni shunday izohlagandek: «Hozirgi e'tiborsizligim bir vaqtlar e'tiborni haddan oshirib yuborganimning natijasidir». Agar men hozir loqayd bo'lsam, bu vaqtida bir narsalar uchun haddan tashqari yelib-yugurganim tufaylidir...

Ular munosib bo'lmasalar ham, chegaralarni pisand qilmay sevganim tufayli... Imkonsiz narsalar uchun o'lib-tirilganim tufayli. Hatto kiprik qoqishimga arzimaydigan narsalar uchun tunlarimni bedor o'tkazganim tufayli. Mening avvalgi holimdan asar ham qolmadi. Chunki hozir hech kim va hech narsa uchun nimadir qilishga xohishim yo'q. Inson o'z vaqtida qilgan qurbanliklari evaziga katta talofat bilan taqdirlansa, u qaytib osonlik bilan joyidan qimirlay olmaydi.

**Menda Jan Yujelning o'sha shirin loqaydligi bor:  
«Hayotning ishlariga ko'p aralashmang, vijdoningiz toza,  
yuragingiz pok bo'lsa, shunchaki yashang».**



## *O'z vaqtি bor*

O'zimni yomon his qilgan paytlarimda yonimda bo'lishini xohlashimni bila turib mendan yuz o'girgan insonlarni aslo unutmayman. Meni o'zim bilan yolg'iz qoldirgan, og'ir damlarimda menga qo'l cho'zmagan va ketish uchun bahona qidirganlarning bari esimda. Men menga qilingan munosabatni unutmayman. Kin saqlamayman, lekin hech qachon menga qilingan nohaqliklarni darrov unutib yuboradigan xokisor ham bo'lmadim. Agar qachondir baxtli kunlarim kelsa, meni dard va yolg'izlikning qa'riga otib ketgan, yonimda bo'lмаган insonlarga men ham qo'l uzatmayman. Bu qasos emas. Ular kabi harakat qilish. Bir kun kelib, men ham ularga shunday javob qaytaraman va bir insonning muhtojligini bila turib, yordam qo'lini cho'zmaslik nima ekanligini birma-bir ko'rsataman. Hammasining o'z vaqtি bor.


**Vaqtimni behuda sarflab, har qanday ehtiyojini  
qondirish uchun yugurganlarim, gap men haqimda  
ketganda qanday qilib g'oyib bo'ldingiz?**

*Agar bolmasa, majburlama*

Agar sa'y-harakatlarimdan biror ish chiqmasa, o'zimni majburlamayman. Chunki avvalgidek emasman. O'tmishda foydasi yo'qligini bilsam-da, ayrim narsalar uchun tish-tirnog'im bilan urinardim. Bo'lmaydigan narsalarni majburan bo'ldirishga harakat qilardim. Amalga oshmasligini bilgan narsalarimning amalga oshmasligini his qilishimning o'zi yetarli emasdi. Buning oxirigacha borib, befoyda ekani ni o'z ko'zim bilan ko'rishim kerak edi. Bu bosqichga qadar harakat qilishdan zinhor voz kechmasdim. Endi bunday emas. Urinishlarim samarasiz ekanligini bilganim zahoti harakat qilishni to'xtataman. Aynan o'sha paytda hech kim hech narsaga arzimasligini aniqroq ko'raman. O'zimni koyitishga arzimaydigan voqealar va odamlar uchun o'zimni horitmayman.

**E'tiborimga loyiq bo'lmagan odamlar uchun  
harakat qilishni to'xtatganimdan beri o'zimni  
yaxshi his qilyapman. Vaholanki, men doimo  
o'zimni qurban qilgan ekanman.**

**Buni endi yaxshiroq tushunib yetyapman.**



*Hech kim uchun ózgarma,  
Sen shu turishda gózalsan*

Siz odamlarni o'zgartira olmaysiz. Ular xamirmidi, xohlagan shaklingizni bersangiz. Menimcha, haqiqiy qadr-qimmat va muhabbat kimnidir borligicha qabul qilishdan ke-lib chiqadi. Tasavvur qiling, hayotingizga bir inson kiradi. U sizni cheklay boshlaydi, uni kiyma, buni kiyma, u yerga borma, bu yerga borma, u bilan gaplashma, bu bilan gaplashma, deydi. Har doim o'z istaklarini sizga yuklashga harakat qiladi. Buni chinakam sevgi deb o'ylaydiganlar ham bor. Ammo unday emas. Buning nomi sevgi emas, buning nomi muammo. Buning nomi xudbinlik. Agar o'zaro ishonch va hurmat bo'lsa, sevgi quyoshi o'sha yerdan porlaydi. Hayotingizda sizni o'zgartirishga harakat qiladigan emas, boringizcha qabul qilib sevadigan insonlar bo'lsin. Men odamlarni qushlarga qiyoslayman. Osmonga tegishli va osmonga oshiq bo'lgan bir

qushni tasavvur qiling. Agar uning qanotlari kuchli bo'lsa va u uchish o'rniga yoningizda qola olsa, u sizni chindan ham sevadi. Bu juda oddiy... Rashkingiz tufayli hech kimni qafasga qamab qo'ya olmaysiz. Bu rashk emas, bu xudbinlik. Bu sevgi deb atalmaydi.

**Sevgi shunchalik g'alati tuyg'uki,  
insonni baxtdan samolarga ko'taradigan ham,  
dardummoniga g'arq qiladigan ham  
bitta odam ekanini ko'rsatadi.**

## **Men sen haqingda onamga aytib bergandim**

Hammamiz bilamizki, ayollar qanday mavzu bo‘lishidan qat’i nazar, erkaklarga qaraganda bir oz ko‘proq hissiyot bilan yondashadilar. Men erkaklar hissiyotsiz demayapman. Shunchaki ayollarning hissiyotga beriluvchanligi haqida gapiryapman. Misol uchun, bir ayol sen haqingda onasiga aytib bersa, u seni chindan ham sevadi. Buning boshqacha izohi yo‘q. Agar ayol jur’at qilib onasiga sevgan odami haqida gapira olsa, u ayolni qo‘ldan chiqarma. Bunday ayolni qo‘yib yuborma. Shubha yo‘qli, dunyodagi eng azobli narsa bu haddan tashqari hissiyotga beriluvchanlik va ta’sirchanlik... Erkak bo‘lishimga qaramay, men ham juda ta’sirchan odaman. Bu narsa menga foyda keltirdimi? Yo‘q. Aksincha, shuni deb men doim yutqazdim. Men his-tuyg‘u bilan yaqinlashgan hamma narsa va har kimdan o‘z ulushimni oldim. Xulosa qanday? Endi qatiqni ham puflab ichaman. Insonning o‘z his-tuyg‘ulari o‘ziga shunchalik zarar yetkazadiki, ba’zida uning ichidan chiqib keta olmaysan.

## *Mirach Chag'ri Oqtosh / O'zingga xush kelding*

Biz ayollarni ko'proq hissiyotga beiluvchan, dedik. Albatta, hissiyotga u qadar berilmaydigan ayollar ham bor. Boshdan kechirgan afsuslar va og'riqlar tufayli sovuqqonlik-dan qalqon sifatida foydalanadigan ayollar ham yo'q emas.

Aynan shunday ayollar borki, ular aslida hissiyotga o'ta beriluvchan, lekin boshidan kechirgan nadomatli kunlari tufayli hayotlarida duch kelgan har bir kishi uchun kaktusga aylanadilar. Shunday ayollar borki, sevgan odamiga qalbini butunlay ochib, keyingi kunlari azob-uqubatda o'tgan. Bunday ayollarni ranjitmaylik. Yo'qsa, ular juda shafqatsiz insonga aylanadilar. Ayolning eng go'zal lahzalaridan biri bu sevgan insoni haqida onasiga aytib berar ekan, ko'zlarining ich-ichi kulgan onlardir. Bunday lahzalarni buzmaylik.

**Har bir gul tutgan odamga bag'rini  
ochgan qizlarni deb siz haqingizda onasiga  
aytib beradigan boshqa birlarini ranjitmang.**

## *Keraksiz insonlarni hayotningdan chiqar*

Ularning hayotida sen uchun joy yo'q. Ular uchun hech qanday ahamiyatga ega emassan. Keraksizsan. Ular hech narsa bo'lmagandek hayotlarini davom ettiradilar. Sen g'amginmisan, ko'z yosh to'kasani, xafamisan, ular hech parvo qildimi? Hech qachon. Sen nega bir tiyinga qimmat bo'lgan, sening qadringni bilmagan insonlar uchun o'zingni otashga tashlapping kerak? Agar ular sensiz yashay olishsa, sen ham ularsiz binoyidek yashay olasan. Agar ular sening o'rningga boshqa odamni qo'ysa, sen ham ularning o'rmini yaxshiroq insonlarga almashtirishing mumkin. Ahamiyatsiz odamlar uchun o'zingga zarar yetkazmasliging kerak. G'amga botganingda hech kim sendan ham ko'proq g'amga botmaydi, buni bilishing kerak. Ularning joni jon-u, seniki nima? Zotan, yetarlicha horimadingmi? Kel, biroz o'tir. Dam ol. O'zing uchun yangi sahifa ochma, o'zing uchun yangi dafтар och. Birinchi sahifasiga esa «Bundan keyin hech kimni o'zimdan yuqori o'ringa qo'ymayman», deb yoz. Esingda bo'lsin, ba'zilar bunga loyiq va sen ularga munosib bo'lgan narsalarni berishing kerak. Azizim, keraksiz odamlarni hayotningdan chiqar. Qani, ko'z yoshlaringni art. Ishon, tabassum qilganingda yanada chiroyli bo'lib ketasan.

**Sen, garchi bu samara bermasa ham, harakat qilding.**  
**Shuning uchun vijdoning xotirjam bo‘lsin.**  
**«Sabr taslim bo‘lish emas, kurashishdir».**

**Hazrat Ali**

G‘amga botasan. Hatto g‘am ummoniga butunlay g‘arq bo‘lasan. Sevasan, joningni sug‘urib bergudek sevasan, lekin sevilmaysan.

Qadrlaysan, biroq o‘zingni qadrsiz his qilasan. Ishonasan, ammo pushaymon bo‘lasan. Boshqalarni mammun qilasan, lekin o‘zing ko‘z yosh to‘kasani. Ehtimol, seni tashlab ketishadi. Balki, kun kelib do‘stim deganining orqangdan pichoq uradi. Bir kun yor deganining ketadi, do‘stlaring seni tushunmaydi. Oilang seni ayblaydi va sen boshi berk ko‘chaga kirib qolasan. Kimgadir qalbingni ochishni istaysan, lekin atrofingda hech kimni ko‘rmaysan. Hamma narsa ustma-ust keladigan davrga tushib qolasan. Ayrim haqiqatlar yuzingga mushtdek uriladi, yerga yiqilasan. Ammo qanday yiqilgan bo‘lsang, shunday o‘rningdan turishni bilishing kerak. Tashvish chekma, bundan avvalgilarni qanday yenggan bo‘lsang, buni ham shunday yengasan. «Sabr qilmoq – kurashmoqdir», deydilar Hazrat Ali. Barcha azob va uqubatlarga chidashing kerak. Ehtimol, ular seni taslim bo‘ladi, deb o‘ylashlari mumkin, lekin sen kurashishing kerak.

Taslim bo'lishga haqqing yo'q. Taslim bo'lgan odam yutqazadi, sen esa yutqazmaysan. Chunki kurashishdan to'xtamaysan. Agar taslim bo'lsang, bunga loyiq bo'l maganlar g'alaba qozonadi. Umid qilamanki, sen bunga yo'l qo'ymaysan.

**Mashhur bokschi Muhammad Alining**

**«Bokschi yiqilganida emas,  
o'rnidan turmaganida yutqazadi»,  
degan naqli bor.**

Taslim bo'lishga haqqing yo'q. Taslim bo'lgan odam yutqazadi, sen esa yutqazmaysan. Chunki kurashishdan to'xtamaysan. Agar taslim bo'lsang, bunga loyiq bo'l maganlar g'alaba qozonadi. Umid qilamanki, sen bunga yo'l qo'ymaysan.

**Mashhur bokschi Muhammad Alining**

**«Bokschi yiqilganida emas,  
o'rnidan turmaganida yutqazadi»,  
degan naqli bor.**

**«Umidingizni yo'qotmang;  
bu hayotda bir narsaning tugashi har doim  
boshqa narsaning boshlanishiga sabab bo'lgan».**

Agar odamlarga og'zingni to'ldirib mendan voz kech-ganining haqida jar solishingni boshida bilganimda, hech qachon qarshingdan chiqmagan bo'lardim. Zinhor bazinhor hayotingga kirmasdim. Seni bunchalik ko'klarga ko'tarmasdim. Hech kimga osonlik bilan ishonib topshirmagan sevgim va yuragimni bor butunicha oldingga keltirib qo'ymasdim. Qarasam, odamlarga mendan keyin go'yo qushdek yengil bo'lib qolgandek taassurot qoldiryapsan. Buni ko'rgan odam meni xuddi seni majburlab yonimda ushlab turganman, deb o'ylaydi. Sen mening hayotimga o'z xohishing bilan, aslida toshga aylangan qalbingni muloyim ko'rsatish orqali yolg'on tuyg'ular bilan o'zing kirib kelding. Menimcha, ketgandan keyin bunday harakat qilish shart emas. Sen meni sevishing ni aytarding, meni sevmasliging oydek ravshan edi, sen meni sevmading, lekin men seni ikkimiz uchun ham sevardim. Sen buni hech qachon bilmading. O'zimdagi bu sevgi bilan sening beshafqatliging va menga befarqligingni yashirardim. Sen odamlarga «Men o'zimga yangi sahifa ochdim», deyishda davom et.

## *Mirach Chag'ri Oqtosh / O'zingga xush kelding*

Men Shabnam Farahning «Ba'zida qaytadan boshlash kerak. Hayotni qayta tiklash kerak...» deganidek, hayotimni qayta tiklab, sensiz hayot boshladim.

**Merlin Monroning naqadar chiroyli jumlesi bor:**

**«Ba'zida yaxshi narsalar tugaydi  
undan ham yaxshi narsalar boshlanishi uchun».**

## *Gozal seving*

Suv oqib, o‘z yo‘lini topganidek, agar ikki inson bir-birini chin dildan sevsə, muhabbat ham suv kabi o‘z yo‘lini topadi. Fikrlarda tafovut yo mentalitet turlichə bo‘lsa ham, sevgining qudrati hech narsaning ostida ezilib, mag‘lub bo‘ladi deb o‘ylamayman. Odamlar sevgidan biror foyda ko‘rmaganda ko‘pincha: «Biz boshqa-boshqa dunyoning odamimiz», degan jumla ortiga berkinadilar. Men har doim bu jumlni o‘ta bema’ni deb bilganman. «Biz sen bilan kitobning eng hissiyotli sahifasimiz» yoki «Bir qo‘sinqning eng go‘zal naqoratimiz», deb sevmaydilar. Xushbo‘y gulning ifordan mast bo‘lishni bilishadi, biroq gap tikani haqida ketganda bahonalar o‘ylab topishadi.

Balki, bu eskicha ibora bo‘lishi mumkin, lekin katta ma’noga ega: «Atirgulni sevgan tikaniga ham toqat qiladi». Agar sen atirgulni sevaman deb uning tikanini ko‘rganda ortga chekinsang, bu sevgi emas. Ishtiyoqdir. Inson ikki kunlik havas uchun sevaman demasligi kerak. Gulni hidlaganingdan so‘ng tikani joningga ozor berishini o‘ylab, uni bir chetga uloqtirish yaramaydi. Agar hidlagan gulingning tikani jo‘ningni og‘ritsa, sen o‘sha gulni beradigan og‘rig‘i bilan birga sevishing kerak.

## *Mirach Chag'ri Oqtosh / O'zingga xush kelding*

Har doim go'zalini sevmang. Go'zal seving. Har doim yaxshi tomonlarini emas, kamchiliklarini ham seving. Doim borida emas, yo'g'ida ham seva biling.

*«Uni hamma juda sevardi, ammo men uni  
kamchiliklari bilan sevgandim»,*  
degan O'zdemir Asaf bilan shunchalik hamfikrmanki...

«Yo qora bol, yoki og.  
Men kulrangga togat qila olmayman».

Mendan hayotimda mavjud bo'lmay turib, ammosen go'yo hayotimda bordek harakat qilishimni so'rama. Yo oq bo'l, yoki qora. Kulrang bo'lishga urinma. Ranging aniq bo'lsin. Agar sevsang, buni his qildir. Meni puch umidlar bilan qoldirib, o'zing boshqalar bilan orzular osmonida uchma. Agar sevmasang, hatto ismimni ham tilingga olma. Zero, qu-loqlarim sehrlanib qolmasin. Men ham o'z hayotimga qaytay. Garchi sensiz o'tsa ham, mening ham hayotim bor. Muvozanatim bor. Uni buzishga urinma.

Ishonchim komilki, sizning ham hayotingizning qaysidir burchagida yoki o'tmishingizda shunday odamlar bor. Ular sizni sevmaydi, lekin ularni sevishingizni xohlashadi. Sizning hayotingizda bir lahma ham ishtirok etmay, shunday harakat qilishingizni kutishadi. Shu bilan birga, ular o'z kundarini boshqalar bilan o'tkazadilar. Siz kutmaganingizda ular o'zlarini shunday ko'rsatishadi va keyin yana g'oyib bo'lib, sizga yolg'on umid bag'ishlaydilar. Ularga muhtojligingizni bila turib, yoningizda bo'lmaydilar. Ammo boshqalar haqidagi gap ketganda ular darhol o'sha tomon yuguradilar. Lekin agar bilsangiz, hammasi o'z qo'llimizda.

*Mirach Chag'ri Oqtosh / O'zingga xush kelding*

Agar biz ruxsat bermasak, ular hayotimizning bir lahzasini ham o'yinchoq qila olishmaydi.

**Meni shubhalar girdobida qoldirmaydigan  
va kun kelib afsuslantirmaydigan odamlarning  
hayotimda bebah o'rni bor.**

*Mirrur* 5-6

«Men odamlarni kechiradigan darajada yetukman, lekin ularga yana ishonadigan darajada ahmoq emasman».

**Uilyam Golding**

O'tmishim – men ishongan, sevgan va qadrlaganim-dan afsuslangan odamlar bilan to'la. Men noto'g'ri odamlarga ishondim, hafsalam pir bo'ldi. E'tiborga arzimaydigan insonlarni qo'limda ko'tardim, qadrsizga aylandim. Noto'g'ri odamlarni sevdim, hech qachon sevilmadim. Bilib bo'lmas ekan, do'stlar. Boshida kim qandayligini bilolmaysiz. Ular hayotingizga shunday kirib keladiki, ishonmaslikning iloji yo'q. Chiroyli jumlalar, quruq va hech qachon bajarilmaydigan va'dalar, berilgan umidlar... Ko'rib turganingizdek, biz ularning barchasiga ishonamiz. Ustiga-ustak, agar ko'ngli bo'shlar turidan bo'lsangiz, ular bundan juda yaxshi foydalanishadi. Qalbingiz chilparchin bo'lganidan keyin sevmasligingiz kerak bo'lgan odamni sevganiningizni tushunib yetasiz. Xayollaringiz sovun ko'pigidek birma-bir yorilganidan so'ng ishonmasligingiz kerak bo'lgan odamga ishonganingizni anglab yetasiz, lekin juda kech bo'ladi.

Shuning uchun men kechirmaydigan odamlarning soni juda ko'p. Bir paytlar «Ey Allohim, bu bandalaring men ga ko'p ozor yetkazdi, qilgan yaxshiliklarim uchun pushaymon qilishdi. Men ularni kechirdim, lekin sen ularni kechirma», deb nola qilgan edim. Keyinroq o'ylab qoldim, shusiz ham bu dunyoda yetarlicha harakat qilib, qimmatli vaqtingni bu odamlar uchun boy berib bo'lgansan, Mirach... Ularning yuzlarini ko'rish, ismlarini yana eshitish u yoqda tursin, nega endi narigi dunyoda ham ular bilan ovora bo'lising kerak? Kechir, Xudoyim, meni kechir. Men ularni kechirdim, sen ham ularni kechir.

Men ulardan roziman, faqat Sen ularni kechir.

**Hamma meni kechirganim uchun  
ahmoq deb o'ylardi. Lekin ular kechirish – bu  
ulardan olgan eng yaxshi qasos ekanligini bilishmasdi.**

**Odamlar haqida hukm chiqarishdan oldin  
Payg‘ambarimiz (s.a.v) ning: «Qalbini yorib  
ko‘rdingizmi?» degan hadisini unutmang.  
Eslatdim, eslatning.**

Zotan, Payg‘ambarimiz solallohu alayhi vasallam aytgan qaysi so‘z yoki ular haqidagi qaysi hadis bu asrga to‘g‘ri kelmaydi? Habibimiz shunchalar to‘g‘ri aytganki, kishi jumlaning go‘zalligiga maftun bo‘ladi: «Qalbini yorib ko‘rdingizmi?» Shunday payg‘ambarning ummati bo‘lganimiz bizning eng buyuk toleyimizdir...

Niyati birovga loy chaplash bo‘lgan odamni o‘sha buzuq fikridan qaytara olmaysiz. Ularning og‘zi xalta emas osongina yirtib yuborsangiz. Bunday odamlar gapishtini yaxshi ko‘radilar. Ayniqsa, o‘zlarining noto‘g‘ri qarashlari bilan birovning aybini topishni yoqtiradilar. Ular hech narsani tushunishni xohlamaydi va hamma narsani o‘zlari xohlagandek ko‘rishadi. Shu narsani ham ta’kidlash joizki, bunday odamlarni o‘zgartirish uchun qilgan barcha harakatlaringiz sizni faqatgina holdan toydiradi. Bundan tashqari, ularni shu holatda qabul qilib bo‘lmaydi, bu alohida masala. Sizni umuman boshqacha odam deb o‘ylashni istagan, haqiqatni bilgan holda voqealarni o‘zlari xohlagandek ko‘rishni va faqat o‘zlari ishonmoqchi bo‘lgan narsadan chetga chiqmaslikni xohlaydigan odamlarga nimani isbotlaysiz?

*Mirach Chag'ri Oqtosh / O'zingga xush kelding*

Sa'y-harakatlaringiz behuda ketishini xohlamaysizmi?  
Buning yechimi oddiy. Bunday odamlarni hayotingizdan  
chiqarib tashlaysiz va ularni o'zingizdan uzoqlashtirasiz.

**Sizni mensimaydiganlarga ko'r,  
eshitishni istamaydiganlarga kar, sevmaydiganlarga  
yuraksiz bo'ling. Shunisi a'lo. O'zingiz tushunib yetasiz.**

## *Mirach Chag'ri Oqtosh / O'zingga xush kelding*

*Qay tarzda bo'lmasin, har kim  
manfaatlari tugagach, ketadi*

«Ketmayman», deganlar birinchi bo‘lib ketganlar emasmidi? «Seni hammadan ham ortiq sevaman», deganlar sevgisidan tonganlar emasmidi? Ketadi, azizim, ketadi. Hamma ketadi. Yo sevgisi tugaydi, yoki manfaati tugaydi, ketadi. Eng avval «ketmayman» degandan qo‘rqishing kerak, chunki eng birinchi ana o’shalar ketadi. Kimdir ajali yetadi, ketadi. Kimdir boshqasini topadi, ketadi. Qanday shaklda bo‘lmasin, oxir-oqibat hayotingga kirgan hamma ketadi va sen bir o‘zing qolasan. Do‘sit achitib gapiradi.

Yolg‘on gapirishning hojati yo‘q. Avvalo, o‘zingga shu savolni ber: «Ketmayman degnlarning hozir qaysi biri yonimda?» Keyin iloji bo‘lsa, javob ber. Biz har safar «ketmayman» degnlarning ketishiga, «sevaman» degnlarning befarqligiga guvoh bo‘lmadikmi? Albatta, bu hayotda istisnolar ham bor. Lekin ba’zi bir umuminsoniy haqiqatlar mavjud. Hamma bir kun ketgani kabi... Ogohlantirib qo‘yay, eng katta xatoni biz qilyapmiz.

Hayotimizga kimnidir olib kirsak, unga shunchalik bog'lanib va sevib qolamizki... Unga hech qachon ketmaydigandek o'rganib qolamiz. Hatto ko'pincha «Bundan buyon usiz qanday yashayman?» deb aytadigan darajada sevishimiz mumkin, lekin bir kun kelib u ketadi. Biz esa turgan joyimizda so'ppayib qolamiz. Hech kimni go'yo ketmaydigan-dek sevmang. Aksincha, hammaning ketishiga tayyor turing. Agar bunga o'zingizni tayyorlasangiz, kamroq azob chekasiz.

Sevmang demayman, seving. Go'yo u sizni hech qachon tark etmaydigandek emas, bir kun ketishiga tayyor bo'lib, seving.

**Ketmayman, deganlarga ishonma.**

**Ayniqla, seni tark etmoqchi bo'lgan odamlarni qolishga majburlama. O'zingni behuda koyitma.  
Ketmoqchi bo'lganlarga aytilishi kerak bo'lgan  
yagona so'z: «Eshik ana u yerda».**

**Pilla qurti «yo‘Ining oxiri» deganini Xudo «kapalak» deh nomladi. Hech birimiz bizni qanday go‘zalliklar kutayotganini bilmaymiz.**

O‘zgarish me'yordagi va muqarrar holat. Ba’zilari-  
miz o‘zimiz yashayotgan sharoitlarni, o‘zgarishlarni va ayrim  
narsalar o‘zgarishini hech qachon qabul qilmaymiz. Hayot-  
da faqat o‘zimiz istagandek yashashga harakat qilamiz. Na  
o‘zimizning yashirin qirralarimizni, na tog‘ning narigi to-  
monini kashf qilishga urinamiz. Aslida, hayot ko‘ringanidan  
ko‘proq va inson o‘ylagandan ham kuchliroqdir. Biz diqqa-  
timizni faqat ko‘rishni xohlagan narsalarimizga shunchalik  
ko‘p qaratamizki, natijada ko‘z oldimizdagi mo‘jizalar va  
go‘zalliklarni ko‘ra olmaymiz. Agar o‘z quvvatimizdan o‘zga-  
rishlarga qarshi turish o‘rniga o‘zimizni va hayotimizni kashf  
qilish uchun foydalansak, hamma narsa boshqacha bo‘lishiga  
guvoh bo‘lamiz. Biz bajarishimiz kerak bo‘lgan yagona nar-  
sa – o‘tmishdan voz kechish. Ya’ni uni qo‘yib yuborishimiz va  
faqat oldinga qarashimiz kerak.

Men sizga bu bilan bog‘liq bir voqeani aytib bermoq-  
chiman. Kapalak va qurt haqidagi hikoyani bilsangiz kerak.  
Bu hikoya o‘zgarish va o‘zgarishlarni qabul qilmaslik haqida,  
ya’ni bir kapalakning kapalak bo‘lishiga qaramay, o‘zining  
kapalak ekanligini inkor qilishi haqida.

Kunlardan bir kuni kichkina qurt tug'ilibdi. U bir joydan ikkinchi joyga qiyinchilik bilan emaklab borardi. Bu qurt o'zining holatidan mamnun bo'lgan kunlarning birida sudralishdan charchab, daraxtga chiqishga qaror qiladi.

Ammo u chiqmoqchi bo'lgan daraxt oddiy daraxtlardan emas edi. U ulkan va tanasi katta, barglari jonli bo'lgan bahaybat daraxtga ko'tarila boshlaydi. Shu bilan birga, bu daraxt uning ostida yillar davomida o'ynagan va dam olgan daraxti edi.

Qurt daraxtga tirmashadi, lekin yerga sirg'alib ketadi va o'zi zohlagan joyiga borolmaydi. Ammo u taslim bo'lmaydi va harakat qilishda davom etadi. U asta-sekin o'rmalab, nihoyat yuqoriga ko'tarilishga muvaffaq bo'ladi. Bir muncha vaqt o'tgach, u butun vodiyni ko'rishi mumkin bo'lgan shoxga yetib boradi. Bu yerdan ko'rinaridan manzara haqiqatan ham betakror edi. U hayvonlarni, osmondagি paxtadek oppoq bulutlarning nafis raqsini, moviylikka belangan sarhadsiz dengizni ko'radi. Ushbu ajib lahzadan rohatlangancha chuqr nafas oladi va turgan joyidan atrofidagi manzaralarni kuzata boshlaydi. Hayotni o'z-o'zidan o'zgartirib bo'lmaydigan darajada go'zal deb o'ylagan qurt juda holdan toygan edi. U o'z hayotidan mamnun bo'lsa-da, ich-ichidan boshqa narsa sodir bo'lishining vaqt kelganini his qila boshlaydi.

Qurt bir zum charchaganini anglaydi va hayotdagи taqdiri oddiy sudralib yuruvchi qurtdan ham ko'proq narsa

ekanini o'ylab, atrofida pilla aylantirib, chuqur uyquga ketadi. Bu uni boshqa jonzotga aylanishi uchun yetarlicha uzoq vaqt himoya qila oladigan qobiq edi. U ko'zlarini ochib, harakat qilishga imkon bermaydigan og'ir qobiqning ichiga tushib qolganini va uning orqasida g'alati bir narsa borligini his qiladi. Sa'y-harakati bilan u ko'k qanotlarga o'xshagan narsalarni qimirlatadi va o'zi to'qigan pilla qobig'ini yorib chiqadi.

Qurt endi oddiy qurt emas, balki ajoyib moviy kapalakka aylangan edi; lekin bir muammo bor. Umrini shu payt gacha qurtdek yashab kelgani uchun bechora qurtimiz endi qurt emasligini anglay olmaydi. Bu moviy kapalakka shunchalik g'alati tuyiladiki, qanotlari bo'lsa-da, kichik oyoqlari bilan daraxtda sudrala boshlaydi. U katta moviy qanotlarning og'irligi ostida ezilganini his qiladi. Bu narsa uning uchun kuchini tugatadigan og'ir yuk hisoblanadi. Moviy kapalak har doimgidek oyoqlari yordamida harakat qiladi. U qurtdek yashashda davom etadi, chunki u o'zini hali ham qurt deb hisoblaydi.

**«Siz nimaga qarshilik ko’rsatsangiz, u bor  
bo’lishda davom etadi».**

**Karl G. Yung**

Kapalakka aylangan qurtning bu o’zgarishga qarshilik ko’rsatishi tufayli u o’zining psixologiyasida qiyinchilik va o’zini boshqa jonzotdek his qilishi davom etishiga sabab bo’ladi. Lekin uning ulkan qanotlari hech qachon oldingidek chaqqonlik bilan harakatlanishiga imkon bermaydi.

**«Qurt «yakun» deb atagan narsani butun dunyo  
«kapalak» deb ataydi».**

**Lao Tzi**

Halgacha o’zini qurt deb hisoblab, hayotini qurtdek davom ettirayotgan kapalak nima uchun hayoti bunchalik qiyinlashganini sira tushunolmaydi. U qanotlarining og’irligini ko’tarishdan ham charchagan, ham to’yan edi.

U bu o'zgarishlar sodir bo'lgan shoxga qaytishga qaror qiladi. Bu safar uning daraxtga chiqib, oldinga siljishga urinishi deyarli mumkin emas. Shamol yoki boshqa kutilmagan bir narsa unga monelik qilishi mumkin. Hali ham o'zini qurt deb o'ylayotgan kapalak to'xtab, juda uzoqdadek ko'ringan shoxga qaraydi. Keyin umidsizlikka tushib yig'lay boshlaysdi... Shu payt uning yig'layotganini ko'rgan go'zal oq kapalak unga yaqinlashadi. Oq kapalak hech narsa demasdan, bir muddat moviy kapalakka qarab o'tiradi. Moviy kapalakning faryodi tugagach, undan so'raydi:

– Nima bo'ldi?

– Men ana u shoxga chiqa olmadim. Oldinlari qiyin bo'lган bo'lsa-da, buni uddalar edim.

– O'sha shoxga chiqa olmasang ham, balki, ucha olarsan.

Lekin bizning moviy kapalak hali ham o'zini qurt deb o'ylagani uchun oq kapalak nima deyotganini tushunmaydi. Keyin u o'ziga, katta va og'ir qanotlariga qaraydi. Xuddi qobig'idan chiqqan kunidagidek ularni qo'pol harakat bilan ochadi. Uning qanotlari juda katta va juda chiroyli edi. Ubu go'zallikka bir muddat qarab turgach, ulkan qanotlaridan qo'rqib, darhol ularni yana yopib oladi.

Oq kapalak o'rnidan turib, moviy kapalakka achinib qaraydi va «Afsuski, qanotlarining ishlatmaganing uchun oyoqlaringga jabr qilibsan», deydi. U qanotlarini keng yoyib, uchib ketadi. Moviy kapalak oq kapalakning har bir harakatini hayrat bilan kuzatadi va uning gaplari haqida og'ir o'yga cho'madi. O'sha paytda u endi qurt emasligini va balki, bu og'ir qanotlar unga foydali bo'lishi mumkinligini tushuna boshlaydi.

Moviy kapalak qanotlarini yana ochadi va bu safar ularni ochiq ushlab turadi. U ko'zlarini yumadi va shamol ularni erkelayotganini his qiladi. Bu qanotlar endi uning bir qismi ekanligini tushunadi. U endi qurt emasligini va o'z hayotini sudralib davom ettira olmasligini anglaydi. U tajribasi yaxshi bo'lmasa-da, oyoqlarini yerda sudrab yurishdan ko'ra uchish osonroq ekanini tushunadi. Uchishdan qo'rqish haqiqatni tan olishga imkon bermaganini, u aslida qurtdan kapalakka aylanganini biladi. Ushbu o'zgarish hikoyasining qahramoni endi katta, chiroyli va moviy qanotlarga ega. Uning qanotlarida eng musaffo osmonning moviyligidan tortib eng quyuq moviy tuslar ham jilvalanadi.

**Bilol Jivelek bu borada qanchalar haq:  
«Kapalakning uchishiga hasad qilganlar  
uning pilladagi azobini mensimaydilar.  
Kapalakka go‘zallik tojini kiydirgan  
narsa u chekkan azobdir».**

Bu hikoyadan olishimiz lozim bo‘lgan saboq shundan iboratki, biz o‘zgarishlarni qabul qilishimiz kerak. O‘tmishimizga bog‘lanib qolib ketmasligimiz lozim. Biz doimo o‘zgarib turadigan, rivojlanayotgan va o‘zini yangilayotgan dinamik dunyoda yashayapmiz. Ko‘pincha turli xil o‘zgarishlar hayotimiz eshigini qoqadi. Garchi biz o‘zimizni o‘zgarishlarga tayyor holda kuchli his qilsak ham, buni qabul qilishni istamaymiz va eshikni ochmaymiz. Chunki biz o‘zgarishdan va avvalgidek bo‘la olmaslikdan qo‘rqamiz. Ammo bu qo‘rquv o‘rinsiz va keraksizdir. Shu o‘rinda, Eroy Morenoning ushbu mavzudagi quyidagi jumlasini eslatishni o‘rinli deb bildim:

**«Hayot seni hatto oyoqlaringni his qilmaydigan  
darajada holdan toydiradi. Taslim bo‘lma.  
Voz kechma. Qanotlaringni yoy va uch. Qo‘rqma».**



## *O'zingga xush kelibsan*

Insonning boshidan ko'p narsa o'tganidan so'ng panoh topadigan, bosh urib boradigan va shu nuqtadan keyin hech kimning oldiga osonlikcha bormaydigan, borolmaydigan bir joyi bor: o'zi... Sen shu vaqtgacha to'g'ri insonni, chin muhabbatni izlading. Duch kelgan hammani o'zingdek deb o'ylading. Ular rollarini shunchalik qoyilmaqom ijro etishdi-ki, sen ham ishonding. «Bu boshqacha» deb qaragan har bir tanlovingda adashding. Bu hayotda toza vijdon bilan yashash shunday go'zal rohatki... Bu rohatni sen ham boshdan ke-chirding.

Chunki chekingga tushganini ado qilding va vijdonningni pokiza saqlab qolding. Bir muncha vaqt o'tgach, sen yurgan yo'l hech qayerga olib bormasligini, sen qilgan qurbanliklar senga vafosizlik ko'rinishida qaytib kelganini, bergen qadr-qimmatting sariq chaqaga aylanganini, joningni qo'shib baxsh etgan sevging chiqindiga otilganini, ishonib topshirgan qalbing chilparchin bo'lganini ko'rding va o'zingdan panoh topding.

Kel, biroz o'tirib dam ol. O'zingni noloyiq odamlar uchun fido qilding. Yetarlicha holdan toyding, endi nima istayotganini va o'zini qanday his qilayotganini bilmaydigan odamlar uchun behuda ovora bo'lmasliging kerak. Shuncha vaqt dan beri hammaga qalbingni ishonganing uchun boy berding, lekin o'zingni topding. Bundan buyon faqat o'zing uchun harakat qil.

**Dam olish va o'zingni kashf qilish vaqtি keldi.  
O'zingga xush kelibsан!**

*«Yaqinlaringizga gul hadya qiling.  
Agar gulingiz bolmasa, tabassum qiling».*

Hayot ba'zida notinch va stressli bo'lishi mumkin. Bunday paytlarda odam yolg'iz qolishni va xotirjamlikni his qiladigan joylarga qochib ketishni istaydi. Ish hayoti, sevgi hayoti, oila va do'stlar, albatta, zavqli, lekin ayni paytda zerikarli bo'lishi mumkin. Birovning salbiy munosabatiga chidashga va faqat sevganingiz uchun sizga qilingan nohaqliklarni e'tiborsiz qoldirishga majbur emassiz. O'zini o'ta muhim deb hisoblagan har bir kishidan voz kechishingiz va sizning yaxshi niyatizingizni suiiste'mol qilganlarni hayotingizdan chiqarib tashlappingiz kerak. Hech kimning «U bari bir mendan voz kecha olmaydi» degan fikrga berilib ketishiga yo'l qo'ymasligingiz va oqibatlari haqida o'ylamagan holda ko'ngliga kelgan ishni qilishiga izn bermasligingiz kerak. Sizga salbiy energiya bergani yetmagandek, ijobiy energiyangizni ham tortib oladigan odamlarni hayotingizda ushlab turmang. Keling, qo'lingizdagи telefonni misol qilaylik. Unda ba'zi ilovalar borki, ular quvvatni tortib olishdan boshqa narsaga yaramaydi.

Buning sizga umuman foydasi yo'q, lekin siz uni qachonlardir telefoningizga yuklab olgansiz va o'chirmagansiz. Xuddi shunday ba'zi insonlar telefoningizdagи hech bir foydasi tegmaydigan, foydasi tegmagani yetmagandek, kamiga zarari tekkan, quvvatni tortib oladigan ilovalarga o'xshaydi. Quvvatimizni tugatmasligi uchun bu ilovalarni telefonimizdan, hayot energiyamizni yeb bitirmasligi uchun esa bu insonlarni hayotimizdan o'chirib tashlashimiz kerak.

**Tomas Eliot bunday vaziyatni qanchalik chiroyli izohlagan: «Negativ odamlarning ta'siriga tushib qolish radiatsiya maydoniga o'xshaydi. Bunda qisqa muddatli past dozalarga dosh berishingiz mumkin, ammo doimiy ta'sir sizni o'ldiradi».**

Bu hayot seniki

Sabahattin Ali maslahati:

«Ular nima deyishidan qat'i nazar, biz qalbimiz va ongimiz to'g'ri deb bilgan narsani odamlarning gapiga chalg'imay bajarishimiz kerak».

Ular tanqid qilishadi, noto'g'ri tushunishadi, orqang-dan gapishtadi, lekin ularning fikri sen uchun muammoga aylanmasligi kerak. Hech kimning fikri yoki noto'g'ri qarashlari seni pastga qulata olmaydi. Hech narsaga va hech kimga qaramay, sen oyoqda tik turishing lozim. Sen o'z hayotingni to'laqonli yashashing kerak.

Shuni yodda tut: sen haqingda aytilgan gaplar sening qadr-qimmatning tushirmaydi va hech narsani o'zgartirmaydi. Ular gapishtadi va yanada yorqinroq porlaysan. Hayo-tingni u nima derkan, bu nima deyapti, deb yashama. Hech kimdan qo'rhma. Biror ishga qo'l urishdan yoki qaror qabul qilishdan oldin odamlar kelib sendan so'rashadimi? Sen bilan maslahatlashadimi? Yo'q. Sen ham so'rama va maslahat qilma. Xato qilsang, qil. Odamlar gapishtadi, deb qo'rhma, ular sen hech narsa qilmasang ham gapishtadi. Bu hayot seniki...

## *Mirach Chag'ri Oqtosh / O'zingga xush kelding*

Yo'l uzoq. Ular gapiradilar, deya bu yo'lni o'zingga zindon qilma. Birovning yo'lidan yurish – o'z yo'lini yo'qotish demakdir. Yo'lingni yo'qotma. Endi odamlarning gaplari dan qo'rhma va o'z yo'lingda davom et. Oyog'ingga tosh tegmasin. Yuradigan yo'ling pok qalbli insonlarga olib borsin.

**Bernard Shouning so'zlariga qulq solishimiz kerak:  
«Ular nimaga ishonishni xohlasa, o'sha narsaga ishonadi.  
Shuning uchun o'zing bo'lib yasha».**

## *Mirach Chag'ri Oqtosh / O'zingga xush kelding*

Yo'l uzoq. Ular gapiradilar, deya bu yo'lni o'zingga zindon qilma. Birovning yo'lidan yurish – o'z yo'lini yo'qotish demakdir. Yo'lingni yo'qotma. Endi odamlarning gaplari dan qo'rhma va o'z yo'lingda davom et. Oyog'ingga tosh tegmasin. Yuradigan yo'ling pok qalbli insonlarga olib borsin.

**Bernard Shouning so'zlariga qulq solishimiz kerak:  
«Ular nimaga ishonishni xohlasa, o'sha narsaga ishonadi.  
Shuning uchun o'zing bo'lib yasha».**

*Köp narsadan umidvor bolganlarning  
anduhi ham köp boladi*

Odamlardan va boshqa narsalardan nimadir kutishni to'xtatganidan beri avvalgidek dilim og'rimayotganini sezdim. Ilgari hamma narsaga keragidan ko'p ahamiyat berib, o'zimga dard orttirib olardim. Lekin endi avvalgi men yo'q, chunki uni o'chirib tashladim. Men bu hayotga orqasiga ham qaramay ketgan odamlarning ortidan quvish, sadoqatni bilmagan odamlarga vafodorlik qilish uchun kelganim yo'q. Men haddan ortiq ko'p umidlar insonni ranjitishdan, holdan toydirishdan va hafsalasini pir qilishdan boshqa narsaga yaramasligini ko'rganimdan buyon hech kimdan hech narsa kutmaslikka qaror qildim. So'zdagi samimiyatingiz, xatti-harakatingizda aks etmaydigan sevgingiz, yaxshi insoniy rollaringiz o'zingizga buyursin. Menga tegmasangiz, bas, men shu holatda yaxshiman. Shekspir aytgan edi: «Men hamisha o'zimni baxtiyor sezaman. Bilasanmi nega? Chunki men hech qachon hech kimdan hech narsa kutmayman. Kutish – bu azob. Umr qisqa. Shunday ekan, o'z hayotingni sev. Hamisha kulib boq. Gapirishdan oldin tingla. Yozishdan oldin o'yla. Pulni sarflashdan oldin ishlab top. Duo qilishdan oldin ishon. Taslim bo'lishdan oldin kurash. Ozor berishdan oldin his qil. Nafratlanishdan oldin sev. O'lishdan oldin yasha...»

**Robin Sharma aytganidek:**  
**«Inson qanchalik kam kutsa, shunchalik baxtlidir.**  
**Formula: nol kutish, cheksiz baxt...»**  
**«Oh»latib ketgan insoning eshigiga «voh» deb**  
**bora olmaysan**

Siz meni hamma narsani ichiga yutadi deb o'ylaysiz. O'ylashingizcha, meni xafa qilgan har qanday harakatingizni unutib, yana odatdagidek yuzingizga kulib qarayman. Sizni keragidan ortiq qadrlaganim uchun nima qilsam ham kechiradi, deb ishonasiz. Ammo befarqligingiz, qalbimni sindirgan yolg'onlaringiz, o'zingizga bino qo'yishlaringiz va o'zingizdan boshqa hech kimni o'ylamay, qilgan barchaadolatsizliklaringiz bilan bizning munosabatlarimizga qanday barham berганингизни бilmaysiz.

Agar orqangizda yosh to'la ko'zlar va ezilgan qalblarni qoldirgan bo'lsangiz, bilingki, qaytib hech qachon kula olmaysiz va sevish baxtidan ham mosuvo bo'libsiz. Agar bir kun afsuslanib qaytib keladigan bo'lsangiz, shuni unutmang: Yuragini yoqqan insoningizning eshigiga qaytib borolmaysiz...

**«Singan qalbdan chiqqan ohning topib**  
**bormaydigan manzili yo'q».**

**Masofa sevgiga to'sqinlik qilmaydi.**  
**Agar inson chin yurakdan sevsə, yorga olib boradigan**  
**yo'llarning toshini ham yaxshi ko'radi.**

Men insonning qalbidagi masofachalik uzoq masofani bilmayman, ko'rmaganman. Odamlar masofa deb ataydigan narsa – bu ularning o'z qalbidir. Men buni juda yaxshi bilmaman. Sizga boshimdan kechirgan bir voqeani aytib bermoq-chiman.

Ikki-uch yil oldin men bir ayol bilan tanishdim. Biz gaplasha boshladik, lekin munosabatlarimiz faqat mening urinishlarim bilan davom etayotganini uning o'zi ham billardi. Chunki u doim uzib tashlamoqchi bo'lgan rishtalarni men bog'lab turardim. Bizni asrab qolishga urinardim. Men bo'lishni xohlagan, lekin hech qachon mavjud bo'lмаган «Biz»ni. U juda hissiyotli odam emas edi. Ilk tanishgan damlarimizda u menga «Men juda his-tuyg'ularga beriluvchan odamman», degandi, ammo tuyg'ular unga yot ekan. Men qachon u tomon qadam bossam, u qo'lida zirapcha bilan menga ozor yetkazishni kutib turardi. Men ham bu og'riqlarga ko'nikib qolgandim. Men uni shunchalik o'zimga yaqin olardim. Oramizda bir-ikki yosh farq bor edi, lekin bu biz bir-birimizni seva olmasligimiz yoki tushuna olmasligimizni anglatmasdi.

Chunki yosh shunchaki raqamlar edi, u hech qachon bo‘lgan va bo‘ladigan narsaga to‘sinqinlik qilolmasdi. Suvdan chiqqan baliq o‘zi yashaydigan suvga qaytish uchun tibirchilaganidek, men ham uning nimalarnidir anglab yetishi uchun tirishardim. Nima qilsam ham, unga masofa sevgimizga, bir-birimizga tegishli bo‘lishimizga va bir-birimizni anglashimizga monelik qila olmasligini tushuntira olmadim. Har qanday imkoniyatdan foydalanib ko‘rdim. Buni amalga oshirish uchun juda ko‘p harakat qildim, lekin bo‘lmadi. Uning miyasiga «Masofa hamma narsaga to‘siqdir», degan fikr o‘rnashgan va men bu fikrni uning boshidan hech qachon olib tashlay olmadim. Buni uddalay olmadim. Hozir «Shunchalik sevibsan, unda nega yoniga bormading?» deb aytayotgandirsiz? Meni bormadi deb o‘ylaysizmi? Bordim. Balki, u meni yoqtirar, deb uning oldiga borish uchun barcha chiptalarni sotib oldim... O‘shanda men Istanbulda, u esa Antaliyada yashardi. U uchun Antaliyaga bordim. Uni ko‘rish uchun. Bir bor bo‘lsa-da uni quchish, iforini o‘pkanga ko‘mish, ovozini qulog‘imga muhrlash uchun bordim.

U go‘yo bu narsa meni xursand qiladigandek meni xafa qilishni xohlamasligini aytdi va ko‘rishishni rad etdi. Meni hech qachon sevmasa ham, uni ko‘rishga kelganim uchun hatto bir bor ko‘rishishga arzimagan odamning ortidan quvib yurganim uchun o‘zimdan jahlim chiqdi.

Uning qo'llarini tutish umidida kelgan shahardan quruq qo'l bilan qaytdim. Na qo'llari tegdi qo'llarimga, na yuragi tegdi yuragimga. Bu kelishga arzimas edi, lekin men kelishim kerak edi. Chunki o'tirgan joyimdan nimanidir xohlayotganimni aytishning o'zi yetarli emasdi. Onasidan tayoq yegan holda yana ona deb yig'laydigan bolaning odatidan yuragim voz kechmadi. Xullas, biz boshlanmay turib tugadik. Hatto gaplashmay ketdik. Go'yo hech qachon tanishmagandek hayotimizni davom ettirdik. Keyinchalik men Istanbulni tark etib, yana Antaliyaga joylashdim. Oradan ikki yil o'tdi. Men unga na qo'ng'iroq qildim, na SMS yozdim chunki uzoqda bo'lib menga e'tibor bermagan odam yaqinda bo'lsa, menga ahamiyat berarmidi? Shuning uchun unga bir marta ham qo'ng'iroq qilmadim. Odatiy kunlarning birida yo'llarimiz yana kesishdi. Biz uchrashib, gaplashib olishga qaror qildik. U ishdan chiqib, bir qahvaxonada meni kutardi. Uning yoniga borar ekanman, yuragim maromida zarracha ham o'zgarish bo'lmadi. Ko'zlarim odatdagidek bir vaqtida yumilib ochilardi, kaftlarim terlamasdi, vujudimda adrenalinga o'xshash hech narsa sezmasdim. Men uning yoniga hissiz, befarq va bo'm-bo'sh holda bordim.

Istanbuldan uning odiga kelganimda boshdan kechirgan hayajonni zarracha his etmadim. Men biroz xafa edim, lekin buning ahamiyati yo'q edi.

Uni uzoqdan ko'rganimda ichimda hech narsani his qilmadim. Bu boshqacha bo'lishini xohlardim, lekin unday bo'ljadi. Negaligini bilmadim, o'sha payt qulog'imda barcha ayriliq haqidagi qo'shiqlar jaranglagandek bo'ldi, lekin ular menda hech qanday tuyg'u uyg'otmadni. U o'tirgan stolga borib o'tirdim. Uning nigohlarida pushaymonlik tuyg'usi bor edi va o'sha nigohlar bilan menga uzoq tikildi. Ofitsiant stolga kelib, bizdan nima ichishimizni so'radi. Men o'zimga oddiy qahva buyurdim. U hech narsa buyurmadi, chunki men kelishimdan oldin qahvasini tugatganini aytdi. Aslida, men uni uzoq kutirmagan edim. Birga qahva ichish uchun kutishi mumkin edi. Shu payt ichimdan «U hatto birga qahva ichish uchun ham seni kutmaydi, sen bunday odamdan sevgi kutyapsanmi?» degan achchiq o'y o'tdi. Balki, hozir «Bitta qahvaga shunchami? Bechora qiz seni kuta turib, ichsa ichibdi-da!» deb aytayotgandirsiz? Lekin bular men uchun muhim narsalar sanaladi. Masalan, agar men kim bilandir uchrashadigan bo'lsam, o'sha odam kelmasidan oldin hech narsa yemayman va ichmayman; chunki yonimdag'i odam bilan yeb-ichadigan narsalarim ham menda xotiraga ega. Ehtimol, bu narsalar siz uchun unchalik muhim emasdir. Balki «Juda mayda-chuyda narsalarigacha o'ylaysan-da, Mirach. Hayot sen xohlaganday o'tadimi?» deb aytayotgandirsiz. Lekin nima ham qilardik, ahamiyatsiz hisoblangan mayda-chuydalar men uchun katta ahamiyatga ega edi. Shunday bo'lib qoladi.

Qahvamdan bir ho'pladim va suhbatni boshladik. U gapirdi, men tingladim. Men gapirdim, u eshitdi. U hayotida bo'lgan oxirgi odamning ismi ham Mirach ekanligini aytdi. Shunchaki bir zum hayratda qoldim va uni tinglashda davom etdim. Odatda men hech kimning o'tmishini so'roq qilmayman, lekin bu mavzu meni qiziqtirib qo'ydi. O'zimni qiziqtirgan narsalarni undan so'radim. Sobiq sevgilisining burji ham yoy burji bo'lganini, ismi Mirach ekanligini, men bilan tengdosh ekanligini va u ham Antaliyada yashashini aytdi. Ular ayrilibdi.

Endi men sizni hamdardlikka taklif qilsam... Jimgina tasavvur qiling: bir inson sizga o'z hayotidan joy berishini, sizni sevishini xohlaysiz va siz ham unga hayotingizdan joy bermoqchisiz. U esa masofalarni ro'kach qilib, bu bahonaning orqasiga yashirinadi va masofaviy munosabatlarni saqlab qolishni istamasligini aytadi. Shunga qaramay, o'rningizdan turib, u bilan yuzma-yuz gaplashish uchun u yashaydigan shaharga borasiz. U esa shuncha yo'l bosib kelganingizga qaramay, sizning yoningizga borib, o'zini ovora qilishni xohlamaydi va qanday kelgan bo'lsangiz, shunday ortingizga qaytib ketasiz. Keyin siz uning hayotiga kirgan sevgilisi bilan bir xil ism va bir xil xususiyatlarga ega bo'lganingizni bilasiz.

Ajablanarlisi, siz u uchun qo'lingizdan kelganini qilgan bo'lishingizga va uning yangi sevgilisi bilan ayni sifatlarga ega bo'lishingizga qaramay, u siz haqingizda bir lahma ham o'ylamaydi. O'zingiz ko'rib turganiningizdek, yer yuzida

bor-yo'qligimga e'tibor bermay, o'rniimga boshqasini qo'ygan va o'rniimga egallagan odam bilan ismi sharifim bir bo'lsa-da, xayolinig bir burchagiga ham kelmagan bir odamdan meni sevishini va qadrlashini kutgandim. Oxir-oqibat voz kechdim.

U meni sevmasligi va hayotidan joy bermasligi mumkin. Meni umuman xushlamasa ham mayli. Men uning qarorini hurmat qila olaman va qabul qilaman. Men kimnidir o'zimni sevdirishga majburlay olmayman. U qadar yuzsiz emasman. Biroq odamlarning bir-birini sevishi, bog'lanishi va birga yashashiga hech qachon xalaqit bermaydigan bema'ni bahonalar ro'kach qilinishiga va o'sha bahonalar ortiga yashiringancha meni devorning oldida qoldirib, o'zi uning orqasida boshqalar bilan gullab-yashnashini qabul qila olmayman. Bunga ko'nikolmayman.

Shuni aytmoqchimanki: masofa degan narsa shunchaki raqamlardan iboratdir. Bu bir chipta yoki uzun yo'l. Masofalar ga qaramay sevish har bir er yigitga nasib etavermaydi. Biror kishi sizning burningiz ostida bo'ladimi yoki minglab kilometr uzoqda bo'ladimi, muhim emas. Sodir bo'lmaydigan narsa burun ostida bo'lsa ham sodir bo'lmaydi. Buning eng yaqqol isboti: uzoqda deb meni sevmagan, yonidagi insonni hayotiga kirgizgan, keyin hech narsa bo'lmaganday ayriliqning ta'mini totgan odamning hikoyasi bo'lsin. Bu hikoya masofalar sevishga, sevilishga va haqiqatan ham munosabatlarga to'sqinlik qiladi, deb o'laydiganlar uchun tuhfa bo'lsin.



## *Bu horginlik tugay demaydi*

Shu paytgacha kimning nimaga ehtiyoji bo'lsa, yordam berdik. Kim bizga ehtiyoj sezsa, yonida bo'ldik. Bir marta bo'lsa ham hech kimga yomonlikni ravo ko'rmadik. Hech kimga yuz burmadik. «Iloji yo'q. Hozir emas», demadik. Qo'limizdan nima kelsa, shuni qildik. Hech kim bizni yo'qotishdan qo'rwmadi, yo'qotishdan qo'rqqan tomon doim biz bo'ldik.

Hayotida o'rnimiz yo'q insonlarga ko'nglimizning to'rini berdik. Vaqt o'tib esa faqat o'zimizni behuda sarson qilganimizni angladik va keyin nima qilsak ham, bundan qolgan charchoqni gardanimizdan chiqarib tashlay olmadik. Chunki biz bahona o'ylab topadigan, bir narsalardan qochadigan, qilgan va qiladiganlari faqatgina tilida bo'lган insonlardan emasdik. Bunday bo'la olmasdik.

**Rashod Nuri Guntekin horg'inligimizning asosiy sabbini qanday izohlaganini bilasizmi:** «Biz «yo'q», «ishim bor», «qo'limdan kelmaydi» deyishni eplay olmaydigan insonlarmiz. Bizning horg'inligimiz sira tugamaydi».

Xato bor - kechiriladi.  
Xato bor - eshik ko'satiladi

Oqibati yaxshi bo'lmasligini bilib turib, sarf qilingan so'zlarning olib kelgan dilxiraliklarini hisobga olgan holda mendan uzr so'rash uchun kelganlarga eshiklarimni yopdim. Mening hayotimda qasddan qilingan xatolardan keyin so'raladigan uzrlarga o'rinn yo'q. Bilaman, hamma ham xato qilishi mumkin. Xato kechiriladi, lekin men bunday og'ir xatoga yo'l qo'ymayman. Men ham xato qilaman va qilgan xatomni tushungan zahotim uzr so'rashni ham bilaman. Lekin og'ir xatoni qilib qo'yib, xuddi arzimas xato qilgandek til uchida uzr so'rab yurmayman. Ketishim kerak bo'lgan joyda ketishni bilaman. Men og'ir xatolarga qo'l urib, keyin kechirim so'rashga majbur bo'lgan vaziyatlarga sira tushmaganman. Hamma nima qilayotganidan xabardor edi. Qo'l urayotgan ishlari qanday oqibatlarga olib kelishini ham bilardi. Shuning uchun hech kim sinishini bilib turib, yerga tashlagan stakanidan suv ichishga urinmasin.

Men ushbu jumлага то'лиқ ошшиламан:  
«Синган қалбдан со'ралган узр узилган гулни сувга  
солиҳдек кераксизdir».

## *Tuygular yaralaydi, mantiq davolaydi*

Hissiy bo'shliq odamlarni hamma narsaga majbur qiladi. Shunday bosqich borki, inson o'z tuyg'ulariga berilib, bir muddat bu bo'shliqdan chiqa olmaydi. Ba'zilar bu bo'shliqqa tushib qolgan odamlardan foydalanishga harakat qilishadi.

O'z his-tuyg'ularining eng zaif nuqtasi ekanligini oshkor qilib qo'ygan insonlar juda katta jarohatlar oladi. O'zimdan misolki, his-tuyg'ularimga ergashib kimning ortidan chopgan bo'lsam, natija o'zgarmadi. Bir muncha vaqt o'tgach, voqealarga va odamlarga his-tuyg'ularim bilan yondashmaslikni o'rgandim. Bunga erishganidan beri avvalgidan ko'ra xotirjam va baxtliman. Umrimning har lahzasida «Yo'qotsam ham tuyg'ularimga ergashaman. Ranjisam ham tuyg'ularimdan aslo voz kechmayman», deydigan men endi hayotimni aqlga suyanib davom ettirmoqdaman. «Mantiqmi? Hech qachon!» deb aytgan kunlarimni eslasam, inson hayotda hech qachon katta gapirmasligi kerakligini tushunaman. Misol uchun, hammamiz ayollar erkaklarga qaraganda biroz ko'proq hissiyotga beriluvchan jins vakillari ekanligini bilmiz. Agar sizning yo'lingiz aqlga bo'ysunib harakat qiladigan ayol bilan kesishgan bo'lsa, ishingiz qiyin bo'ladi.

Menimcha, hayotda bir ayolning eng shafqatsiz davri mantiqni ishga solgan ondir. Va unutmangki, mantiqqa tayanib ish qila boshlagan ayol uchun siz tugagan hikoyasiz.

Pablo Nerudanining ushbu jumlesi buni juda chiroyli tarzda ifodalaydi: «Agar ayol aytadigan gaplari ko'p bo'la turib sukut saqlayotgan bo'lsa, demak, erkak barcha imkoniyatlarini boy beribdi».

«Hayotda yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan shu qadar ko'p xato borki, bir xil xatoni takrorlashning foydasi yo'q»

**Jan Pol Sartr**

Har bir xato – bu og‘riq, dilxiralik va ozgina afsus, lekin oxir-oqibat bu inson uchun bir tajribadir. Inson har bir xatosidan so‘ng yangi tajribaga ega bo‘ladi. Ba’zida bu xatolar insonlar bilan amalga oshiriladi; chunki hayotimizga kiritgan har bir inson ham biz uchun alohida tajribadir. Biz ishonib hayotimizga qabul qilgan insonlar shunchalik go‘zal xatodirki, ular tufayli biz orttirgan tajribamiz natijasida bунyod bo‘lgan devorlar balandroq va qalinqroq bo‘ladi. Keyin bu devor qulamaydi. Qulata olmaysan. Yana o‘sha xatoga yo‘l qo‘yish xavotiri seni qiynaydi. Bu safar sen uchun to‘g‘ri qaror bo‘lgan fikr va insonlarga xato nazari bilan qaraysan. O‘ylab ko‘r: bir insonga ishonasan. Uning so‘zlariga, qalbiga va samimiyatiga ishonasan. Keyin uni olib, hayotingning qoq markaziga qo‘ysan. Vaqt o‘tishi bilan bu xato bo‘lganini ko‘rasan, lekin allaqachon kech bo‘lib, sen yangi tajribaga ega bo‘lasan. Keyin yana bir tajriba... Yana bir tajriba...

Keyin, balki, sen uchun eng katta yutuq bo‘lishi mumkin bo‘lgan hamma narsaga shubha ko‘zi bilan qaray boshlaysan. Chunki sen ishongan va qayta-qayta imkon bergen insonlar tufayli allaqachon bir devor paydo bo‘lgan. Bir kuni qarasang, o‘zingni himoya qilish uchun qurgan devoring sening ustingga qulagan va sen uning ostidasan. Shuning uchun amalga oshishiga ko‘zing yetmagan narsani amalga oshirishga urinma. Oxiri ma’lum bo‘lgan yo‘llarda yurib, o‘zingni behuda qiynama. Har bir xato faqat bir marta bajarilgandagi-

## *Mirach Chag'ri Oqtosh / O'zingga xush kelding*

na go'zal... Bir xil xatolarni qayta-qayta takrorlama, chunki qilinishi kerak bo'lgan boshqa xatolar va go'zal tajribalar bor.

**Bu borada Yunus Emro qanchalar haq:**

**«Hech qachon xato qilmagan odam hech narsa qilmagan odamdir va hayotdagi eng katta xato bu o'zni mukammal deb o'ylashdir».**

## *Men ózimni sevaman*

Menda yolg'izlik deb ataladigan qo'rquvlar bor. Odamlardan qo'rqqanim tufayli ulardan yashirinish uchun qurgan baland devorlarim bor. Buning sababchisi bitta odam emas, balki odamlardir. Men tanigan, ishongan va vaqtida ko'nglimdan joy bergen insonlardir. Mavzuni faqat sevgiga bog'lasam,adolatsizlik bo'ladi.

Men samimiyatiga ishongan va sevgan insonlarim yaxshi niyatimni suiiste'mol qilishgani va menga og'riqli dars berishganini suyaklarimdag'i iliklarimgacha his qilganimda bundan buyon bu qadar samimiy bo'lmasligim kerakligini, har kimga ko'nglimni ochmasligim va men uchun barmog'ini ham qimirlatmaydigan odamlarning ortidan chopmasligim kerakligini angladim. Chunki yana o'shandek jarohat va og'riqlarni boshdan kechirish niyatim yo'q. Odamlardan uzoqlashdim. Endi kim yaxshi, kim yomonligi qiziq emas.

Bilganim shuki, men avvalgidek emasman. Endi menda bir insonga o'zimni topshiradigan, ishonadigan va sevadigan kuchim yo'q. Siz o'zingizni go'yo sevadigandek ko'rsatishda davom eting. Men endi o'zimni sevaman.

**Sabahattin Ali aytganidek: «Men odamlarning yonida  
bo'lgandan ko'ra o'zimni balkonda qulayroq  
his qilaman. Inson zotidan shu qadar qo'rquamani».**



*Qadimgi naqllarning birida shunday deyilgan:  
O'z yaqinlaringga bog'lanib qol, lekin qaram bo'lma.  
Fidokor bo'l, lekin o'zingni qurban qilma.  
Kechagi kunni unutma, lekin o'tmishda yashama.  
Sabr qil, ammo chidama.  
Taqnid qil, biroq ayblama.  
So'ra, lekin talab qilma.  
Va eng muhimi, hech kimga itoat qilma.  
Hammamiz bir kun kelib o'lib ketishimizni hech qachon  
unutma...*

*Aslida, hammasi muvozanatni topish bilan bog'liq.  
Shunga barakat qil.*


**Frida Kaloning hayotimizga ozgina bo‘lsa-da yo‘nalish  
ko‘rsatadigan quyidagi jumlasiga qulq solsak,  
maqsadga muvofiq bo‘lardi:  
«Harakat qilib, tuzata olmaydigan narsangizdan  
voz kechib, najot topasiz».**

Faqat o‘zi haqida o‘ylashni, barcha og‘riq va azob-uqubatlarni mardonavor yengishni, hech narsa haqidagi qayg‘urmaslikni, beparvolikni, yiqilganda qayta o‘rnidan turishni Bob Marlidan o‘rganing. Qarang, Bob Marli juda to‘g‘ri aytgan: «*Boshqalar ranjimasin, deb hech qachon o‘zingizni xafa qildirmang. Esingizda bo‘lsin, agar siz buni ko‘tara olsangiz, ular ham ko‘tara oladi*».

Bu so‘zni eshitib, miyamdagи ba’zi fikrlar o‘zgardi. Sizning ham qarashlariningiz o‘zgarsin. Endi men kimdir xafa bo‘lmасin, deb o‘zimni xafa qilmayman. O‘z baxtimni yarimta qilib, boshqalarni baxtiyor qilishga, hech qanday ahamiyati yo‘q insonlarni rozi qilishga urinmayman. Bundan buyon mening hayotimda kim nimani eksa, o‘shani o‘radi. Salomga yarasha alik qaytaraman.

Men ham odamman. Ular qutilib chiqa olmaysan degan kulfatlarning ichidan omon chiqdim. Qo'lingdan kelmaydi deyishgandi, ammo uddaladim. Buncha narsani ko'tara olmaydi deyishgandi, ko'tara oldim. Ular ham ko'tara olishadi. Men boshqalar uchun o'zimni qurban qilishni, o'qqa-cho'qqa urishni va o'zimga ozor berishni to'xtatdim. Endi o'z hayotimga e'tibor qaratishni boshladim. Hamma faqat o'zini o'ylaydigan, biror ishing tushganda, qo'limdan kelmaydi, degan bahonalar orqasiga yashirinadigan bu hayotda endi men ham o'z yo'limga qaray boshladim.

**Bunga loyiq bo'Imagan va arzimagan odamlar uchun  
o'zimni juda ko'p bor qiynadim.**



## *Yaxshilik qilishdan voz kechmang*

Har bir yaxshilikning javobi biz kutgandek yaxshilik bilan qaytib kelmasligi mumkin. Ba'zan biz «Bu odamlarga yaxshilik yoqmas ekan», deb koynamiz. Shunday vaqt-lar keladiki, biz hatto yaxshilik qilishdan voz kechish haqida o'ylaymiz, lekin ezgulik ulashishdan to'xtamasligimiz kerak. Yaxshilik evaziga hech narsa kutmasdan amalga oshiriladigan va insonning qalbidan chiqadigan harakatdir. Evaziga biror narsa kutish orqali qilingan yaxshilik tijoratdir. Nima qilsangiz ham, yaxshilik qilishni to'xtatmang.

Bir kuni bir darvesh suvga tushib ketgan chayonni qutqarmoqchi bo'ladi. U qo'lini uzatgan zahoti chayon uni chaqib oladi. Darvesh yana urinib ko'radi, chayon yana chaqadi. Buni ko'rganlar chiday olmay darveshdan: «Yaxshilik qilmoqchi bo'lsang-u, u senga zarar yetkazsa, yana nega yaxshilik qilmoqchi bo'lyapsan?» deb so'rashadi. Darvesh juda chiroyli javob beradi: «Chayonning tabiatida chaqish bor, mening tabiatimda esa yaratiqni sevish va mehr ko'rsatish...»

**«Yaxshilik qilishda davom et.**

**Agar qarshingdagi odam yaxshilikka loyiq bo'lmasa,  
sen yaxshilik qilishga loyiqsan».**

**Che Gevara**

## *Bu mening birinchi mag'lubiyatim emas*

Sen meni birinchi marta ranjitayotgan odam emasan. Birinchi marta sen yaralamading, sen og'ritmading, sen qon yig'latmading. Bu mening birinchi mag'lubiyatim emas. Men sendan avval ham mag'lub bo'ldim. Sendan oldin ham yaralandim va ko'zyosh to'kdim. Birinchi marta qalbim sini-shi emas. Meni yaxshi ko'rghan odamlarim oyog'imdan chalib yiqitishdi, lekin hozirgacha har doim o'zim o'rnimdan turib keldim. Bitishi qiyin bo'lgan og'ir yaralarimni o'zim davoladim.

«Men yoningdaman», deganlar bor edi, ammo doim yolg'iz yig'lardim. Sen boshimga solgan kulfatlardan sira ajab-lanmadim, chunki men bunga ko'nikib qolganman. Sen ham ulardan hech qanday farq qilmading. Xuddi ular boshimga solgan kunlarni boshimga solding va ular bilan bir xil ekan-lizingni isbotlading. Men yana o'rnimdan turaman, lekin sen mendek sevadiganni boshqa topolmaysan.

**Seni sevishni meni yaralab, boshqalarning yarasiga  
malham qo'yganiningni ko'rghan kunim to'xtatdim.**

## *Endi navbat senga*

Men ikkimiz uchun yetarlicha kurashdim. Bu yo'l no-to'g'ri ekanini bilsam ham, bir lahza senga eltadigan yo'ldan og'ishmay, sen tomon qadam tashladim. O'zaro munosabatlar faqat ikkala tomon qattiq harakat qilsagina davom etishi mumkin. Agar insonning qalbida sevgi bo'lsa, u hamma narsani qilar edi. Men ham qildim. Sen hech narsa qilma-ding, deb ayta olmaysan, men hamma narsa qildim. Shuning uchun vijdonim xotirjam. Shunday paytlar bo'ldiki, o'zimga sig'madim, to'lib-toshdim. Lekin shunda ham hech kimga hech narsa demadim. Doim hamma narsani ichimga yutdim. Menga nisbatan qilganadolatsizliklaringni o'zingga qaytar-madim. Qilingan qurbanliklar tilga chiqarilmasligi kerak, le-kin inson ma'lum nuqtadan keyin samarasiz harakat qilayot-ganini his qilganida va o'zi bosib o'tgan yo'l hech qayoqqa olib bormasligini juda aniq ko'rganida boshi devorga borib uriladi. Menda ham shunday bo'ldi.

Men sen uchun kurashishni va bu munosabatlar davom etishi uchun bir o'zim harakat qilishni sen o'tirgan joyingda gapirishdan boshqa hech narsa qilmaganingni va mening sa'y-harakatlarimga qaramay, hech narsa o'zgarma-ganini aniq anglagan kunim to'xtatdim.

## *Mirach Chag'ri Oqtosh / O'zingga xush kelding*

Shu vaqtgacha hamma narsani mendan kutding, men ham sevganim uchun hamma narsaga ko'z yumdim; lekin endi o'zimni o'qqa-cho'qqa urishdan, sen qilmagan ishni qilish-dan, kurashishdan, tinchimiz yo'qolmasin, senga ozor yetmasin deb urinishdan yiroqman. Sen endi men uchun ikki karra ikkining javobi to'rt bo'lganidek juda qat'iy va aniq natijasan. Men charchadim. Sen ham oz-moz harakat qil yoki mensiz yo'lingda davom et. Men o'z qobig'imdaman.

**Hamma bir-birini og'izda sevadigan, ammo amalga kelganda buning butunlay aksi bo'lgan bu davrda men o'zim bilan yolg'izman...**

## **Nomunosib insonlar uchun vaqtingni boy berma**

Oldin ham aytganman, ketishga qaror qilgan odamni yoningizda ushlab turolmaysiz. Qolishni istaganlar esa nima bo‘lishidan qat’i nazar, siz bilan qoladi. Ushbu naqlni kimning buvisi aytganini bilmadim-u, lekin juda to‘g’ri aytgan. «Buvim aytardi: «Ketmoqchi bo‘lgan odamni arqon bilan qirq marta tugib bog‘lasang ham, ushlab qololmaysan. Qolishni xohlaganlar uchun bir dona soch tolasi kifoyadir».

Hayotingizda arzimas narsa uchun darrov eshikka yuzlanadigan emas, balki siz bilan to‘g’ri yo‘l topishga harakat qiladigan va yechim izlaydigan odamlar bo‘lsin. Agar harakat qilmoqchi bo‘lsangiz, ketish uchun bahona izlaydigan odamlar uchun emas, yoningizda qolgan odamlar uchun harakat qiling. Ketmoqchi bo‘lganlar bilan darhol xayrlashing. Qolganlarni izzat qiling. Hayotini bahonalar ustiga qurgan odamlardan mehr-muhabbat kutmang. Oxir-oqibat hafsalangiz pir bo‘ladi. Ular o‘zlariga yaxshilik qilmaydi, sizga qilarvardi? Qalbining sasidan boshqa hamma narsaga qulq soladigan va hayotini shu shaklda davom ettiradigan odamlar sizning hayotingizdan o‘rin egallashidan foyda yo‘q. Zotan keragi ham yo‘q.

**Ketmoqchi bo‘lgan odamni tutib qolishga urinma.**

**Ketganlar bilan xayrlash, qolganlarni izzat qil.**

**Sen ham insonsan, o‘zingga jabr qilma.**

## Jandan Erchetinning

«Istasang, baxtli bo'l yoki telba», degan joyidaman.

Men endi avvalgidek emasman. Endi bitta kulib qarshing yoki SMS xabaring bilan hech narsa o'zgarmaydi. O'zgartira olmaysan, men bunga ruxsat bermayman. Sen qayerlardadir boshqalar bilan kuningni xush kayfiyatda o'tkazayotganingda men sen tufayli hayotimni barbod qila olmayman. Sen o'zimdan ham muhimroqmisan? G'amga botib qolsam, iztirob cheksam yoki ko'z yoshi to'ksam, mendan ko'ra ko'proq qiynalishingga ishonmayman. Bundan buyon kim menga qanday munosabatda bo'lsa, xuddi shuni o'ziga qaytaraman. Xabaring bo'lsin.

**Senga ajratgan vaqtimning nihoyasidan gapiraman:  
Hech qanday harakatimga arzimaysan...**

«Agar hamma narsa ko‘ringanidek bo‘lganda edi, hovu-chingga olgan dengiz suvi moviy bo‘lar edi»,

Ko‘pchilik «Men ko‘rganlarimga ishonaman», degan so‘zga yopishib oladi va shunga ko‘ra hayot kechiradi.

Xuddi tinglash va tushunish o‘rtasida farq bo‘lganidek, ko‘rish va anglash o‘rtasida ham farq bor. Darhaqiqat, biz ko‘rgan narsalar ko‘pincha bizni chalg‘itishi mumkin. Ko‘rish har doim ham anglash degani emas. Ikkisi bir-biridan farq qiladigan narsalar va inson ko‘p hollarda bu farqqa yengiladi. Balki, biz ko‘rgan narsalarimiz haqida darrov hukm chiqarib, oxirgi xulosaga kelishning o‘rniga xotirjam bo‘lib, tushunishga harakat qilganimizda hammasi boshqacha bo‘lar edi. Keling, sizga mavzuga doir bir hikoyani aytib beraman.

Tunni o‘tkazish uchun ikki sarson farishta juda badavlat bir oilaning eshigini taqillatibdi. Oila ahli mehmondo‘stlik ko‘rsatishning o‘rniga bu ikki farishtaga qo‘pol munosabatda bo‘lishibdi va ularga katta mehmonxonalarining biridan joy berishning o‘rniga yerto‘ladagi zax yerni ko‘rsatishibdi. Farishtalar ushbu zax yerda yotish uchun joy hozirlashayotganda keksa farishta devorda teshik borligini payqab qolibdi va darrov o‘rnidan turib, teshikni yamashga kirishibdi.

Yosh farishta hayratini yashirolmay, keksa farishtadan bu xatti-harakatining sababini so‘rabdi. Keksa farishta xiyol tabassum qilgancha javob beribdi: «Hamma narsa har doim ham ko‘ringandek emas...» Tong otgach, tunab qolgan uylarini tark etgan sarson farishtalar bu safar tunda yana bir boshpana topish uchun juda kambag‘al bo‘lgan dehqon oilasining eshigini taqillatibdi.

Bu oila nihoyatda mehmondo‘s, kamtar va juda yaxshi odamlar ekan. O‘sha kuni ular dasturxonida nima bo‘lsa, kulbalariga mehmon bo‘lib kelgan farishtalar bilan bo‘lishishibdi va ularga uqlashlari uchun o‘z yotoqlarini berishibdi. Tong otgach, farishtalar er va xotinning ko‘zyosh to‘kib o‘tirganining ustidan chiqishibdi. Ular ne ko‘z bilan ko‘rsinki, kambag‘al oilaning yagona daromad manbayi bo‘lgan sigir dala o‘rtasida jonsiz yotardi.

Bu voqeadan g‘azablangan yosh farishta keksa farishtaga qarab baqira boshlabdi: «Bunga qanday yo‘l qo‘yding? O‘sha boy va xasis oilaning hamma narsasi bor edi. Shunga qaramay, sen ularga yordam berding. Ularning uyidagi devoni ta‘mirlading. Bu kambag‘al va oqko‘ngil oilaning o‘sha sigerdan boshqa hech narsasi yo‘q edi. Lekin shunga qaramay, ular biz bilan bor-budlarini baham ko‘rishdi, sen esa o‘sha sigirni yo‘qotishlariga yo‘l qo‘yding!»

Keksa farishta xotirjam tarzda yosh farishtaga yuzlanibdi va shunday javob beribdi: «Hamma narsa har doim ham ko'ringandek emas. Biz o'sha badavlat oilaning uyining yerto'lasida qolgan tunimiz devordagi teshikda quyma oltin borligini ko'rdim. Uy egalari shunchalik ochko'z, shunchalik xasis bo'lgani uchun va o'zlariga berilgan omad tufayli orttirgan boyligidan ozgina bo'lsa ham bo'lishishni istamagani uchun men ham o'sha teshikni shunday yamab qo'ydimki, endi ular hatto harakat qilishsa ham, uni topolmaydi. Va kuni kecha biz dehqon oilasining to'shabida uxlар ekanmiz, o'lim farishtasi o'sha dehqonning xotinining jonini olishga kelgанини ko'rdim. Uning o'rniga o'lim farishasiga sigirni berdim».

Keksa farishta xiyol tabassum bilan qo'shib qo'ydi: «Hamma narsa har doim ham ko'ringanidek bo'lavermaydi. Ba'zan ishlarimiz chappasiga ketganda biz nolishni boshlaymiz. Lekin agarda har bir ishning xayri borligiga ishonadigan bo'lsak, shuning o'zi kifoya. Ba'zi insonlar hayotimizga kiradi va tezda chiqib ketishadi. Ammo bu bizning foydamizga bo'lganini ma'lum vaqtdan keyin tushunib yetamiz. Kechagi kun tarix. Er-tangi kun mavhum. Bugungi kun esa tuhfadir. Biz har daqiqa dan zavq olishimiz va bizga berilgan har bir lahza uchun shukr qilishimiz kerak».

## *Inson doim yutqazadimi?*

Sizningcha, bir inson doimo yo'qotishi, uning hayotida yaqinlaridan boshqa hech narsa ko'ngildagidek bo'lmasligi, hech qachon baxt uning eshigini taqillatib kelmasligi, ishonganlari orqasidan pichoq urishi, sevganlari qalbini sindirishi yoki qadrlaganlari tomonidan qadrsizlanishi mumkinmi?

O'zim javob bera qolay: ha, mumkin. Inson biror narsani yo'qotmaslik uchun doimo bir tomonlama harakat qilsa, yutqazadi. Ba'zi odamlarni hayotining markaziga qo'yib, o'zini unutsa, yutqazadi. Haqiqatni bilgan holda yolg'on bilan o'zini ovutsa, yutqazadi. Doim haq bo'la turib, birinchi bo'lib kechirim so'raydigan darajada sevsu, yutqazadi. O'rnini boshqa birov egallaganini ko'rsa-da, sevishda davom etsa, yutqazadi. O'z ma'nosini yo'qotgan narsalarni qaytarishga harakat qilsa, yutqazadi. Kimlardir ranjimasligi uchun o'zini qalqon qilsa, yutqazadi. Ketmoqchi bo'lgan odamni ushlab qolishga harakat qilsa, yutqazadi. Yolg'iz o'zi ko'tara olmaydigan yuklarni gordaniga ortishga urinsa, yutqazadi. Agar u o'ziga berishi kerak bo'lgan qiymatni boshqalarga bersa, yutqazadi.

Yo'qotish – bu yaxshi odamlarning qismatidir. Bu bizning asrimizning xastaligi; sevilgan tark etadi, qalbini garovga qo'yib sevgan odam esa boy beradi.

**Yutqazganingizda dardga taslim bo'lman.**  
**Har bir yo'qotishning bir foydasi bor, unutmang.**

*Sizning magsadiningiz chiroylisini sevish emas,  
chiroyli sevish bo'sin*

Ayolni go'zalligi uchun sevadigan erkaklar bor. Kechirasiz, erkak dedim, erkak jinsiga mansub bo'lganlar bor. Ko'zлari chiroyli bo'lsin, beli xipcha bo'lsin, burni kichkina bo'lsin, sochi jingalak bo'lsin deb, go'yo bozordan pomidor terayotgandek saralab, tashqi ko'rinishiga qarab birovni hayotiga kiritishga urinadiganlar bor. Men odamlarga tashqi ko'rinishiga qarab muomala qilishdek xunuk narsani bilmayman. Qanday ko'rкam ayollarni ko'rdim, qalbi qop-qora edi. Xunuk deb hisoblangan ayollarning esa qalbida moychechaklar o'sardi. Ayol jismi go'zal bo'lgani uchun sevilmaydi, mehr-muhabbatga to'la qalbi bo'lgani uchun seviladi. Ayolni beli xipcha bo'lgani uchun emas, choyni yaxshi damlagani uchun sevishadi. Ayol qoshlari kamon bo'lgani uchun sevilmaydi, hammaga bir xil munosabatda bo'lgan holda senga boshqacha va iliq munosabatda bo'lgani uchun seviladi.

Eng kichkina sabab bilan sen tugatgan narsalarni u qayta tiklagani uchun seviladi. Ayol sabri uchun seviladi. Ayoln qomati go'zal bo'lgani uchun sevishning o'rniga ota mehrisi ulg'aygani uchun, armon bo'lib qolgan bolaligi uchun seving. Otasi chala qoldirib ketgan yerdan seving. Ishoning, bularning barchasini qilsangizgina erkak emas, haqiqiy erkak hisoblanasiz.

**Ayol sevgisi erkaklardagi mardlikni  
ko'rgan joyidan boshlanadi.**

## *O'zimga va'da beraman*

Men o'zimga so'z beraman: bundan keyin menga o'zimni qadrsiz his qildirgan hech qayerda va hech kim bilan qolmayman. O'zimga so'z beraman: yaqinim deb qabul qilganlarim menga ko'chadagi o'tkinchidek muomala qilsa, ularni kiprik ham qoqmay hayotimdan chiqaraman. O'zimga so'z beraman: kim meni qanchalik qadrlasa va hurmat qilsa, men ham xuddi shunday javob qaytaraman. O'zimga so'z beraman: ketmoqchi bo'lganlarga qol demayman. O'zimga so'z beraman: menga bo'lgan sevgisini his qildirmagan odamga sevgimni ko'rsatmayman. O'zimga so'z beraman: uni unutishim uchun qo'lidan kelganini qilgan odamni eslashga urinmayman. O'zimga so'z beraman: ba'zi narsalarni saqlab qolish uchun yolg'iz o'zim kurashmayman.

Endi faqat o'zimga va'da beraman. Bundan buyon faqat o'zimni qadrlayman, chunki men o'zimdan qadrliroq odamni ko'rmayapman. Endi u davrlar ortda qoldi. Men uchun qadrli odamlar o'zgargan va endi hech narsaga arzimaydi, buni juda yaxshi bilaman. Shuning uchun bundan buyon faqat o'zimni sevaman.

**Sevgi bilan ham o'zgarmagan odamni ko'rgan zahotim undan uzoqlashaman. Chunki bunday turdag'i odamlar menga eng ko'p zarar yetkazishini bilaman.**

## *Qulog sol, ammo ishonma*

O‘tmishingga bir nazar tashla-chi, «Men hech qachon ketmayman», deganlarning qaysi biri hozir yoningda? Ayt-chi, shu paytgacha «Endi hech kimga ishonmayman», deb necha marta qasamingni buzzing? Yiqilganingda «Men doim sen bilanman», deganlarning qaysi biri senga qo‘l cho‘zdi? Har safar o‘z kuchingga tayangan holda o‘rningdan turmadingmi? Turding. Har safar o‘zingdan ham kattaroq og‘riqlarni yelkangga ortib olmadingmi? Ichidan omon chiqa olmayman degan barcha qiyin vaziyatlarga yolg‘iz o‘zing ko‘ksingni kermadingmi? Bu nima bo‘libdi? Bu sening birinchi bor yiqilishing yoki birinchi marta sinishing emas.

«O‘tib ketmaydi», dema, «O‘tib ketmaydi», deganlaring o‘tib ketganidek, bu ham o‘tadi. Endi o‘rningdan tur. Senga o‘zingdan boshqa hech kim yordam bera olmaydi, bir o‘zing ham davom etishing mumkin. «Men sen bilanman», deganlar ham bo‘ldi, lekin boshingga tushgan og‘ir kunlarni sen bir o‘zing yengib o‘tding. Yig‘lading va ko‘z yoshlaringni o‘zing artding. Buni unutma.

**«Men yoningdaman», deydiganlar bo‘ladi.  
Qulog sol, ammo ishonma.**

*«Ahvoling qanday?» degan savolga «Yaxshiman», deb javob berishimga qaramay, yaxshi emasligimni his qiladigan insonlarga ehtiyojim bor...*

## Ko'nglingni xotirjam qil

Ba'zida tushkunlikka tushaman. Hayotda yashashga bo'lgan qiziqishim so'nib qoladi. Hammadan va barcha narsadan umidimni uzaman. Qisqa vaqt davomida tarki dunyo qilaman. Ammo bir qancha vaqt o'tgach, o'zimga va hayotimga nisbatanadolatsizlik qilganimni tushunaman.

Hatto bir qadam tashlashga ham madorim qolmagani ni his qilgan paytlarim Mavlono Rumiyning ushbu tasalli beruvchi so'zlarini eslayman: «*Seni eng yaxshi biladigan Allohdir. Qolganlar yo yanglish anglaydi, yo sen to'g'ringda kamroq biladi. Seni baxtsiz qilganlar sababidan baxtsiz bo'lma, baxtiyor bo'ladi-gan zamonining ham keladi. Seni baxtsiz qilgan kimsalar tufayli barchani ular kabi deb o'ylama, seni baxtli qiladigan insonlar ham keladi. «Bugun dardim ko'p», dema, dardni bergen Alloh shifo beradigan kun keladi. Sen Robbingga duo qil. Duo qilsam, nima bo'ladi dema, duong qabul bo'ladigan kun keladi».*

Siz ham qiyinchilikka duch kelganingizda, qadam tashlashga ham madoringiz qolmagan damlarda Mavlononing yuqoridagi so'zlarini eslang, ishonaman, bu sizga ham yordam beradi.

Ko'nglingizni xotirjam qiling, qolganini hal qilsa bo'ladi.

**Qachon dunyo ko'zingga tor ko'rinsa, umidsizlikka  
tushsang, Allohnini esla. U sen bilan.**

## *Men seni, sen bizni yoqotding*

Menga doim meni sevishingni aytarding, lekin bu munosabatlar davom etishi uchun harakat qilgan, bor-yo‘g‘ini ayamagan va uni saqlab qolish uchun kurashgan domo men edim. Ishq vaqtinchalik ko‘rlik edi. Va men senga oshiq bo‘lib, sendan boshqa hech narsani ko‘rmadim. Lekin Xudo guvoh, meni sevishingni uzoq kutdim. Sen uchun va bu munosabatlar uchun nimaiki qilgan bo‘lsam, bir chetga surib tur. Umuman, hamma-hammasini bir chetga sur. Meni sevishingni uzoq kutdim. Shuni unutma... Juda ham uzoq kutdim. Ammo sevmading. Sevilaman degan o‘y bilan sen tomon bosgan har qadamimda sevilmaganimni qon-qonimgacha his qildim. Dimog‘dorlik bo‘yicha senga yetadigani yo‘q, sen bu odatingni yoqtirasan. Men sendan boshqa hech narsani ko‘rmas ekanman, sen meni ko‘rmaslikka olding. Sen meni «Yaxshiyam hayotimga kirib kelding», deyishning o‘rniga «Qaniydi seni tanimaganimda», deyishga majbur qilding. Bundan keyin kimning yoniga borsang, boraver. Vijdoning buni senga doimo eslatib turadi: bizni sen tugatding.

**Hayotda ikki narsani unutib bo‘lmaydi:  
Birinchisi – sevilganiningni, ikkinchisi – sevilmaganiningni.  
Men ichida sen mavjud bo‘lgan hamma narsani sevdim,  
sen esa mendan boshqa hamma narsani sevarding.**

## *Men seni, sen bizni yoqotding*

Menga doim meni sevishingni aytarding, lekin bu munosabatlar davom etishi uchun harakat qilgan, bor-yo‘g‘ini ayamagan va uni saqlab qolish uchun kurashgan domo men edim. Ishq vaqtinchalik ko‘rlik edi. Va men senga oshiq bo‘lib, sendan boshqa hech narsani ko‘rmadim. Lekin Xudo guvoh, meni sevishingni uzoq kutdim. Sen uchun va bu munosabatlar uchun nimaiki qilgan bo‘lsam, bir chetga surib tur. Umuman, hamma-hammasini bir chetga sur. Meni sevishingni uzoq kutdim. Shuni unutma... Juda ham uzoq kutdim. Ammo sevmading. Sevilaman degan o‘y bilan sen tomon bosgan har qadamimda sevilmaganimni qon-qonimgacha his qildim. Dimog‘dorlik bo‘yicha senga yetadigani yo‘q, sen bu odatingni yoqtirasan. Men sendan boshqa hech narsani ko‘rmas ekanman, sen meni ko‘rmaslikka olding. Sen meni «Yaxshiyam hayotimga kirib kelding», deyishning o‘rniga «Qaniydi seni tanimaganimda», deyishga majbur qilding. Bundan keyin kimning yoniga borsang, boraver. Vijdoning buni senga doimo eslatib turadi: bizni sen tugatding.

**Hayotda ikki narsani unutib bo‘lmaydi:  
Birinchisi – sevilganiningni, ikkinchisi – sevilmaganiningni.  
Men ichida sen mavjud bo‘lgan hamma narsani sevdim,  
sen esa mendan boshqa hamma narsani sevarding.**

## **Shubha uyg'otgan hamma narsadan voz kech**

Barchamizga ma'lumki, zamonamizning eng katta muammosi – bu ishonch masalasidir. Shunday davrda har qanday xiyonat va vafosiz kimsalarga qaramasdan sen ishonadigan, suyanadigan va himoya qiladigan biror narsa bo'lsa, u sening qadringni bilishi kerak, chunki ishonch hissi bu hayotdagi eng katta boyliklardan biridir. Agar hech narsaga qaramasdan kimgadir yoki nimagadir hali ham ishonayotgan bo'lsang va u senda shubha uyg'otsa, u yerda bir lahza ham qolma.

Chunki agar seni shubha ostiga qo'ygan narsa haqiqat bo'lsa edi, u senda hech qachon shubha uyg'otmagan bo'ldi, buni unutma. Aniq va ravshan bo'lgan hamma narsa o'zini oshkor qiladi va sen buni his qilasan. Tubi ko'rinnmaydigan suvga oyog'ingni tiqma.

Seni o'ylantirgan va shubha ostiga qo'ygan har qanday narsadan voz kech. Hech kimga osonlikcha ishonib bo'lmasligini bila turib, senda shubha tug'dirgan narsalarga ko'z yumma. Mavlono aytganidek:

*«Sening borligingda qadrlamaganlarni yo'qliging bilan tarbiya qil».* Aniq bo'lman gan hech narsaga va hech kimga ishonish uchun harakat qilma.

**Qolgan bari bir tomon-u, meni  
eng ko'p mavhumlik qiynayotgani bir tomon.**

**Axir aytishadi-ku:**

**«Agar sabr tosh bo'lganida, allaqachon yorilib ketardi,  
lekin yurak kutadi».**

Men endi hech kimga ko'ngil qo'ya olmaydigan darajada hissiz, kimgadir ishona olmaydigan darajada umidsizman. Bu holatga tushishimga sababchi bo'lgan va hissiy inqirozga uchrashimga hissa qo'shganlarni Allohga havola qilaman. «Charchadim», desam, qorasini ham ko'rsatmaganlar o'zimga kelganimda yonimda paydo bo'lishini istamayman. Ishongan insonlarim ishonchimni poymol qilgani haqida o'ylasam, Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallamning quyidagi hadislari yodimga tushadi: «*Kimga ozor yetsa, sabr qilsin. Ozor bergenlar azob tortadigan kunni kutsin*». Illohiy adolatda hisob-kitoblar o'ta nozik, menga ozor bergenlar azob chekadigan kunlarni kutaman.

**Balki, menga nisbatan qilinganadolatsizliklarni  
kechirarman, lekin unutmayman.**

**Hazrat Mavlono Rumiy aytganidek:**

**«Bir kuni sen ochgan yaraning hisobini so'raydi  
Yaratgan...» Bunga ishonaman!**

**«Devordan boshqasiga etma orqangni omonat.  
Hatto vallomatining ham ichida bordir bir oz xiyonat».**

Hech kimni sizni aldaganiga qaramay, «Qiziq, yana bir imkoniyat bersammikin?» deydigan darajada telbalarcha sevmang. Hech kim sizning o‘rningizga boshqalarni qo‘yib, keyin sizdan kechirim so‘rashga va yana bir imkoniyatga ega bo‘lishga loyiq emas. Hech kim bunga arzimaydi. O‘z vaqtida siz bergen imkoniyatni va ishonchni sariq chaqaga ilmay, sizning o‘rningizga boshqalarni qo‘ygan insonlarni siz ham kiprik qoqmasdan hayotingizdan o‘chiring. Siz hech kimning zaxirasi emassiz. Hayotida zarracha o‘rningiz bo‘lmagan insonlarni hayotingizning markaziga qo‘yishingiz shart emas. Aldagan, ozor bergen va ko‘ngil qolganidan keyin kechirim so‘rashga harakat qiladigan va ikkinchi imkoniyat so‘raydigan insonlarning eng yoqtirgan narsasi sinishini bilib turib stakanni yerga uloqtirish, keyin undan suv ichishga harakat qilishdir. Ular bu o‘yinni juda yaxshi ko‘radilar. Hech kimga bila turib qilgan xatolari uchun kechirim so‘rash imkoniyatini bermang. Men har doim aytaman, ishonch bir martalikdir. Bu qoidani buzganlarni kechirmang. Insonning o‘z-o‘zini hurmat qilish tuyg‘usi birinchi o‘rinda turadi. Uni yo‘qotmang.

**Turgenev aytganidek: «Shunday vaqt keladiki,  
ba’zi yo‘llarning qaytishi, ba’zi xatolarning uzri,  
ba’zi insonlarning ma’nosi bo‘lmaydi!»**

## *Kurashmaydiganlar uchun voz kechish oson*

Xo'sh, nega bizni sevmaydilar? Biz shunchalik sevilishga arzimaydigan darajada ko'rimsiz yoki yoqimsizmizmi? Aksincha, bizning sevishga arzigulik go'zal qalbimiz bor. U holda, nega bizni sevmaydilar? Yoki ular yuraksizmi? Yo biz sevilishga loyiq emasmizmi? Biz noto'g'ri odamlarga ular loyiq bo'lмаган qadr-qimmatni beramiz. Sevishni bilmaydigan odamlardan sevgi-muhabbat kutamiz. Keyin-chi? Har doimgidek eng ko'p azob chekkan yana o'zimiz bo'lamiz.

Biz o'z zimmamizga yuklatilganidan ko'prog'ini qildik. Kurashdik. Harakat qildik. Qadrladik. Sevishimizni his qildirdik. Xo'sh, nega faqat biz yo'qotdik? Chunki kurashgan faqat biz edik. Sevgimizni asrab qolishga uringan faqat biz edik. Puch xayollarga berildik, umidlar qildik. Sevgi nimaligini bilmaydigan qalblardan ulkan muhabbatni kutdik. Biz osonlik bilan voz kecha olmadik, chunki biz sevgimiz uchun katta kuch sarflagan edik.

*Xonanda Sila o'zining qo'shiqlaridan birida shunday  
deydi: «Bilasanmi nega osonlikcha keta olmayman?»*

*Chunki katta kuch sarflagan  
narsangdan voz kechish og'ir».*

## Qolganini u o'ylasin

Sen qo'lingdan kelganini qilding. Ehtimol, ilgari hech kim u uchun bunchalik harakat qilmagandir, sen harakat qilding. Sen bu borada u uchun birinchisisan. Tabiiyki, u buni ko'tara olmadi. Aslida, u haq. Ilgari u sira senga o'xshagan odamni uchratmagan. Uni ham to'g'ri tushun. Sendek sevadigan, qadrlaydigan va tinmay kurashadigan inson hayotiga to'satdan kirib, uni dovdiratib qo'ydi. Lekin bu holatdan sira tashvishlanma.

Bu holat Najib Fozil Qisakurakning: «Sen shu qadar sevki, tashlab ketgan yor uyalsin», degan so'zlarini eslatdi. Gapning qisqasi, sen shu qadar sevdingki, u buni ko'tara olmadi. Vijdoning xotirjam bo'lsin. Qolgani haqida sen emas, u o'ylasin. Sen emas, u yo'qotganiga afsuslansin. Shu o'rinda Shams Tabriziyning bir gapini eslatib o'tmoqchiman:

*«Men shuni tushundimki, odamlar indamaganlarni qo'rqaq, ko'z yumganlarni ahmoq, kechirishni bilganlarni esa to'rvadagi kaklik deb o'laydi. Vaholanki, ular biz istaganimiz uchun hayotimizda borlar».*

**Sen sevding, u esa buni ko'tara olmadi.**

**Bu sening emas, uning aybi.**

## *Sen fagat o‘zingga keraksan*

Masala oddiy. Kim senga qanday munosabatda bo‘lsa, sen ham unga shunday munosabatda bo‘l. Agar shu tufayli nimadir tugaydigan bo‘lsa, tugasin. Kerak bo‘lsa, «O‘zgarib-san», deyishsin, «Xudbin», deyishsin. Ishon, ular sendan avvalgidek foydalana olmaganlarida shunday deyishadi. Ularga qulq solma. Sen bu hayotga boshqalarni rozi qilish uchun kelmagansan. Hech kimning orqasini yig‘ishtirish uchun ham kelmagansan. Bu uch kunlik dunyoda boshqalarga quvonch ulashib, senga kelganda qovog‘idan qor yog‘adiganlar uchun joningni jabborga berish uchun ham kelmagansan. Bilib qo‘y, har kim o‘z foydasiga qarab harakat qiladi va har kim o‘z manfaati tugagunicha sening yoningda bo‘ladi. Unutma, manfaatlari tugaganlarning sevgisi ham tugaydigan bu davrda kerak bo‘lsa, yolg‘iz qol, lekin hech kimga bo‘yin egib borma. Hech kim o‘zidan boshqa hech narsani o‘ylamaydigan bu hayotda sen boshqalarning xohishi yoki tuyg‘ulari bilan kurashishga majbur emassan. Kim nimani eksa, shuni o‘radi. Sen birovga emas, eng ko‘p o‘zingga keraksan.

**Hech kim meni sevmaydi, deb o‘kinma.**

**Seni o‘zingdan boshqa hech kim seva olmaydi.**

## *O'zingizni kamsitmang*

Inson nafaqat kuchi va qobiliyatları, balki kamchiliklari, nuqsonları va zaif tomonları bilan ham bir butundir. Hech birimiz mukammal emasmiz. Hammamizning ijobjiy va salbiy tomonlarimiz, kamchilik va xatolarimiz bor. Eng muhimi, o'zimizni borimizcha qabul qilishimizdir.

O'zingizda qandaydir xato yoki aybni ko'rsangiz, o'zingizga jahl qilmang, o'zingizdan uzoqlashmang. O'zingizni boringizcha qabul qiling, chunki qabul qilish chiroyli tarzda davolash va shifo usulidir. Qabul qilishni odat qilganingizda o'zingizni ko'proq baxtli va xotirjam his qilasiz.

Aslida, biz hammamiz darz ketgan chelaklarmiz. Hindistonda bir xizmatkor yigit bo'yniga osgan tayoqning ikki uchiga ikkita katta chelak bilan suv tashir ekan. Chelaklardan birining yorilgan joyi bor ekan. Suv to'ldirilgan butun chelakdan daryodan uygacha bo'lgan uzun yo'l davomida umuman suv to'kilmas, darz ketgan chelakda esa suv yarimlab qolarkan. Bu holat ancha vaqtgacha davom etibdi.

Xizmatkor yigit har safar xo'jayininining uyiga bir yarim chelak suv olib borishga muvaffaq bo'larkan. Butun chelak o'zining muvaffaqiyati va mustahkamligi bilan faxrlansa, darz ketgan chelak o'z vazifasining faqat yarmini bajarayotganidan uyalarkan. Shu yo'sinda oradan ikki yil o'tibdi.

## *Mirach Chag'ri Oqtosh / O'zingga xush kelding*

Kunlarning birida daryoning bo'yida darz ketgan chelak xizmatkor yigitga qarab shunday debdi:

– Men o'zimdan uyalaman, buning uchun sendan kechirim so'ramoqchiman.

– Nima uchun? – so'rabdi yigit. – Nimadan uyalasan?

Yoriq chelak javob beribdi:

– Ikki yildan beri yorig'imdan suv sizib chiqqani bois vazifamning yarminigina bajara olaman, xolos. Mening aybim tufayli sen shuncha mehnat qilsang ham, mehnatingga yarasha mukofot ololmaysan.

Xizmatkor jilmaygancha darz ketgan chelakka javob beribdi:

– Xo'jayinning uyiga qaytayotganimizda yo'l chetidagi gullarga e'tibor berishingni istardim.

Yoriq chelak xo'jayinning uyi tomon eltadigan yo'l chekkasida quyosh nuriga intilib bo'y cho'zgan bir qator turfa xil gullarni ko'z oldiga keltirdi. O'sha gullar uning ham e'tiborini tortganini va ularni juda yoqtirib qolganini esladi; lekin yo'l oxirida yana suvining yarmini yo'qotganiga achnib, xizmatkor yigitdan yana uzr so'radi...

Yigit chelakka bir zum tikilib qaragancha so'radi:

– Yo'lning faqat sen tomonida gullar borligini va narigi mustahkam chelakning tomonida hech qanday gul yo'qligini payqaganmisan? Buning sababi men sening qusuringni bilishim va undan juda yaxshi foydalanishimda... Yo'lning sen tomonga to'g'ri keladigan qismiga gul urug'laridan ekdim va

har kuni daryodan qaytarkanmiz, sen ularni sug'ording. Ikki yildan beri men o'sha go'zal gullardan terib, xo'jayinning das-turxonini bezamoqdamon. Agar sening bunday kamchililing bo'l maganida, ular o'z uyida bunday go'zallikni ko'rib, dillari yayramasdi.

Darhaqiqat, biz hammamiz yoriq chelaklarmiz. Hammamizning o'z kamchiliklarimiz bor. Kamchiliklarimiz tufayli o'zimizdan g'azablanib yoki o'zimizdan yuz o'girishning o'rniga biz ularni qabul qilishimiz va ulardan to'g'ri saboq chiqarishimiz kerak. Eng muhimi, o'zimizni past baholamasligimiz lozim. Boshqalarning ko'ziga kamchilikdek ko'ringan narsa, ehtimol, bizning mo'jizamizdir. Biz bunga shunday ko'z bilan qarashimiz darkor.

## *Men bunga arziyidigan nima qildim?*

Vaholanki, ichimda hech kimga nisbatan zarracha ham yomonlik yo‘q edi. Kimnidir xafa qilib qo‘yishdan, yo‘qotishdan va ozor yetkazishdan qo‘rqardim. Bu holat doim meni parishon qilsa-da, hech qachon odamlarni sevishdan to‘xtamasdim. Ular ham meni ranjitishdan, sindirishdan, holdan toydirishdan va pushaymon qilishdan sira to‘xtamasdi. Keyin qarshimdan sen chiqding. Tabassumingga mag‘lub bo‘ldim, hayotimga kirib kelding. Ko‘zlaringni sevdim. Lablaringdan men uchun to‘kilgan so‘zlaringni sevdim. Senga tegishli bo‘lgan hamma narsani o‘zimnikidek qabul qildim. Ishq hech narsaga qaramasdan hamma narsa uchun tayyor bo‘lishdir.

Men ham butun borlig‘imni xavf ostiga qo‘yib, senga ishondim. Undan keyin-chi? Menda senga tegishli nima bor bo‘lsa, hammasini birma-bir yo‘qqa chiqarding. Men uchun hammadan ham yaqin eding, ammo o‘zingni begonaga aylantirding. Seni baxtli ko‘rish uchun o‘zimni o‘qqa-cho‘qqa urgan men edim, sen bo‘lsang hammasini barbod qilding. Keyin tushundimki, ba’zida sevgining o‘zi kamlik qilar ekan. Men hammasini o‘z o‘rnida qilishga urinsam-da, ketadigan odam baribir ketarkan. Inson sevsam, sevilaman deb o‘ylar ekan, lekin hayotda eng ko‘p shu yerda xato qilarkan. Qan-

chalik sevsə, shunchalik sevilmas ekan. Endi men odamlar-  
ga bo‘lgan ishonchim va xayrixohligimni bir chetga surib  
qo‘ydim. O‘zimga shu savolni bermasdan turolmayman: men  
bunga arziydigan nima qildim?

**Meni «Men bunga loyiq emasdim», deyishga majbur qil-  
ganlarning, albatta, «Men bunga loyiq edim», deyishga  
majbur bo‘ladigan kunlari keladi.**

**«Qadrlamoq yo‘qotgandan keyin ko‘z yosh to‘kish emas,  
aksincha, yonidaligida mahkam quchishdir»,  
deydi Mavlono.**

Qanchalar o‘rinli aytilgan, shunday emasmi? O‘zimiz bila turib qilgan xatolarimiz oxirida faryod qilishdan yoki afsuslanishdan ma’no yo‘q. Biz odamlar ko‘pincha o‘zimizda bor narsani qadrlash va ularga e’tiborimizni qaratish o‘rniga shafqatsizlarcha harakat qilib, uni yo‘qotish uchun qo‘limizdan kelganini qilamiz. Pablo Nerudaning bu borada juda chiroyli bir gapi bor: «*Inson erisha olmagan narsalari dastidan jinni bo‘ladi, erishgan narsalari uchun esa noshukrlik qiladi*».

Umr qisqa, yaqinlarining qadriga yeting. Har bir daqiqadan zavqlaning. Yegan-ichganimiz, yaqinlarimiz bilan o‘tkazgan yaxshi kunlarimiz bu hayotdagi eng katta foydamizdir. Ertangi kunning rejasini tuzmasdan, shu lahzada yashang. Kelajakni o‘ylab yashayotgan hozirgi lahzaga nohaqlik qilmang. Kun kelib, ba’zi narsalar uchun juda kech bo‘lsa, keyin hech narsa qila olmaysiz. Shunday ekan, kimningdir orqasidan yig‘lashdan ko‘ra, yoningizda payti mahkam quchishga harakat qiling. Kibrga berilmang, ozor bermang. Kamroq gapiring, ko‘proq tinglang. Erishgan narsalaringiz va yoningizdagi insonlarni qadrlashni kechiktirmang.

**Siz ataylab sindirgan stakandan  
suv ichish istagi tugamaydi.**

*«Mendan uzoq bolsin, Misrga sulton bolsin»*

Duo qilamanki, Xudo hech kimni senga ruhan muh-toj qilmasin. Hech kimning yo'lini senga burib qo'ymasin. Men sendan yetarlicha jabr ko'rdim, boshqa hech kim jabr ko'rmasin. Sen odamlarni sevgani va ishongani uchun pu-shaymon qiladigan va burnidan buloq qilib chiqaradigan in-sonlar turidansan. Senga ishonib topshirilgan yurakni chil-parchin qilasan. Eng go'zal his-tuyg'ulariga quloq solib ya-shaydigan odamni toshyurakka va boshqa hech kimni seva olmaydigan hissiz odamga aylantirasan. O'zingni oqko'ngil inson qilib ko'rsatgan rollaring, hammasi yolg'on. Sen o'zing tasvirlagan odam emassan.

**Hatto sen qoldirgan og'riqlardan keyin ham yana sening yelkangga bosh qo'yib yig'lashni xohlaydigan darajada senga oshiqlarini o'zingdan itarding.**

## *Hech kimni qoralama*

Onam doimo «Hech kimni qoralama, sen qoralagan narsalaring bir kuni o'zingning dardingga aylanadi», derdilar. To'g'ri aytgan ekanlar. Inson ayrim narsalarni yashab ko'rmasa, bilmas ekan. Nimani qoralasang, o'sha narsalar birin-ketin boshingga tusharkan. Sizga maslahatim, hech kimni qoramang. Ayniqsa, kimningdir dil yarasiga sababchi bo'l mang. «Tig' yarasi bitar, dil yarasi bitmas» maqoli beziz aytilmagan. Biz aytayotgan so'zlar fikrlarimiz va his-tuyg'ularimizning ifodasidir. Og'zimizdan chiqayotgan gaplar haqida yaxshilab o'ylab ko'rishimiz kerak. So'zlarimiz qayerga borib tegishini, qanday ta'sir qilishini va qanchalik zarar yetkazishini taxmin qilib ko'rishimiz lozim. Dil yarasi jism yarasiga o'xshamaydi. Uni tuzatish ancha qiyin. Hech kimni o'zingizdan yuqori qo'y mang. Hech kimni qo'lingizda bor kuchqudrat bilan ezib tashlashga urinmang. Mazlum vaadolatsizlikka uchraganlarning yonida bo'ling.

**Qisqa qilib aytadigan bo'lsak, Rumi shunday deydi:  
«Agar qul bo'lsang, qulligingni bil, sulton bo'lishga  
urinma. Dengizni ko'rmay turib, kapitan bo'lishga  
intilma».**

## *Ayol ketadi, chunki...*

Ayol zoti ketish uchun sevmaydi va hech qanday sababsiz ketmaydi. Agar ayol erkakni tark etsa, buning bir qancha sabablari bo‘lishi mumkin. Agar ayol samimiyati va mehr-shafqatiga ishongan erkakni sevsa, u butun borlig‘ini baxshida qilib sevadi. U sevgan kishisi uchun qattiq kurashadi, lekin qolishi uchun hech qanday sabab yo‘qligini ko‘rsa, telbalarcha sevgan insonidan ham go‘yo hech qachon sevmagandek voz kechadi.

Ayol ketadi: qachonki u o‘z vaqtida qilgan harakatlaridan keyin ham biror narsa o‘zgarmaganini ko‘rsa. Ketish nuqtasiga kelgan ayol bu nuqtadan keyin ketishdan boshqa hech narsa qila olmayman, deb o‘ylaydi. Har bir navqiron ayolning ichida kichkina qizaloq yashaydi. Tashqaridan yetuk ko‘rinsalar-da, aslida ular yosh bolaga o‘xshaydi. Ayolning ichidagi kichkina qizaloqqa g‘amxo‘rlik qilmaslik – uning ketishi uchun yetarli sabablardan biridir.

Ayol sevmagani uchun emas, qachonki sevgisiga munosib javob ololmaganda ketadi. Hamma narsaga qarshi kurashgan, barcha to‘sislarni yenggan odami hech narsaga arzimasligini ko‘rgan zahoti o‘sha odam u uchun o‘lgan hisoblanadi.

## *Mirach Chag'ri Oqtosh / O'zingga xush kelding*

Bir ayol seva turib ham tark etishi mumkin. Balki, ketayotib yuragini o'zi bilan olib ketolmas, ammo aqlini olib ketadi. Sog'inadi, lekin sog'indim, deb aytolmaydi. Chunki unga hukmini o'tkazgan aqli bunga yo'l bermaydi.

Ayol ketadi: qachonki uning ko'zlariga ishq bilan termilmaganlarini his qilsa... Uni aldagalarini his qilsa... Aytganimdek, ketishga qaror qilgan ayolni to'xtata olmaysiz. Sevadi-ku, qayerga ham ketardi, deb o'ylamang, ketadi. Menden voz kecha olmaydi, deb o'ylamang, voz kecha oladi. Bu ham yetmagandek, ba'zilari ketadi va sochlarini kesadi.

Ayol ketadi va orqasidan Sezan Aksuning: «Men sening hayotingdan ketdim. Qani endi mendayini topa olsang, o'rninga qo'yib ko'r», degan qo'shig'i yangraydi.

**Eng muhimi, agar ayol ketsa, u orqasida qoldirgan hamma narsa uning uchun o'z ma'nosini yo'qotadi.**

## *Allohni esla*

Shunday kunlar bo‘ladiki, hatto o‘zingga ham malol kelasan. Olayotgan nafasing ham ba’zan o‘zingga og‘irlik qiladi. Hatto o‘z hayotingda o‘zingni ortiqcha his qilasan. Ba’zi vaqt-larda shunchaki vaqt o‘tishi va kun tugashi uchun yashaysan. Na yegan taomingda maza bo‘ladi, na ichgan suvingda tot. Nimapdir sodir bo‘ladi. Keyin yana nimalardir yuz beradi-yu, bir qarasang, hamma narsa ustma-ust kelyapti. Oxir-oqibat vaziyatning ichidan chiqa olmaydigan holatga kelasan. Ko‘ksingga shunday og‘riq joylashib oladiki, kunlab tarqamaydi. Birroz vaqt o‘tgach esa ko‘ksingdagi o‘sha og‘riq bilan yashashga ham o‘rganasan. O‘zingni shu qadar og‘ir va katta charchoq ichidan topasanki, kimdir tomon hatto bir qadam ham bosa olmaysan. Yuraging faqat qon haydashdan boshqa hech narsa qilmaydigan, his-tuyg‘ularing hech narsaga yaramaydigan bulutli tund kunlar boshing atrofida aylanib yuradi. Boradigan na biror joy, na biror kimsani topolasan. Gapiraman deysan-u, yana jim bo‘lasan. Bu safar o‘rnimdan turolmayman, o‘zimga kelolmayman, deb o‘ylaysan. Shunda birdan Allohni eslaysan va barcha qiyinchiliklaring sovun ko‘pigidek havoga singib ketadi. Yodingda bo‘lsin, bandasi: «Tugab bitdim», desa, Robbisi «Yetib keldim», deydi.

**«Albatta, ularning aytayotganlaridan sening diling  
siqilishini Biz yaxshi bilurmiz».**

(Hijr surasi, 97)

**«Va Robbing uchun sabr qil».** (Mudassir surasi, 7)

## *O'zingni ehtiyot qil*

Senga o'zingdan boshqa hech kim kerak emas. Eng yomon kuningni esla: «Men yoningdaman», deganlar ko'p edi, lekin o'sha og'ir kunlarda yolg'iz qolib ketmadingmi? Yiqilgan payting yana o'zingga suyanib, o'rningdan turma-dingmi? To'yib ketgan paytlaring yolg'iz yig'lamadingmi? Sendan so'rayapman, nomunosib odamlar uchun o'zingga nisbatan yetarlicha nohaqlik qilmadingmi? Odamlar keladi va ketadi. Qoladigani esa faqat sensan. O'zingga o'zing uchun g'amxo'rlik qil. O'zingni o'zing uchun ehtiyot qil. Hamma ketadi, sen qolasan. Yiqilsang, o'zing oyoqqa turasan. Yaralan-sang, yarangni o'zing davolaysan. Har doimgidek senga «Yon-ingdaman» deydiganlar bo'ladi va yana shuncha dardni bir o'zing yengib o'tasan. Kimdir seni quchib taskin berishiga ehtiyoj sezasan va atrofga boqasan. Tevarak atrofingda bunday kimsaga ko'zing tushmaydi, yana o'zingni bag'ringga bosasan. O'zingni ehtiyot qil. Senga hammadan ko'p o'zing keraksan.

**Alloh seni qadringga yetadiganlar  
bilan uchrashadirsin.**

## *Nega biz doim g'amginmiz?*

Chunki biz boshqalar umrining oxirigacha qabul qila olmaydigan narsalarni qabul qilamiz. Chunki biz yutib bo'lmaydigan marsalarni ichimizga yutamiz va buning ustiga, hazm qilamiz. Chunki biz kechirib bo'lmaydigan narsalarni kechiramiz, ishonib bo'lmaydigan odamlarga ishonamiz. Chunki biz qilgan yaxshiligidan, bergan mehr-muhabbatimiz, ishonchimiz evaziga qancha azob cheksak ham, odamlarga yo'q deya olmaymiz va bizga qilingan yomonliklarga qaramay, yaxshilik qilishdan voz kechmaymiz. Chunki biz hech qanday ma'noga ega bo'lmanan va hech qachon amalga oshmaydigan narsalarga katta umid bog'laymiz. Chunki biz befarq odamlardan e'tibor kutamiz va yuraksizlar uchun qalbimizni fido qilamiz. Chunki biz bizni yo'qotishdan qo'rqlmaydiganlarni yo'qotib qo'ymaslik uchun harakat qilamiz. Chunki biz ketmoqchi bo'lganlarni olib qolishga urinamiz. Chunki biz qalbimizni tilka-pora qilib, hech narsa bo'lmanandek davom etadiganlarni kechiramiz va ularning qilmishlarini odatdagidek qabul qilamiz.

Xo'sh, ular baxtdan sarxush ekan, nega biz doimo g'amginmiz? Bunga men javob beradigan bo'lsam, biz bu holatda qancha uzoq davom etsak, shuncha ko'p yo'qotamiz. Ular kundan-kunga gullab-yashnarkan, biz bo'lsa faqatgina o'zimizga ziyon qilamiz.

**Sizni sevib, nima bo'lishini ko'rdik.  
Bundan buyon biz faqat o'zimizni sevamiz.**

## *Tanishlarim kop, yaqinlarim yoq*

Men shu paytgacha kerakli va keraksiz bo'lgan ko'plab odamlarni tanidim. Ularning barchasi o'zlarining farqini, turini va darajasini o'zlari belgilab berishdi. Men hech kimga zarracha xalaqit bermadim. Ularning men haqimdag'i o'ylarini (haqiqat yo yolg'on bo'lsin) o'zgartirishga urinmadim. Hamma xohlaganini qildi. Hech kimga xohlagan ishini qilishiga to'sqinlik qilmadim. Kelishni xohlashsa, kelishdi. Ketishni xohlashsa, ketishdi. Men ularni shunchaki kuzatdim. Biroz vaqt o'tgach, ko'plab odamlarni tanishimni, lekin menda birorta yaqin do'st yo'qligini angladim. Og'zini to'ldirib katta gapiradigan, bajara olmaydigan va'dalar beradigan odamlarga qarasam, ularning nuqtachalik ahamiyati yo'qligini ko'raman. Shuning uchun menda tanishlar ko'p, ammo ularning ichida qalbimga yaqini yo'q. Zotan, mening hayotimda yolg'ondan «Men sen bilanman», deydiganlarga joy yo'q. Men ko'pdan buyon odamlarni va boshqa narsalarni o'z holiga tashlaganman. Hammasiga qo'l siltaganman.

**Bir vaqtlar seni yo'qotishdan qo'rqardim.  
Endi esa sen mensiz qolishdan qo'rq.**

## *Hammanni rozi qila olmaysan*

Sen hammaga birdek ulgura olmaysan. Nima qilsang ham, doim qandaydir norozilik yoki shikoyat bilan eshingga kelishadi. Boshqalarni mamnun qilish uchun o'zingni qiynama. Senga loyiq bo'limgan odamlarni o'z holiga qo'y, o'zing uchun yasha. Behuda harakat qilma. Qilayotgan ishlaringga munosib javob berishlarini qo'ya tur, vaqt kelsa, ular hatto senga rahmat ham aytishmaydi. Ular qadringni bilishmaydi. Har doim sendan ko'proq narsani xohlashadi, chunki ular noshukrdir. Aytmoqchimanki, seni yo'qotishdan qo'rqlaydigan, yordam berishning o'rniga maslahat beradigan, seni qadrlamaydigan va hech qanday ma'noga ega bo'limgan odamlar uchun kurashma. Ularni mamnun qilishga urinma. O'zingga nisbatan bunday adolatsizlik qilma. Kim senga nima bersa, sen ham unga shuni ber. Ortiqcha emas. Bu borada Uilyam Shekspir naqadar to'g'ri aytgan: «Odamlar bor, yomg'irni yaxshi ko'raman deydi, lekin yomg'ir yog'sa, soyabon ochadi. Odamlar bor, quyoshni yaxshi ko'raman deydi, soyaga qochadi. Shamolni yaxshi ko'raman deydi, derazasini yopadi».

O'zing ayt-chi, bevafo insonlarga fidokorlik qilishdan nima foyda?

**Shu o'rinda Hazrat Mavlononing so'zlarini eslatib o'tmoqchiman:** «Bekorga ovora bo'lma. Ular seni o'zları ko'rishni va eshitishni xohlagan darajada tushunadilar. Ularning ko'rganlari faqat ularning anglash doirasiga mos bo'ladi».

*Kelishing uchun yollar bor edi*

Mening o'tmishim kelganidan keyin xuddi hech qachon ketmaydigandek o'ziga o'rgatib, keyin g'oyib bo'lган odamlar bilan to'la. Kimga sevishimizni oshkor qilsak, ilk qadamdayoq orqasiga qaytib ketdi. Qalbimdagi umidsizlikni hech kim davolay olmadi. Men sevmaganlardan emas, o'zini go'yo sevadigandek ko'rsatganlardan ranjidim. «Ketmayman», deb, keyin birinchi qiladigan ishi tark etish bo'lган insonlardan ranjidim. Bilasanmi, sevgilim, yo'llar sening keting uchun emas, balki yonimga kelishing uchun edi. Sen esa doim ketgansan... Men qolganman. Azobda, hijronda, sening dardingda yonganman. Seva turib voz kechishni menga sen o'rgatding. Va yana hech kimga ishonmasligim kerakligini... Sevmasligim kerakligini.

**Bizni eng ko'п xafa qilgan narsa  
biz qadrlaydigan va ular sari intilgan odamlar  
tomonidan rad etilishimiz edi.**

## *Sevganiningchalik sevildingmi?*

Bir paytlar Jan Yujel: «Sevganiningcha sevilasan», degan edi. Siz sevgan insonlar sizni ham sevadimi, yo‘qmi, bilmadim-u, lekin men hech qachon sevganimchalik sevilmaganman. Sevganimcha sevilish u yoqda tursin, go‘yo sevgan insonlarimga yomonlik qilgandek, his qilgan tuyg‘ularimning evaziga doimo dard va sitam olganman. Vaholanki, men sevishdan boshqa narsa qilmagandim. Masalan, men hech qachon kimnidir yo‘qotishdan qo‘rqadigan darajada suyukli insoni bo‘lmadim. Doim yo‘qotishdan men qo‘rqardim va yo‘qotdim. Oshiq ham bo‘ldim. Ammo ko‘proq sevadigan tomon men edim. Shu paytgacha sevganichalik sevilgan odamni ko‘rmaganman.

Menimcha, bu dunyoda hech kim sevganichalik sevilmasa kerak. Har doim harakat qiladigan, jonini beradigan, sevadigan va kuyinadigan sen bo‘lasan. U nima ish qiladi? Hech narsa. Sen shunchalik harakat qilasanki, evaziga olgan narsang shunchaki bo‘sqliq bo‘ladi. Sen u uchun qushdek kichik yuragingga samolarcha tuyg‘ularni sig‘dirasan. U hech qachon buning qadrini bilmaydi. Inson hech qachon sevganichalik sevilmaydi.

**Oshiq bir yurak sevilmasa ham osonlikcha voz kechmaydi. Oshiqlikning eng asosiy qoidasi: oshiq hech qachon tark etmaydi, keta olmaydi.**

## **Peyami Safoning «Yaxshilar yo‘qotmaydi, yo‘qotiladi», degan gapi menga biroz taskin beradi.**

Meni sevmasang ham, buni tan olishni istamadim. Bizni har safar bog‘lagan joyimdan kesib tashlagan sen eding. Men qilgan barcha urinishlarga ko‘z uchida qaragan sen eding. G‘amgin bo‘lsang xafa bo‘ladigan, baxtingdan quvonadigan, muvaffaqiyating bilan faxrlanadigan odamni sariq chaqaga olmagan ham sen eding. Seni yonimga olib ko‘p marta gaplashdim. Gaplarimni tushungandek ko‘rinarding, ammo natija doim bir xil edi. Sen doim yo‘q eding. Shunga qaramay, men seni boringcha qabul qilgandim. Kelishingni, ketishingni, sevmasliging va manmanligingni... Hammasini. Biroz vaqt o‘tgach, bundan hech qanday natija chiqmayotganini ko‘rdim va harakat qilishni to‘xtatdim. Shu paytgacha hamma mas’uliyatni o‘z bo‘ynimga olganimni angladim. Ko‘rdimki, sen hech narsani ko‘rmayapsan. Keyin oxirgi nuqtani o‘zim qo‘yishga qaror qildim, lekin bundan xafa emasman. «Yaxshilar yo‘qotmaydi, yo‘qotiladi» jumlasidagi tasalliga o‘zimni topshirdim. Yo‘qotadigan hech narsam yo‘q. Sen meni yo‘qotding.

**Ishonch bilan o‘rtamizdagi muammoni  
hech kimga ishonmaslik yo‘li bilan  
hal qiladigan davrga keldim.**

**Menga tegmang, men endi yakkaman.**

**«Erkaklar go'zal ayollarni sevadilar,  
lekin ayollar o'zlari sevgan erkaklarni  
ko'r kam deb bilishadi».**

**Uilyam Golding**

Go'zallik nisbiy tushuncha ekanligini hammamiz bilamiz. Erkaklar har doim o'z hayotlariga olib kira digan ayollarini chiroyli bo'lishini xohlashadi. Lekin ular buning uchun, avvalo, ayolni chiroyli shaklda sevishlari kerakligini bilishmaydi. Ammo ayollar bunday emas. Ya'ni ular hissiyotga ko'proq ahamiyat berishadi.

Agar ayol bir erkakni sevsa, uning ko'ziga boshqa erkaklar ko'r inmaydi. Agar ayol bir erkakni sevsa, uning uchun dunyodagi eng ko'r kam erkak o'sha bo'ladi. Uilyam Golding juda to'g'ri gapirgan. Erkak sevar go'zal ayolni. Ayol esa erkakni go'zal sevadi. Unga barcha tuyg'ularini bag'ishlaydi.

**Ayollarni xafa qilmang.  
Keyin ular erkaklar faqat uyga pard  
ilishda kerak bo'ladi, deb o'ylab qolishadi.**

Tolstoy «Biz qanday qilib baxtli bo‘lamiz?» degan savolga «Bizda bor narsalardan sevinib, bizda yo‘q narsalar uchun kuyinmaslik orqali», deb javob beradi.

Hatto olayotgan nafasimiz omonat ekan, bizning bo‘lmagan narsalar uchun jonimizni azobga qo‘yamiz va qo‘limizda bor narsalarning qadrini bilmaymiz. Aslida, baxtga olib boradigan yo‘l bor narsaning qadrini bilish va shukr qilish sanaladi, lekin biz buni bilmaymiz. Shuncha o‘tgan vaqt davomida «Biz ham bir kun baxtli bo‘lamizmi?» degan savolni o‘zimizga berib yashadik. Yaxshilab o‘ylab qarasam, aslida baxt biz ega bo‘lishga intilayotgan narsada emas, balki biz ega bo‘lgan narsalarda ekan. Vladimir Nabokov baxtning formulasini quyidagicha ifodalaydi: *«Hamma narsaning eng yaxshisiga ega bo‘lgan emas, balki bor narsadan zavqlanib yashaydigan kishi baxtlidir»*. Darhaqiqat, Uilyam Shekspir esa baxtsizlikni quyidagicha ifodalaydi: «Senda yo‘q narsalarga erishishga intilar ekansan, o‘zing ega bo‘lgan narsalarni unutganing uchun baxtsizsan». Aslida baxtli yoki baxtsiz bo‘lish butunlay o‘z qo‘limizda. Ko‘rib turganingizdek, buning formasi juda oddiy. Biz ega bo‘lgan narsalarning qadrini bilib, bizga berilgan ne’matlarni unutmagan holda shukr qilamiz va bizga berilmagan narsalar uchun kuyinmaymiz. Bor-yo‘g‘i shu.

Mening bir kapalakning umricha davom etadigan  
oniy lahzalik baxtiyorliklarim bor.

## O‘zini havodagi kislorod deb hisoblaydigan insonlardan voz kechdim

Sizga hech qanday foydasi tegmaydigan, shunchaki atrofingizda o‘ralashib yurishdan nariga o‘ta olmaydigan odamlardan voz kecha biling. Ayting-chi, sizning baxtingizga ham, dardingizga ham sherik bo‘lImagen insonlarning hayotingizda o‘rni va ahamiyati qanday? Bunday odamlardan nima foyda? Hech qanday. Aksincha, bu bekor yuk. Hozir o‘tmishimga nazar solsam, hayotimga qanchalar befoya odamlarni kiritganimni ko‘raman. Menga hech bir nafi tegmagan, hech qanaqa yordam bermagan, umrimni behuda sarf qilishimga sababchi bo‘lgan, o‘zimni ulardan himoya qilishim kerak bo‘lgan va eng muhimi, men uchun hech qanday ma’noga ega bo‘lImagen odamlarning hayotimga kirishlariga izn bergenman. Ko‘pincha odamga u bilan birga bo‘lganida o‘zini xuddi uyidagidek qulay his qiladigan va uning yonida o‘zini kuchli his qilishga majbur bo‘lmaydigan inson kerak bo‘ladi, lekin men hozir bu kasallikdan qutuldim. Voz kechdim – o‘zini o‘ta muhim shaxs deb hisoblaydiganlardan... O‘zini havodagi kislorodman deb o‘ylaydiganlardan... Mantiqsiz kimsalardan... Va o‘sha keraksiz yukdan qutuldim.

**Qalbingizdagи sevgi chanqog‘ini  
sevishni biladigan yuraklar qondirsin.**

## Menga loyiq bo‘lмаганларни yo‘қотишдан qo‘рмайман

Faqat mening qurbanliklarim bilan davom etadigan munosabatlardan, yuzimga hatto «Hammasi tugadi», deyishga ham jur’ati yetmay ketganlardan va ularning ortida yomon niyat yashiringan soxta tabassumlardan charchadim. Men sevgidan boshqa hech narsani orzu qila olmaydigan, istasa ham, odamlarga yomon munosabatda bo‘lolmaydigan, qanchalik qimmatga tushmasin, o‘zim to‘g‘ri deb bilgan yo‘ldan og‘ishmaydigan insonman. Ha, tan olaman, endi odamlarni o‘zimga yaqinlashtira olmayman. Ularning menga nisbatan qilgan nohaqliklarini kechirolmayman. Hozir menda yolg‘izlik deb ataladigan devorlar bor. Tugallanmagan orzularim va tilimdan tushmaydigan duolarim bor. O‘zimni quchishni o‘rgangan kunitdan beri hech kimning g‘azabidan va xudbinligidan azob chekmayman. Menga loyiq bo‘lмаганларни yo‘қотишдан qo‘рмайман. Uzilgan rishtalarni bog‘lashga urinmayman. Kim o‘zini nimaga munosib ko‘rsa, o‘sha nar-saga ergashsin. Ko‘zi yo‘lda bo‘lganlarga qol deyish befoyda. Endi o‘zimni noloyiq odamlar uchun azobga qo‘ymayman. O‘zimga jabr qilmayman.

Men qadrlaganlarim tomonidan qadrsizlanishni, sevib, sevilmagan odam bo'lishni xohlamayman. Ehtimol, siz buni hissizlik dersiz, biroq men yolg'izlik deyman. Men ahvolimdan mamnunman. Amallarda aks etmagan va his qilinmagan sevgini boshdan kechirishdan ko'ra o'zimning yolg'izligimga g'arq bo'laman.

**Meni yo'qotishdan qo'rqlmaydiganlardan  
shunchaki voz kechaman.**

«Xudbinlik ko‘zlarga osilgan oynaga o‘xshaydi. Bu ko‘zlar qayerga qaramasin, o‘zidan boshqa hech kimni ko‘rmaydi».

### Hazrat Mavlono Rumiy

Har kimning o‘z yo‘li bor. Hammaning o‘zi suyanadigan va himoya qiladigan haqiqati mavjud. Hech kim bir lahzaga bo‘lsa ham boshqa odamni tushunishga harakat qilmaydi. Hamma nimanidir biladi va hech kim bundan ajablanmaydi. Kim nimani tushunishni xohlasa, shuni tushunadi. Kim nimani ko‘rishni istasa, shuni ko‘radi. Kim nimani eshitgisi kelsa, o‘sha narsaga qulq soladi. Muxtasar qilib aytganda, har kim o‘zi xohlaganicha harakat qiladi. Har kimning nog‘orasi bor, o‘z qo‘srigini kuylaydi. Ilgari ham o‘ziga, ham menga nisbatan zulm qilgan odamlarga qarshi jang ochgan edim. O‘zim haqiqat deb bilgan narsalarimni odamlarga tushuntirishga harakat qilardim. Odamlarga «U unday emas, bunday. Bu sen o‘ylagandek emas, aslida haqiqat boshqacha», deb bir narsalarni tushuntirmoqchi bo‘lar ekanman, aslida o‘zimga nisbatan nohaqlik qilganimni angladim. O‘shanda hech kimni o‘zi to‘g‘ri deb bilgan noto‘g‘ri qarorlaridan qaytarishga urinmasligim kerakligini tushundim. Birovlarga ba’zi narsalarni tushuntirishga urinar ekanman, tilimdagi so‘zlar uvol bo‘lganini, hammani o‘z holiga qo‘yishim kerakligini o‘sha paytda angladim. Men endi hech kimga hech narsani tushuntirishga harakat qilmayman. Har kim xohlaganicha yashasin. Hammani o‘z holiga tashladim.

## *Mirach Chag'ri Oqtosh / O'zingga xush kelding*

Hamma narsaga doim o'z nuqtayi nazaridan qaray-digan, birovni eshitmaydigan, tushunmaydigan, tushu-nishga harakat qilmaydigan, hech qachon o'ziga gard ham qo'ndirmaydigan, bitta fikrda turib oladigan, har doim o'zini haqman deb hisoblaydigan, uzr so'rash nimaligini bilmay-digan, muxtasar qilib aytganda, doim o'zini o'ylaydigan xud-bin odamlarga toqat qilolmayman. Men hech qachon bun-day turdag'i odamlarni yomon ko'rganim kabi boshqa hech narsani yomon ko'rmaganman. Bunday odamlarni hayoti-ningizga kiritish u yoqda tursin, siz uchun qurgan qalin devor-larini va noto'g'ri qarashlarini buzishga urinmang. Balki, ni-manidir tushunib qolar, degan fikr bilan o'zingizni aldamang. Ular tushunmaydilar. Anglamaydigan odamga nimani ham tushuntirish mumkin? Tushuntirmang. Barchasini ichingizga yuting. Hech bo'limganda «Tushuntirishga harakat qildim, lekin meni tushunishmadi», demaysiz.

**«Dunyo nozik qalblar uchun  
jahannamning o‘zginasidir».**  
**Gyote**

Men har doim his-tuyg‘ularga ergashadigan inson bo‘lganim uchun buning badalini doim og‘ir to‘laganman. Hayotimning har bir daqiqasida his-tuyg‘ularimga tayanib harakat qilardim. O‘zimdan tez-tez «Aqlmi yoki tuyg‘ularmi?» deb so‘rardim va hech qachon aqlni tanlamasdim. Yutqazib qo‘yishimni bilsam ham, har doim tuyg‘ularim tomonida edim. Shuning uchun men doim mag‘lub bo‘lardim; chunki his-tuyg‘ularimga ergashardim. Hech kimga yomonlikni ravo ko‘rmasdim. Kim tomon bormay, doim yaxshi niyat bilan borardim. Hammani o‘zim kabi deb o‘ylardim. Aynan shu yerda adashganimni his qildim.

Men barcha ezgu niyatlarimni odamlar tomon mehr bilan borgan yo‘lda sarfladim. Dunyo va odamlar nozik qalblar uchun olovli jahannam ekan. Buni ancha keyin angladim.

**Sabahattin Alining qanday go‘zal xulosasi bor:**  
**«Menga qanchalik yomonlik qilishsa ham, hech kimga  
hurmatsizlik qilmadim. Hatto o‘rtamizdagi munosabat-  
lar yaxshi bo‘lmasa ham, kimning menga ishi tushsa,  
o‘ylab ham o‘tirmay yordamga chopdim, lekin shunga  
guvoh bo‘ldimki, hurmat, sevgi va hatto mehr-shafqat  
bilan ham davolab bo‘lmaydigan insonlar bor ekan».**

## *Sen menga loyiq emassan*

«U senga loyiq emas», deganlarga o‘z vaqtida qulq solmaganim uchun hozir afsusdaman. Sen tufayli endi o‘sha odamlarning yuziga qaray olmayman. Bilasanmi, sen menga loyiq emasliging haqidagi gap-so‘zlarga bir men ishonmagan-dim. «Yo‘q», dedim, «Biz bir-birimizga munosibmiz», dedim. Nima qilsam ham, senga bo‘lgan sevgimga mag‘lub bo‘lganim va menga munosibsan deb o‘ylaganim uchun qildim. Qanchalik qalbim iztirob chekmasin, senga bo‘lgan ishqim bilan barcha dardlarimni davoladim. Menga munosib emasliging haqida gapirgan kimsalarning so‘zlariga qulqlarim kar edi. Hech kimni eshitmagan edim.

Men doim menga loyiq emasliging haqidagi haqiqat-dan qochib keldim. Qanchalik uzoqqa qochmayin, sen bu haqiqatni yonimga yetaklab kelding. Jonimni suyak-suyak-larimgacha qaqshatding. Seni sevgan yurakning uvoliga qol-ding. Seni qarg‘amayman. Shunchaki menga ko‘rsatgan kung-laringni o‘zing ham ko‘rishingni tilayman.

**Buni qarang-a, Nashod Ertosh mening dardimni  
qanchalik chiroyli ifodalagan ekan:  
«Men seni umrbod meniki bo‘ladi deb o‘yladim...»**

# *odam borki, doimo odamga muhtojdir*

Hayotning har bir qismi va har lahzasida inson doimo insonga kerakdir. Biz bir hayotni baham ko'ramiz, deyarli bir xil muammolar bilan kurashamiz va barchamiz ayni manzilning sayohatchilarimiz. Na bizning qilayotgan ishimiz, na egallab turgan lavozimimiz, na cho'ntagimizdagi pul miqdori ham bizni bir-birimizdan ajrata olmaydi. Shuning uchun hech kimga takabburlik qilmang. Hech kimga past nazar bilan qaramang. Pulingiz ko'p, moddiy ahvolingiz boshqalarnikiga qaraganda ancha yaxshi bo'lgani manmanlik qilib, o'zingizni go'yo hamma narsani yaratib qo'ygandek ko'rsatishingiz kerak, degani emas.

Muhsin Unlu jumlalaridan birida shunday deydi:  
*«Inson aslida ojiz va muhtojdir. Haddan tashqari rolga berilib, aktyorlik qilmasligi kerak».* Men sizlarga shu bilan bog'liq «Masnaviy»dan joy olgan bir hikoyani aytib bermoqchiman.

Kunlarning birida bir grammatik olim sayohat uchun kemaga o'tiradi. Bu odam o'zini haddan tashqari sevadigan odamlardan edi. U o'zidan boshqa hech kimni yoqtirmaydi. Shu payt u kemadagi dengizchini mensimay, unga past nazar bilan qaragancha shu savolni beradi:

- Sen hech grammatikani o'rganganmisan?  
 Dengizchi tabiiy ravishda butun hayotini dengizda o'tkazgani uchun u faqat kasbi bilan bog'liq ma'lumotlarga

ega. Unga bu kasbda foydasi tegmaydigan bilimning keragi ham yo'q.

– Yo'q. Mening bu sohadan bilimim yo'q, – deb javob beradi.

– Unday bo'lsa, – deydi olim, – sening yarim umring behuda o'tibdi.

Bu so'zlardan dengizchi juda qattiq xafa bo'ladi. Uning qalbi og'riydi. Garchi grammatik olim uni jaholatda ayblab, kamsitgan bo'lsa-da, dengizchi sukut saqlaydi va hech qanday javob qaytarmaydi.

Keyin, bir muncha vaqt o'tgach, shamol kemani gir-dobga tushiradi. Dengizchi izlagan imkoniyatiga ega bo'ladi. U olimga qarab, so'raydi:

– Suza olasizmi?

Bu savolga olim shunday javob beradi:

– Yo'q. Mening bu sohada ilmim yo'q.

– Unday bo'lsa, – deydi dengizchi, – sizning butun umringiz behuda ketdi. Chunki kema tez orada cho'kib ketadi. Qani, endi sizni o'sha grammatika bo'yicha bilimingiz qutqarsin, agar qutqara olsa...

## *Hech kim abadiy emas*

Agar bir inson sensiz ham o‘z hayotini davom ettirishga jur’at qila olsa, seni hech qachon tanimagan va bilmagan-dek kelajak sari qadam bosa olsa, sen ham usiz yashay olasan. Hech kimga motam tutishing shart emas. «Bu sen aytgan-chalik oson ish emas», dema, aks holda o‘ziga ziyon qilgan faqat sen bo‘lasan. Sensizlikka bemalol ko‘ngan kimsalarni hayotingdan chiqar. Ular uzgan rishtalarni qayta bog‘lashga urinma.

Qilishing kerak bo‘lmanan ishlarni kimdir uchun qiliшга majbur emassan. Qo‘yaver, kim qayerda baxtli bo‘lsa, o‘sha yerda qolsin. Ular boshqalar bilan davr-u davron surarkan, sen ular uchun kuyinib, umringni yelga sovurma.

Hech kimga ular loyiқ bo‘lganidan ko‘proq narsani berma. Yodingda bo‘lsin, agar ular sensiz yashay olsa, sen ham ularsiz yashay olasan. Hech kim o‘zini ajralmas bo‘lakdek hisoblamasligi kerak. Shunday nuqta borki, odam bo‘g‘zigacha to‘ladi va hatto o‘sha nuqtadan keyin o‘zidan ham voz kechadi. Buni hech kim unutmasligi kerak.

Frida Kalo shunday degan edi:

«Siz urinib tuzata olmagan  
narsangizdan voz kechish orqali qutulasiz».

*Seni men emas. vijdoning kechirsin*

Seni vijdoning kechirsin, deyman-u, lekin yo'q vijdondan qanday qilib kechirim so'rashingni va u seni qanday kechirishini bilmayman. Agar sen vijdonli odam bo'lganingga, seni bunchalik go'zal va benuqson sevadigan insonning ko'nglini qoldirmas eding. Uni yo'qotish va o'zingdan sovitish uchun bunchalik harakat qilmasding. Ranjitmasding, aldamasding, qiynamasding. Sen uchun hech qachon ahamiyati bo'lмаган narsalar men uchun juda muhim edi. Nega deysanmi? Chunki ularning ichida sen bor eding. Men ichida sen bo'lган hamma narsani sevardim. Buning evaziga esa doim nomunosib javob olardim. Yulduz Tilbe o'z qo'shig'ida aytganidek: «Voz kechdim, yona-yona... Seni sevishning badalini og'ir to'ladim...»

**Agar bir kun parishon bo'lsang, qalbingni sindirishsa  
yoki eng zaif joyingga zarba berishsa, meni esla.  
Chunki bunday kunlarni sen mening boshimga solgan-  
san. Men o'sha payti xayolingga kelaman.**

*Bir kun kelib hayotingga shunday  
inson kirib kelsinki...*

...o'tmishda chekkan barcha azoblaringni unuttirsin. Quvonching bilan birga dardlaringni ham sevsin. U senga yo'qotgan barcha umidlaringni qaytarib bersin. Sevganing-dan ko'ra ko'proq sevilganiningni his qildirsin. Sevganing va ishonganing uchun hech qachon pushaymon qildirmasin. Seni hech qachon tark etmasin.

Lekin aslo «Bunday odam yo'q», deya ko'rma. Yoddingda bo'lsin, gumoning qanday bo'lsa, senga o'sha narsa tortiq qilinadi va yana shuni unutmaki, sen umidlaring, ezgu niyatlarin va hech narsaga qaramay, o'zing to'g'ri deb bilgan yo'lidan og'ishmay qadam tashlapping bilan go'zalsan. Sabr qil va kut. Tez orada sabr-toqating evaziga kutganingdan va so'raganiningdan ziyodasini olasan. Kun kelib, bir paytlar dilingni xufton qilgan narsalarni eslab, «Shunga ham kuyinamanmi?» deb o'zingning ustingdan kulasan.

**Yon va sabr qil.**

**Hech kim seni eshitmasa ham,  
seni eshitadigan bir Zot bor.**

**Bir kun kelib sening kurtaklaring ham gullaydi.  
yetar, Unga ishon. Sabr qil, mo'jizalar hali oldinda.**

Oppoq varaqni tasavvur qil, o'sha sensan. Qo'lingda esa yozmaydigan qalam, bu esa odamlar. Ya'ni ba'zi odamlar yozmaydigan qalamga o'xshaydi. Sen u bilan qanchalik yozishga urinsang, shunchalik qog'ozga zarar yetkazasan. Ya'ni o'zingga.

Oppoq qog'ozga ma'nosiz izlarni qoldirishdan foya da yo'q. Yozgisi kelmagan qalamni tek qo'y, mayli, yozmasin. Nega endi go'zal hikoyalar yozishing mumkin bo'lgan qog'ozni yozishni istamagan qalamning bema'ni izlari bilan to'ldirishing kerak? Undan ko'ra qog'ozni bo'sh qoldirganing yaxshi emasmi? Vaqt kelganda sening hikoyang eng chiroyli qalam tomonidan eng chiroyli yozuv bilan yoziladi, sabr qil.

Yozmaydigan qalamning qopqog'ini yop va chiqindiga tashla. Uning joyi chiqindida ekanini bila turib, o'zingga zarar yetkazishga urinma. Hech kimning mavjudligini o'zingnidan muhimroq sanama. Sevgini majburlab uqtirib bo'lmaydi. U insonning ichida bo'ladi. Qalbida bo'ladi. Yuragida joyalashgan bo'ladi. Ammo bularning hech biriga ega bo'lмаган kishidan yordam kutma: chunki senga eng ko'p qalbi yo'q odam ozor berishi mumkin. Maylononing quyidagi so'zlar qulog'ingga sirg'a bo'lsin:

**«Jigarrang novdalardan pushti gullar ochilarkan,  
umidsizlikka hojat yo'q».**

## *Endi meni hattoki quchsang ham, menga ozor berasan*

Agar sevgi haqidagi tushunchang sen uchun qilgan harakatlarimni mensimaslik bo'lsa, iltimos, meni sevma. Agar sen sevgi deganda eng kichik muammoda eshik tomon yuzlanishni tushunsang, iltimos, meni sevma. Agar sen sevgi deganda faqat sevgi izhor qilishni, amalgalarda esa buning aksini qilishni tushunsang, iltimos, meni sevma. Agar sen sevgi deganda mening ko'zlarimga dunyoni tor qilib, o'zing go'yo hech narsa bo'lmagandek yurishni tushunsang, iltimos, meni sevma. Agar sen sevgi deganda men bog'lamoqchi bo'lgan rishtalarini uzishga harakat qilishni tushunsang, iltimos, meni sevma. Agar sen sevgi deganda mening o'rninga boshqasini qo'yishni tushunsang, iltimos, meni sevma. Agar sen sevgi deganda men sen uchun kurashayotganimda men tomon bir qadam tashlashga og'rnishni his qilsang, iltimos, meni sevma.

Qancha urinmayin, hech narsa o'zgarmasligiga amin bo'ldim. Sen menga sevaman deysan-u, lekin yana eng katta balolarni o'zing boshimga solasan. Bilasanmi, endi meni hatto bag'ringga bossang ham menga ozor berasan...

**Kelma, yana yarim yo'lda tashlab ketasan.**

## *Sen mendan qimmatli emassan*

Men odamlarni daraxtning bargiga qiyoslayman. Daraxtni silkitmoqchi bo‘lganiningizda yoki shamolli ob-havoda ba’zi barglarning yerga to‘kilganini ko‘rasiz. Ana o’shalar kuchsiz insonlardir. Hayot og‘ir, odamlar esa bemehr. Buni hammamiz bilamiz, lekin bu biz taslim bo‘lishimiz kerak, degani emas. Biz har kimning oyoqlari ostida eziladiganchalik zaif emasmiz. Albatta, bo‘ronli kunlar bo‘ladi, lekin biz bardosh qilishni bilamiz. Uzilgan yaproqni bosib o‘tish oson bo‘ladi. Kuchli bo‘l. Agar zaif bo‘lsang ham, o‘zingni kuchli qilib ko‘rsat. Chunki ba’zilar sening zaifligingdan kuch oladi.

Bu biroz oddiy jumla bo‘lib tuyilishi mumkin, lekin bu hayotda hech narsa sendan ko‘ra qimmatli emas. Buni tushunish uchun yarim kechasi karavotning bir chetida o‘tirib, ko‘z yosh to‘kish shart emas. Yoki og‘riqni suyak-suyaklarin-gacha his qilishing va biror narsadan afsuslanishing ham shart emas. Odamlarning beparvoligini ko‘rishning o‘zi kifoya, deb o‘ylayman. Endi ko‘zlarining och. O‘zingni hammadan ko‘proq qadrlashing kerakligini tushunib ol. Ayt-chi, kim sening tashvishingni o‘z tashvishidek biladi? Kim og‘ir kuningda yoningda turyapti, dardingga sherik bo‘lyapti? Hatchiki baxtingga sherik bo‘ladigan kimsa yo‘q. Hayot davom etmoqda. Har bir insonning talpingan narsasi, bormoqchi

## *Mirach Chag'ri Oqtosh / O'zingga xush kelding*

bo'lgan manzili, erishmoqchi bo'lgan maqsadi bor. Shuncha to's-to'polonning ichida hech kim sening yoningga kelib, «Qani, gapir. Nima darding bor?» deb so'ramaydi. Hech kim sening tolesizligingga sherik bo'lmaydi. Hamma o'zini o'ylaydi. Sen ham o'zingni o'yla, chunki sen xafa bo'lsang, hech kim sendan ko'proq qayg'urmaydi. Peyami Safo aytganidek: «Baxtli bo'l, chunki sening g'amming hech kimni qiziqtirmaydi».

## *Har bir inson aldamchi*

Oldin men yaxshi tanigan va ishongan odamlar menga zarar yetkazmaydi, deb o'ylagan paytlarim bo'lgan. Bir paytlar o'zimning his-tuyg'ularimni, fikrlarimni va yuragimni taniganim uchungina menga zarar yetkazmaydi degan odamlarga ishonib topshirgandim. Endi vaziyat o'zgardi. Nega deb so'rayapsizmi? Odamlar hamma narsaga shu qadar oson, oqibati haqida bir soniya ham o'ylamay qo'l urishlariga guvoh bo'ldim va ko'zim ochildi. «U bunday ish qilmaydi», deb kimning nomini oqlagan bo'lsam, hammasi o'sha ishni qildi. «Undan menga balo kelmaydi», deganlarimdan eng katta balo keldi. Meni eng ko'p taniyman deb o'ylagan odamlarim aldashdi va men ishongan kimsalar menga eng katta saboqni berishdi. Shuning uchun hozir men uchun tanish va notanishlar o'rtasida biron bir farq yo'q. Mening nazarimda hamma bir xil...

**Kichik Iskandarning so'zlariga qulqoq tuting:  
«Hech qachon «Men uni juda yaxshi bilaman»  
demasligimiz kerak. Chunki har bir inson aldamchi».**

«O'tmish changdir, puflab yubor, uchib ketsin». Stefano D'Anna

Bilasanmi, azizim, hayot juda qisqa. Sen esa uch kunlik dunyoning ikki kunini o'tmishni o'ylash bilan o'tkazasan. Ko'rgan-kechirganlaringni eslaysan. Mantiqsiz voqealar va odamlarni o'ylash bilan o'zingni holdan toydirasan. Bunday qilma. «O'tmishingni unut», deb ayta olmayman, lekin eslama. Bilaman, hozir «Bu sen o'ylaganchalik oson emas» demoqchisan. Xo'sh, unda o'tmish haqida o'ylab, yashashni unutgan bugungi kuningni kim senga qaytarib beradi? Hech kim. Shuning uchun o'zingga va bugungi kuningga nisbatanadolatsizlik qilma. Atrofingga qara, hamma shod-u xurram o'z yo'lida davom etmoqda. Kechagi kunni o'ylama, u qaytib kelmaydi. Bugun va ertangi kunga diqqatingni qarat. Ularni mahkam bag'ringga bos. Aks holda yillar o'tib, nega bunday qilmaganingga pushaymon bo'lasan. Nega umringni behuda o'tkazishing kerak? Nega endi hozir emas, yillar o'tib nimalarnidir anglashing kerak? O'tmish haqida o'ylash o'rniga, yashayotgan hozirgi oning qadrini bilishing lozim. Chunki bu dunyoga yana qayta kelmaysan.

Murodxon Munganning menga xush yoqdigan bir gapi  
bor: «Agar tinmay o'tmishga qayrilib qarayversang,  
bo'yning og'riydi».

## *Hech kimdan foyda yoq*

O'ylab qarasam, shu paytgacha yaralarimni doim o'zim bog'lagan ekanman.

Har yiqlganimda yana o'zimga-o'zim qo'l cho'zgan ekanman.

Boshimga biror tashvish tushganda yonimda bo'lishini istagan insonlarimga emas, o'zimga suyangan ekanman.

Quloqlarim shunchalik ko'p yolg'on-yashiq so'zlarni eshitdiki, his-tuyg'ularim shu qadar ziyon ko'rdiki, shuning uchun o'zimdan boshqa hech kimga ishonmaydigan bo'lib qoldim.

Keyin o'zimga dedim: «Menga inson zotidan xayr yo'q ekan. Men eng ko'p o'zimga muhtoj ekanman».

**O'zingni ehtiyyot qil. Bir kun hamma ketadi,  
parchalaringni esa yana o'zing yig'ishtirib olasan.**

## **Hayotiningizda faqat olishni emas, kezi kelsa, berishni ham biladigan insonlar bo‘lsin**

Borligi bilan yo‘qligi bir bo‘lgan odamlar yopiq do‘konga ijara to‘lashga o‘xshaydi. Ular sizga hech narsa berishmaydi, lekin sizda bor narsani shunday so‘rib olishadi-ki, hatto qaddingizni tik tutolmaydigan ahvolga tushib qolasiz. Sizdan nimadir undirishga kelganda, ular timsohdek ko‘z yosh to‘kib, istagan narsalarini qo‘lga kiritishadi. Gap ular sizga biror narsa berishga kelganda esa ko‘zdan g‘oyib bo‘lishadi. Faqat mavjud bo‘lishdan boshqa narsaga yaramaydigan, moddiy emas, ma’naviy tomondan ham hech qanday yordam bermaydigan odamlarni hayotiningizdan supurib tashlang. Atrofingizda har doim har qanday masalada sizga ko‘mak beradigan odamlar bo‘lsin. Hech bo‘lmasa, o‘zi o‘qigan, jumlalarining ostiga chizgan kitobini sizga sovg‘a qiladigan, siz uchun she‘r bitadigan insonlar bo‘lsin. Shunday insonlar bo‘lsinki, ko‘zlariga qaraganingizda qalbini tiniq suvdek ko‘ra biling. O‘ziga ishonadigan, sizni hech qachon aro yo‘lda qoldirmaydigan, sizni shubha ostiga qo‘ymaydigan va hech qanday masalada shubhalantirmaydigan, borligi yoki yo‘qligi bilan azob bermaydigan, yaralamaydigan, yaralagan taqdirda ham, davolashni biladigan insonlar bo‘lsin.

**Yo‘lingiz doimo ko‘nglingizni obod qiladigan  
odamlar tomon yetaklasin.**

## *Endi hammasi ózgardi*

Bundan keyin avvalgi meni juda sog'inasiz. Bundan buyon dilozorlarga dilozorlik bilan, baxt ulashadiganlarga esa baxt bilan javob qaytaraman. Men endi avvalgidek qalbini quchoqlab ko'z yosh to'kadigan, o'zini xafa qildiradigan ko'ngilchan inson emasman. Hammasi ortda qoldi. Bir tomonlama harakat qilish, kurashish va sevish menga hech qanday foyda keltirmadi. Aksincha, bu menga faqat zarar yetkazdi. Endi unday bo'lmaydi. Endi hayotimdagি o'rningizni o'zingiz belgilab berasiz. Menga qanday munosabatda bo'lsangiz, men ham sizga shunday munosabatda bo'lamан. Har kim o'ziga loyig'ini oladi. G'amga botsam, mendan ko'proq kuyinmaydigan odamlarni hayotimning markaziga qo'yolmayman. Men bilan o'rtadagi rishtalarni uzganlarni o'zimga qaytarish uchun urinmayman. Endi mendan ketmoqchi bo'lganlarning oyog'i ostiga asfalt yotqizaman, bemalol ketishini ta'minlayman. Hayotimda qolishni istaganlarni e'zozlayman. Endi loyiq bo'lmagan odamlar uchun o'zimni azobga tashlamayman.

**Uzoqdan qirg'oq kabi ko'ringan odamlar tomon  
suzaman deb cho'kib ketdim.  
Men endi o'zimdan boshqa hech kimga ishonmayman.**

*Sevmaslik uchun bahona emas,  
Sevish uchun sabablar izladim*

Menga sevishim uchun har doim kichik sabablar yetarli edi. Hech qachon sevishdan qochmaganman va sevmaslik uchun bahona qidirmaganman. Hech kimga o'zim his qilmagan so'zlarni aytmasdim. Befarq bo'lgan odamimga yolg'on umidlar berib, keyin yolg'iz tashlab ketmaganman. O'zimni hech qachon boshqa odamdek tasvirlamaganman. Nimani his qilsam, shuni oshkor qillardim. Men sevmaslik uchun bahona emas, sevish uchun sabab qidirdim. Ehtimol, bularning evaziga achchiq azob bilan taqdirlangandirman, lekin baribir harakat qildim. Biror kimsa menga kurashmading, deb aytolmaydi, chunki oxirigacha kurashdim. Men ham, vijdonim ham xotirjam. Aytmoqchimanki, sevish uchun juda ko'p sabablar bor. Masalan, uning qahva finjonini qanday tutishini sevasan, u o'qigan kitobidagi tagini chizgan jumlasini sevasan, mushukni erkalab, boshini silashini sevasan. Sevaverasan. Aytganimdek, sevish uchun sabablar ko'p. Bunga yetarli xohish bo'lsin. Qalbing eshigini och. Qadringni bilmaganlar orqangda qolsin. Seni faqat qadrlaydiganlar sevsin.

*Sevgisi uchun har xil qurbanliklar qilgan insonlarga  
hech kim «Sen kurashmading», deb aytolmaydi.*

## **Vijdoning pok bo'lsin, qolgan masalani yechsa bo'ladi**

Barchamiz «Mening vijdonim pok», deya jar solamiz. Sizga bir narsa aytaymi: o'z zimmasiga yuklatilgan vazifani bajarib, bir chetga chiqqancha «Mening vijdonim pok», deb bemalol ayta olish shu qadar yoqimli lazzatki, buni hech narsaga alishib bo'lmaydi.

Shu paytgacha hayotimga kimlar kirgan bo'lsa, biror naf chiqadimi yoki yo'qligiga ishonch hosil qilmay turib hamma-hammasi uchun oxirigacha kurashdim. Bundan naf chiqdimi yoki yo'qmi, muhim emas. Xudoning biror bandsi oldimga kelib: «Sen qo'l qovushtirib o'tirding», deb aytolmaydi. Chunki hech kim menga bunday ayblov qo'ya olmaydigan darajada arqonning uchini mahkam ushladim. Men ishimni puxta bajardim. Ular bunga arziydimi yoki yo'qmi, bilmayman. Lekin men harakat qildim, bu ular uchun yetarli.

**O'z zimmamga yuklatilganini bajardim,  
deya olish insonga xotirjamlik bag'ishlaydi.**

## *Yolgizlikka suyanaman*

Hech kimga hech narsani tushuntirmayman, chunki hech kim meni tushunmasligini bilaman. Yuragi sevgi nimaligini bilmaydigan odamlarni sevishga urinmayman. Ketish uchun kelganlarni hayotimga kirgizmayman. Eshitishni bilmaydiganlarga yuragimni ochmayman. Siz buning nomini nima deb ataysiz, bilmadim-u, ammo men buni o'z doiram-dan chiqmaslik deb atayman. Menga hech kim kerak emas, men o'zimga o'zim o'rtoqman.

Hayot qiyin, odamlar shafqatsiz va men juda yolg'izman. Lekin bu yolg'izlikdan shikoyat qilmayman. Chunki yolg'izlik o'zimning tanlovim. Men bu vaziyatdan hech qachon nolimaganman. Aksincha, shu tarzda o'zimni yaxshiroq his qilaman. Doimiy: «Qiziq, u meni chindan ham sevadimi? Boshqa birovga ham menga qaragandek qaraydimi? Menga bergen umidini boshqa birovga ham beradimi?» degan tashvishlardan va shubhalardan ozodman. Menga yolg'izlik qulay. Kelib meni o'ziga o'rgatib qo'yganidan keyin sevgim, shuncha qilgan mehnatim va ishonib topshirgan qalbim bilan aro yo'lida qoldirib ketadigan odamlarni hayotimga qabul qilmayman. Endi imkon qadar hammadan va hamma narsadan qochishga harakat qilaman. Ha, yolg'izlik Allohga xos, biroq bandalariga ishonmayman. Shuning uchun ham

*Mirach Chag'ri Oqtosh / O'zingga xush kelding*

yolg'on sevgi va soxta samimiyatdan emas, menga hech qachon zarar keltirmaydigan yolg'izligimdan panoh topaman.

**Siz «Men seni sevaman», degan o'yinni o'ynashda davom eting. Men esa sizni tomosha qilaman.**



## Mushuklarni ayblamang

Men mushuklar haqida bilmayman, lekin odamlar haqiqatan nonko‘r ekanini bilaman. Aslida, mushuklarning nonko‘rligi odamlarning nonko‘rligi oldida hech narsa emas. Agar kimdir uchun biror narsa qilsang, nega bunday qilding, deyishadi. Agar qilmasang, nega qilmading, deyishadi va be-farq odamga chiqarishadi. Senga bir sirni aytaymi, hech kim uchun hech narsa qilmaslik kerak. Chunki hech kim zarracha harakat qilishga arzimaydi. Shunchaki o‘zingni urintirganing qoladi. Ba’zi narsalar borki, ularni insonlar keyinroq tushunib yetishadi. Keyin ko‘zgu oldida turib: «Men shu uchun shuncha harakat qildimmi?» deydi...

Aslida, bu ularning aybi emas. Bu ayb bizniki. Ular ni taltaytirib yuboramiz va o‘zlariga bo‘lgan ishonchi oshib ketishiga sababchi bo‘lamiz. Hech kim uchun behuda fidokorliklar qilmasliging kerak. Axir «Sevilmasdan turib sev ma, parishon bo‘lasan», degan gap bor-ku. Buni kim aytgan bo‘lsa ham, juda to‘g‘ri aytgan. Bizning yonimizda bo‘lishni xohlaganlarni vaqt o‘zi ko‘rsatib qo‘yadi. Shusiz ham yetarli cha azob tortdik. Shunchasi yetadi.

**Mushuklarni nonko‘r deb ataydiganlar, men yaxshilik qilgan odamlar mushuklardan ham battarroq.**

## **Sevaman deganlar nega tark etishga shoshiladi?**

Do'stlar, menga ayting-chi, chinakam sevgan odam tashlab ketishi mumkinmi? Men doim aytganman, yana aytaman: sevgan odam nimaiki bo'lmasin, tark etishga shoshilmaydi. Sevgan odam osonlikcha ketolmaydi. Ikki karra ikki to'rt bo'lganidek, bu ham haqiqat... Sizni sevmaydiganlar sizni tark etganda mendan bitor xato o'tdimikan yoki mening aybim nima edi, deb o'ylamang. O'zingizni bundaylar uchun o'tga tashlamang. Ba'zi odamlarning ketishi inson uchun yangitdan dunyoga kelishdir.

Xo'sh, inson nima uchun tark etadi? Menimcha, bu savolla ikkita aniq javob bor: birinchisi, avval aytganidemdek, u chinakamiga sevmaydi. Ikkinchisi, boshqa birov uni ko'proq qiziqtiradi. Hech kim sizning o'rningizga boshqa odamni topmasdan turib sizni tark etishga shoshilmaydi. Ayniqsa, sevishni bilmaganlar. Ushbu turdag'i insonlar haydovchiga o'xshaydi. Ular zaxira g'ildiragisiz yo'lga chiqishmaydi. Sizning yo'qligingiz ular uchun qo'rqinchli emas. Bunday odamlar uchun shirin hayotingizni zaharga aylantirmasligingiz kerak. Ular bunga arzimaydi. Ularning yolg'on his-tuyg'ularidan g'azablanishingizga hojat yo'q. Shuni bilingki, haqiqiy sevgi har tomonlama o'zini namoyon qiladi. Sizni yo'qotishdan va sizz qolishdan qo'rqlaydigan odamlarga yo'l bering: chunki ba'zi odamlar chiroyli qalb berishdan ko'ra ko'proq yo'l berishga munosibdirlar.

**Ketganga yo'l yarashadi, qolganlarga – muhabbat...**

## Ketganlar qaytib keladimi?

Siz ketishini istamagan odamlar sizni har xil bahonalar bilan tashlab ketganida ularning qaytib kelishlarini kutmang. Ular ketishi bilanoq ortidan eshikni mahkam yoping. Hatto qulfini o'zgartiring, ular yana xohlagan payt ichkariga kirib, sizni har xil azob va halokatlarga duchor qilishlari uchun yo'l qolmasin. Agar biror kishi sizni bir marta tark etgan bo'lsa, u bu harakatni odatga aylantiradi. Unga bu imkoniyatni berish yoki bermaslik esa sizga bog'liq.

Men doim aytganman, yana aytaman: ketishga qator qilgan odamni to'xtata olmaysiz. Zotan, uni to'xtatishga urinmasligingiz kerak. Aytaylik, u ketdi, pushaymon bo'lib qaytib kelganida siz uni zinhor qabul qilmasligingiz lozim. Xohlaganlarida ketadilar, xohlaganlarida qaytib kelishadi. Ular o'zlarining xohishlariga ko'ra harakat qilishadi va bir soniya ham sizning his-tuyg'ularingizni o'ylashmaydi. Siz ham ularga sevganингiz uchun ruxsat berasiz. Hech qachon hech kimga bunday bag'rikenglik ko'rsatmang. Ketmoqchi bo'lganlarni qo'yib yuboring, qolmoqchi bo'lganlar shusiz ham vaqt o'tib ayon bo'ladi. Inson o'zini hurmat qilishi kerak. Men g'urur haqida gapirmayapman, o'z-o'zini hurmat qilish kerakligini nazarda tutyapman. Menimcha, insonning bu ha-yotdagi eng katta boyliklaridan biri o'zini hurmat qilishidir. Agar inson o'ziga bo'lgan hurmatini yo'qotsa, u hayotdagi

hamma narsasini yo'qotadi. Shunday ekan, ketish istagida bo'lganlarga yo'l bering, qaytib kelmoqchi bo'lganlarga yo'l qo'y mang.

– Siz eng ko'p qayerda xato qildingiz?

– Hech qachon meni tashlab ketmaydi, deb o'ylagan insonlarim ketib qolganida...

## *Inson öz tajribalarining mahsulidir*

Sen har doim uning yonida bo'lding. Uning baxtiga, dardiga, qisqasi, yaxshi va yomon kuniga sherik bo'lding. Uning nigohi tushgan har joyda paydo bo'lishga harakat qilding. Uni boshqalar ranjitdi, sen yana uning yonida eding. U yiqildi, sen uni oyoqqa turg'azishga harakat qilding. Uning hayoti iziga tushib ketishi uchun qo'lingdan kelgan hamma ishni qilding. Bir inson bir insonning tiklanishi uchun qancha harakat qilishi kerak bo'lsa, sen buning hammasini qilding. Balki, qilgan zahmatlaring qadrlanmagandir, lekin bu yo'l to'g'ri emasligini bilsang ham, yurishdan to'xtamading.

U bunga loyiqmi yoki yo'qmi, bir zum ham o'ylamasdan his-tuyg'ular girdobiga tushib qolding va u uchun hamma narsaga qo'l urding. U nima qildi? O'rnidan turgach, seni eslamadi. Hayoti iziga tushgach, seni tanimadi. Shuncha sa'y-harakatlaringga e'tibor bermadi. Zotan, shu paytgacha qaysi bir odam chin muhabbatning qadriga yetgandi? Hech kim. Sen munosib deb bilganlaring hech narsaga arzimadi. Va bu sening qolgan odamlarga bo'lgan ishonchingni ham tugatdi. Yuragini fido qilib sevganlarning hammasi yutqazdi.

**Hozir hech kimga osonlikcha ishona  
olmasligimning yetarlicha sabablari bor**

«Qo'lingiz sindimi?  
Kuyinmang, balki, Alloh sizga qanot bermoqchidir».  
Hazrat Mavlono

Shikoyat qilayotgan hayotingizga bir nazar tashlang. Hatto olayotgan nafasingiz omonat ekan, siz qutulolmayman deb o'ylagan muammolaringiz doimiyimi? Ishonavering, o'tib ketmaydigandek tuyilgan hamma narsa o'tib ketadi. Hech qachon tugamaydigandek tuyilgan tashvishlar tugaydi va hayot davom etadi. Sog'lig'ingiz joyidami? Nafas olyapsizmi? Menimcha, bular siz yashayotgan hayotingizdan minnatdor bo'lish va qadrlash uchun yetarli sabablardir. Bilasizmi, Najib Fozil Qisakurak insonlarga hayotning qadrini eslatuvchi bir jumlasida nima deydi: «Agar hayotdan juda zeriksangiz, qabristonni ziyorat qiling. O'liklar yaxshi biladi, yashamoq go'zaldir». Shaxsan o'zim ham hayotdan to'yib, qabristonga borgan va menga berilgan umrning qadrini anglagan kunlarim juda ko'p bo'lgan. Agar sizning ham yashayotgan hayotiningizdan ko'nglingiz to'lmayotgan bo'lsa, qabristonga boring. Shunda haqiqatan ham hayotning qadrini va asl mohiyatini tushunasiz. Shukr qilishni o'rganasiz. O'limdan boshqa hamma narsaning chorasi borligini unutmang. Olayotgan nafasingizning har bir soniyasini qadrlang.

Hayotimga keraksiz insonlarni kiritganim uchun  
eng ko'p o'zimdan uzr so'rayman.  
Bundan keyin hech kimni o'zimdan ko'p sevmayman.

## O'zing uchun ham yasha

Qani endi o'z hayotingda o'zing uchun yashasang. Vaqt juda tez o'tmoqda va sen hozir olayotgan nafasingning qadrini bilsang edi. Keraksiz odamlarni qadrlashni, ularga o'zlarini o'ta muhim shaxsdek his qildirishni, noto'g'ri insonlarga ishonishni va hatto salomlashishingga ham loyiq bo'lmanan odamlarni hayotingga kiritishni bas qilsang edi. Xudbinlikni o'ziga kasb qilib olgan odamlar nomini oqlashga urinishdan to'xtasang edi.

Shu vaqtgacha doim kimnidir rozi qilish uchun yashading. Har doim kimnidir xursand qilishga intilding. Do'stlaring, oilang, sevgiling... Hammaning baxti uchun kurashding-u, lekin o'zingni oxirgi o'ringa qo'yding. O'z xohishlaringni tinglamading.

Yetar endi. Bugungi kuning qaytib kelmaydi. Sen esa qayta tug'ilmaysan. O'z baxtingni kechiktirish bilan sen o'z hayotingni o'g'irlayapsan. «U nima deydi, bu nima deydi», deyish bilan yashashni to'xtatib qo'yyapsan. Sen bu hayotga odamlarning fikri va gap so'zlariga qarab yashayman deb kelmagansan. Endi o'zing uchun ham ozgina yasha. Chunki sen bu hayotga boshqa kelmaysan.

**Hech kim sendan qimmatli emasligini anglab yetadigan  
bir bosqich bor, buni hech narsaga almashib bo'lmaydi.**

## *Haqiqatan ham sevgi nima edi?*

Bir zamonlar sevgi mehnat edi. Sevgi ezgulik edi. Ammo hozir unday emas. Qo'shiqlardagi, film va she'rlardagi sevgi biz hozir boshdan kechirayotgan narsa emas. Chunki biz kimga yuragimizdan joy berib, u uchun harakat qilgan bo'lsak, hammasi boshimizga chiqdi. Negadir sevgi haqida gap ketganda qo'l ushlashib, birga yurgan kishilarimiz hamisha bizdan ortda qolardi. Ularning ko'p qilmishlariga e'tibor bermay, «Vaqt o'tib hammasi yaxshi bo'ladi», degan xayrixohlik va ishonchimizni yo'qqa chiqarishdi.

Shuning uchun ham hozir birovning og'zidan chiqayotgan «seni sevaman» degan so'zlariga ishonmayman. Ularning bergen va'dalarini bajarmagani mayli, hatto men juda yaxshi bilaman degan odamlarimni ham taniy olmayapman. Yo men bilgan sevgiga sizlar begonasiz, yoki men sizlar sevgi deb ataydigan narsa nimaligini tushunmayman.

**Men endi kimnidir sevish uchun yetarli bo'lgan  
kuchni o'zimda ko'rmayapman.  
Meni bu holga keltirganlarni Allohga topshiraman.**

## *Bir tomonlama muhabbat*

Ba'zi sevgilar faqat bir tomonlama bo'ladi. Sen kimga-dir ko'ngil qo'yasan. Unga hayotingni baxshida qilasan. U bilan o'tkazgan har bir daqiqada unga yanada qattiqroq ko'nikib borasan. U hech qachon seni tashlab ketmasligiga o'zingni ishontirasan. Bir kuni qarabsanki, u ketadi. Xato qilganing-ni tushunasan. Iching yonadi, lekin uni qalbingdan chiqarib tashlolmaysan. U hayotingga hech qachon kirmagandek yashashda davom etadi, ammo sen ojizlik qilasan. U barcha dardlarni, o'tmishni va xotiralarni senga tashlab ketadi, lekin sen baribir undan nafratlana olmaysan. Chunki ishq undan qolgan azoblarni ham sevish demakdir. Azoblarni bag'ring-ga bosasan. Hayotda bir tomonlama muhabbat bor, evaziga hech narsa kutmay sevadiganlar bor. Kimdir tashlab ketganning, kimdir sevganning rolini o'ynaydi. Har bir sevgining bir qotili va qahramoni bor.

Qotil o'tgan vaqtni, barcha xotiralarni, o'tmishni, qadr-qimmatni va sevgini o'ldirgan, go'yo hech qachon tashlab ketmaydigandek taassurot uyg'otib, so'ng tashlab ketgan odamdir. Qahramon esa o'rtadagi rishta va munosabatlarni saqlab qolish uchun qo'lidan kelgan barcha ishni qiladigan kishidir. Agar ushbu satrlarni o'qiyotgan bo'lsang, sen sevgingning qahramonisan. U hamma narsani barbod

*Mirach Chag'ri Oqtosh / O'zingga xush kelding*

qilishga harakat qilganda sen sevgingni va munosabatlarni  
saqlab qolishga harakat qilding. Shu xotirjamlik senga kifoya  
qilsin.

**Bir kun kelib hayotingga shunday inson  
kirib keladiki, sevilish nimaligini shunda ko'rasan.  
U seni shu qadar chiroylar sevadiki,  
«Boshdan kechirgan barcha azoblarimga arziydi»,  
deysan.**

## *giz doim haq edingiz, onal*

Ha, onajon, ha, siz doim haq edingiz. Buni tushunishim uchun biroz vaqt kerak bo'ldi. «Odamlar tomon bir qadam qo'yishdan oldin ming bora o'yla», deganingizni eslayman. Siz doim menga qarab «Odamlarning so'zlariga emas, amallariga e'tibor ber», derdingiz. Keyin yana «Kimga ishonch bildirganingga, kim bilan birga yurganingga va kimlarni sevganingga e'tibor ber. Chunki ba'zi xatolarning, o'tgan umrning va tilingga yopishib qolgan pushaymonlarning o'rnnini to'ldirib bo'lmaydi», deb qayta-qayta ta'kidlardingiz. Rost dan ham o'rnnini to'ldirib bo'lmas ekan, ona... Lekin yashab ko'rmasdan avval ba'zi haqiqatlarni anglab bo'lmas ekan. Insonlarning niqob ostidagi yuzini ko'rib bo'lmas ekan. Esingizdami, doim menga «Yakuning chiroyli bo'lsin», deb aytardingiz. Yo'l oxiriga kelib, men bilan birga yo'lga chiqqan ko'p hamrohlarimni yo'qotganimda, nima demoqchi ekanligingizni tushundim. Ha, men hozir tajribaliroqman, lekin bunday tajribaning mukofoti charchoq ekan. Juda horidim, lekin bu horg'inlik jismoniy charchoq emas. Men hatto yaxshi niyatlarimdan, yuragimdagи yo'qotgan narsalarimdan, bir kun kelib hammasi yaxshi bo'lishi uchun qilgan harakatlarimdan charchadim. Endi mening eng katta dushmanim – yaxshi niyatim. Niyatim yaxshi ekanligini ko'rgan odamlardan qo'rqaman.

*Mirach Chag'ri Oqtosh / O'zingga xush kelding*

Men qo'rqaman, chunki ezgu niyatimdan foydalanishlarini bilaman.

Men endi siz nima istayotganingizni va o'zingizni qanday his qilayotganingizni bilmaydigan tarafingiz bilan kurashmoqchi emasman. Siz meni mag'lub qildim deb o'ylang, men esa buni «o'sish» deyman.

Hatto sizning yaxshi niyattingiz ham yomon.

Men sizga ishonganim uchun doim og‘ir badallar to‘lab kelganman. Siz meni bunga majbur qildingiz. Sizga ishonganim, qadrlaganim va sevganim uchun pushaymon qildingiz. Bu nadomatni suyak-suyaklarimgacha his qildirdingiz. Endi men sizning yaxshi insonni o‘ynagan rol laringizga laqqa tushmayman. Chunki «senga hech qanday yomonligim yo‘q» deganlar menga eng katta dushmanlik qilishini, «Seni hech kim mendek sevolmaydi», deganlar meni mehrga muhtoj qilib ketishini, «Menga ishonsang bo‘ladi», deganlar esa ishonganimga pushaymon qilishini juda yaxshi bilaman. Men endi sizning yaxshi inson niqobi ostidagi jirkanch qiyofangizni fahmlay olaman. Aslida, men har doim hammani o‘zimdek deb o‘ylardim. Shuning uchun doim yutqazardim, lekin endi unday emas. Men endi oqni qoradan ajrata olaman. Masalan, endi o‘zimdan boshqa hech kimni e’zozlamayman. Sevmayman. Men sizning yaxshi niyattingiz ortida qanday yomonlik borligini sezaman. Bundan keyin hech biringizga ishonmayman. Birovni quchgim kelsa, o‘zimni quchoqlayman. Kimnidir sevishni xohlasam, o‘zimni sevaman. Menga hech kim kerak emas. Men endi yolg‘izlikda baxtliman.

**Bundan ilgari oshiqlik haqida qilgan da’volari-  
ngizga ishonardim. Hozir esa shunchaki kulib qo‘yaman.**

## *Men senga yetmayman*

Men nima qilsam ham, senga na yordam bera oldim, na ko'nglingni to'ldiroldim. Sen uchun qilganlarim, sa'y-harakatlarim, qurbanliklarim, urinishlarim, sevgim, qisqasi, hech narsa senga yetmadi. Hech narsadan qoniqmadning. Chunki birovning qo'lini ushlab, ko'zi bilan dunyon kezadigan odamning oyog'i ostiga dunyolarni tashlasangiz ham, uning ko'nglini ololmaysiz. Men ham ololmadim. Seni qanchalik kuchli sevishimni his qildira olmadim. O'rta-mizda hatto kichik muammo chiqsa, darrov boshqa tomonga yo'nalarding.

Shunga qaramay, sen meni tashlab ketgan joyingda men doim seni kutardim. Qayta-qayta kelarding, qayta-qayta ketarding. Men voz kechmadim, chunki voz kechish uchun sevmagandim. Men sening bu beqaror fe'lingni tuzata olmasdim, lekin o'zgarishingni kutgandim. Seni sevishimni ko'rishingni istardim. Lekin ko'rmading. Seni hech narsaga qaramay sevadigan, hayotining har daqiqasida seni birinchi o'ringa qo'yadigan, seni o'zidan ko'ra ko'proq o'ylaydigan odamning qadrini bilmading. Oxir-oqibat hech narsa o'zgarmasligini ko'rdim va men ham ketishga qaror qildim. Bari-bir qol demading. Shu payt sen mendagi hech narsaga loyiq emasligingni angladim. Sen uchun qilgan hech qaysi harakatlarimga arzimaysan. Seni qarg'amayman, shunchaki meni

*Mirach Chag'ri Oqtosh / O'zingga xush kelding*

tushunishing uchun o'zing kabilarga yo'liqishingni tilayman.

**Hech qachon kelmaydigan odamni kutganim uchun  
ba'zida o'zimdan uyalaman.**

## *Chayon va qurbaqa hikoyasi*

**«Siz ba'zi odamlarning o'zgarishini kutasiz, lekin ilon faqat terisini tashlaydi, fe'l-atvorini emas».**

Hozir men sizga bir hikoya so'zlab beraman. Bu hikoyani o'qiganingizda, bir zum o'zingizni qurbaqaning o'rninga qo'yasiz, deb o'ylayman.

Bir kuni daryo bo'yidagi qurbaqaning yoniga chayon yaqinlashibdi. Chayonning yaqinlashayotganini ko'rgan qurbaqa qo'rqib ketibdi va orqaga tisarilibdi. Buni ko'rgan chayon qurbaqaga qarab: «Hoy, baqajon, daryodan o'tishim kerak, menga yordam bera olasanmi?» deb so'rabdi. Qurbaqa bir zum o'ylab turib: «Men senga qanday qilib yordam beraman? Axir sen chayon bo'lsang, meni chaqib olishing mumkin-ku?» deb javob beribdi. Baqaning niyati yaxshi bo'lsa-da, chayonda buning aksi edi. U baqaning beradigan javobini oldindan bilgani uchun shunday deb javob qaytaribdi: «Qo'rhma, senga hech qanday yomonlik qilmayman. Agar seni chaqsam, sen cho'kib ketasan va ikkimiz ham halok bo'lamiz». Baqa bir zum o'ylanib qolibdi va chayonning bu javobini mantiqli deb hisoblagani uchun unga ishonibdi. U chayonni daryodan o'tkazib qo'yishga qaror qilibdi.

Ular daryoning narigi chetiga o'tish uchun suvning yarmini bosib o'tganda baqa bo'ynining orqa qismida kuchli

og'riqni his qilibdi. Uning tanasi juda tez soviy boshlabdi. Ni-hoyat u qo'l va oyoqlarini his qilmay qolibdi. Baqa suv tubiga cho'kib ketayotib, so'nggi nafasida chayonga shu savolni beribdi: «Men senga ishongandim. Axir meni chaqmaslikka va'da berganding-ku, nega bunday qilding?»

Chayon ham yelka qisgancha javob beribdi: «Nima ham qillardik, bu mening odatim».

Endi siz mendan nega aynan bu hikoyani aytib berganimni so'raysiz. Shu paytgacha hayotingizga kirgan odamlarni ko'z oldingizga keltiring va ularni ushbu hikoyadagi chayon bilan solishtiring. Ularning odatlari bir xil emasmi? Hech qanday farq yo'qligini ko'rasiz. Ba'zi odamlar ham xudi chayon kabi. Ular avvaliga bizning ishonchimizga kiradi, hech qachon ketmaydigandek va hech qachon yomonlik qilmaydigandek bizga yaqinlashadi. Keyin sira kutmagan paytda bizni zaharlashadi. Keyin ichimizda paydo bo'lgan o'sha og'riqdan bizni chayonsifat odam chaqib olganini anglab yetamiz.

Ishonasan, suyanasan, sevasan va qadrlaysan, xo'sh, keyin-chi? Qalbingdagi og'riq bilan yolg'iz qolasan. «Qaydanam ishondim», deb o'zingni koyiysan, lekin allaqachon kech bo'ladi. Keyin hech narsani o'zgartira olmaysan.

**Qachonki ishonchingizning mukofotini katta azob bilan olganingizda, boshqa hech kimga osonlik bilan ishonmaydigan bo'lasiz.**



**Senga kelayotib baxtdan samolarga uchgan yo'llarimdan  
o'pkam to'lib-to'lib yig'lab qaytdim...**

**Meni unut, buni unutma.**

## *Bizga samimiylik kerak*

Mening eshigim men aytganimdan so‘ng amalga oshiriladigan iltifot va mehr-muhabbatlar uchun yopiq. Chin ko‘ngildan qilingan xushmuomalalik va samimiyatlarning men uchun o‘rni va qadri bo‘lakcha.

Biror kishi bilan tanishish u odamga nima yoqish-yoqmasligini aniqlab, keyin shunga ko‘ra harakat qilish degani emas. Misol uchun, men bilan tanishmoqchi bo‘lgan har qanday kishi shunday savol beradi: «Menga ayt-chi, senga ko‘proq nimalar yoqadi va nimalarni xushlamaysan?» Men esa agar bular haqida senga aytib beradigan bo‘lsam, nima qizig‘i qoladi? Undan ko‘ra o‘zing kashf qil, deyman. Chunki menga nima yoqish-yoqmasligini o‘zimdan eshitish o‘rniga o‘sha odamning o‘zi meni kashf qilishi tarafdoriman. Buyurtma rishta va buyurtma tuyg‘ularga hayotimda o‘rin yo‘q.

Sizda ham shunday bo‘lsin. Sizdan so‘rash va sizdan olgan javoblar asosida harakat qilish orqali sizni tanishlariga yo‘l qo‘ymang. Ular sizni o‘zlari kashf qilishlariga imkon berling.

Sizning hozirgi vaziyatingiz yaxshi yoki yomonligi muhim emas. Shu paytgacha sizda zarracha haqqi bo‘lmagan, siz uchun harakat qilmagan odamlarga siz bilan faqat og‘izda tanishishga urinishlariga yo‘l qo‘ymang. Yuzaki yaqinlik va

## *Mirach Chag'ri Oqtosh / O'zingga xush kelding*

samimiyat uchun eshigingizni yoping. Chin dildan xohlagan inson eshigingizni qanday ochishni o'zi biladi. Vaqt o'tib bunga o'zingiz guvoh bo'lasiz.

**Sening ham fikrlaring bu asrning odamlari bilan  
to'g'ri kelmasa, sen men bilansan.**

## *Urinishlarimga arzishini istagandim*

Bir bora, atigi bir bora qilgan urinishlarim bekorga ketmasa edi. Bir marta kimnidir taniganimdan afsuslanmasam, bir marta kutgan e'tiborimni olsam edi.

Kim bilan tanishsam, oxiri pushaymonlik bilan tuyaydi... Kimni hayotimga kirlitsam, oxiri xato bo'lib chiqadi. Loaqlal bir bora qilgan qurbanliklarimning evaziga vafosizlik bilan javob olmay deb urinaman, lekin foydasi bo'lmaydi. Nima qilsam ham oxiri ayni natija bilan yakunlanadi. Nimaga qo'limni uzatsam, uzoqlarda bo'ladi. Kim bilan tanishsam, pushaymon qiladi. Nimaga intilsam, behuda chirangan bo'lamан. Ilgari men yangi odamlar bilan tanishardim. Ularning hikoyalarini qiziqish bilan eshitardim.

Qaniydi hayotimda kimdir bo'lsa, sevsam, sevilsam, har lahzamni u bilan baham ko'rsam, deb orzu qillardim. Lekin hozir birovni hayotimga kiritish u yoqda tursin, kim bilandir tanishishga ham hafsalam yo'q. Chunki men tanishishga uringan inson meni ranjitishini bilaman. Yolg'izligimdan panoh topdim, endi undan kuch olaman.

**Dostoyevskiyning shunday achchiq bir munojoti bor:  
«Ojizligim bilan tinmay kurashaman deb  
kuchimni tugatib qo'ydim».**

## Nima uchun faqat sen yo'qotyapsan?

Kel, nima uchun faqat sen yo'qotayotganiningni o'zim aytaman. Birinchidan, sen hammani o'zingdek ko'rason. Ammo hamma ham sen kabi emas, azizim, sen avval shuni bilishing kerak. Hamma ham sendek fikrlamaydi. Hamma ham sendek qalbga ega emas. Qarshingdagi odamda o'zingni ko'rishni va hammani o'zingdek o'ylashni darhol to'xtatishing kerak.

Hammaga «Bundan yomonlik chiqmaydi», degan nazar bilan qaraysan. «U bunday ish qilmaydi», deysan. Uning og'zidan chiqqan ikki og'iz shirin so'zga ishonasan. Keyin qarasang, «Bundan yomonlik chiqmaydi», degan insonlarin qoldirib ketgan dard bilan kurashayotganiningni ko'rason. Bunday qilma.

Yana umrining oxirigacha hatto ovozingni eshitishga loyiq bo'limgan odamlarni qadrlaysan. Buning ustiga, ular uchun qattiq harakat qilasan. Ular bunga arzimaganini ancha keyin tushunasan, lekin o'sha paytda qo'lingdan hech narsa kelmaydi. Masalan, o'zingdan ko'proq ular haqida qayg'urasan. O'z baxtingni yarimta qilib, boshqalarni baxtli qilishga urinasan. Va ular sen uchun hatto kiprigini ham qoqmaganini bilsang ham. Sen har doim hamma narsa uchun mas'uliyatni o'z zimmangga oladigan odamsan. Hech kim sen uchun barmog'ini ham qimirlatmasa-da, sen o'zingni

## *Mirach Chag'ri Oqtosh / O'zingga xush kelding*

o'qqa-cho'qqa urishdan to'xtamaysan, shuning uchun doimo sen yo'qotasan.

Sening ichingda bo'ronlar tinmaydi, ular esa pinagini ham buzmaydi. Mana nima uchun doim sen yo'qotasan. Seni yo'qotishdan qo'rqlmaydigan va sensizlikni o'ziga munosib ko'rgan odamlarning sendan ketmasligi uchun tinmay kurashsan. Mana nima uchun doim sen yo'qotasan. Ular boshqa sohillardan panoh topishganda sen ularning qirg'og'ida cho'kib ketasan. Mana nima uchun doim sen yo'qotasan.

Bo'ldi, bas! Bundan buyon kimlardir uchun o'zingni fido qilmaysan. Seni yo'qotganlarni qaytarish uchun harakat qilmaysan. Ketmoqchi bo'lganlarga oq yo'l tilab, qolmoqchi bo'lganlarga mehr ko'rsatasan, chunki sen yo'qotishga loyiq emassan.

**Nozim Hikmatning «Agar u mensiz qolishga tavakkal qilgan bo'lsa, men usiz hech narsani yo'qotmayman»,  
degan jumlasini esla.**